



Mahfuza To'ychiyeva

**ADABIYOT DARSLARIDA
DIDAKTIK VOSITALAR:
*tanlov o'lchovlari,
qo'llash usullari***



ISBN: 978-9943-9605-4-1

9 789943 960541



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

MAHFUZA TO'YCHIYEVA

**ADABIYOT DARSLARIDA
DIDAKTIK VOSITALAR:
TANLOV O'LCHOVLARI,
QO'LLASH USULLARI**

**"FAN VA TA'LIM" NASHRIYOTI
TOSHKENT - 2023**

UO'K: 37.026:82.09

KBK: 74.202.5

83.3

T82

To'ychiyeva, Mahfuza Umakulovna.

Adabiyot darslarida didaktik vositalar: tanlov o'lchovlari, qo'llash usullari [Matn] / M.U. To'ychiyeva. – Toshkent : "Fan va ta'lim" nashriyoti, 2023. – 136 b.

Mas'ul muharrir:

Q. Husanboyeva – pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Q. Yo'ldoshev – pedagogika fanlari doktori, professor;

R. Niyozmetova – pedagogika fanlari doktori, professor

Ushbu monografiyada zamonaviy adabiy ta'limni amalga oshirishda didaktik materiallar tanlash, ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or shakl, usul va vositalarini tatbiq etish masalalari yoritilgan.

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2023-yil 25-apreldagi 1-sonli majlis bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN: 978-9943-9605-4-1

© M. To'ychiyeva, 2023-y.

© "Fan va ta'lim", 2023-y.

*Otam Umarqul To'ychiyev va onam
Og'iloy Boyzoqova xotiralariga bag'ishlayman.*

KIRISH

Jahon pedagogik tajribasida zamonaviy adabiy ta'limga amalga oshirish va uning muhim qismi hisoblangan o'quv darsliklariga didaktik materiallar tanlash, ta'lim jarayoniga o'qitishning ilg'or shakl, usul va vositalarini tatbiq etish adabiyot o'qitishning muhim masalasi hisoblanib, bu sohada o'quv materialini tanlashning turli o'lchamlari joriy etilgan. Ana shunday o'lchamlardan biri o'quv materialining "o'qishlilik" darajasidir. AQSHning ko'pgina shtatlarida tahsil oluvchilar uchun mo'ljallangan o'quv matni o'qishlilik indeksiga muvofiq kelishi qonun bilan belgilab qo'yilgan. Rossiya va Qozog'iston Respublikasida ham darsliklarga qo'yiladigan talablarda milliy ta'lim xususiyatlarini nazarda tutgan holda, flesh indeksiga moslik tamoyili hisobga olinadi.

Dunyoda o'quv matnning "o'qishlilik" darajasini standartlash masalasi o'tgan asrning 20–30-yillardidan boshlanib, 80-yillarda Xalqaro Kitobxonlar Assotsiatsiyasi va AQSH ingliz tili o'qituvchilarining Milliy Kengashi o'quv materiallarining o'qishlilik darajasiga alohida e'tibor bilan yondashishning zaruriyati asoslangan. Bularning barchasi dars jarayoni va darslikka o'quv materiallari tanlash orqali adabiy ta'lim sifati va samaradorigini ta'minlashga umumjahon pedagogik tafakkurida dolzarb ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida adabiy ta'lim sifati va samaradorligi millat kelajagi uchun xizmat qilmoqda, yangi avlod darsliklari, o'quv qo'llanmalari, elektron kitoblar, ma'lumotnomalar yaratilmoqda, kitob o'qish va kitobxonlik madaniyatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonda mukammal o'quv materialiga ehtiyoj mavjud bo'lib, ushbu o'quv materialida o'quvchilarning

yoshiga mos ma'naviy rivojlanishini ta'minlash, ularni kitobxonlik, teatr, san'at, sportga qiziqtirish, aqliy tarbiyani amalga oshirish kabi vazifalar yetakchilik qilishi taqozo etilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish vazifasi qo'yilgan. Shu o'rinda adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirish, zamonaviy shakl, metod, vositalarni qo'llash samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Milliy pedagogikamizda A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, H.M.Suyunov, N. I. Taylakov, Q.T.Olimov, G. S. Ergasheva kabi olimlar maktab darsliklari muammolarini o'rganishgan. Ularning ishlarida ona tili, adabiyot, savodga o'rgatish, mehnat, informatika, biologiya ta'limi didaktikasi, darsliklarning yaratilish tarixi, ularning ilmiy-pedagogik asoslari tadqiq etilgan. Xususan, metodist olim Q. Yo'ldoshev maktab adabiyot darsliklari xarakteri, tili, darslikda badiiy matn tahlili, yozuvchilarning tarjimayi holi, savol va topshiriqlarning berilishi kabilarga alohida to'xtalgan. H.Suyunov esa savoltopshiriqlar va ularning adabiy ta'limdagi o'rnini o'rgangan. M.Mirqosimova, S.Matjonov, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, M.Isayeva, M.Jamoliddinov, A.Tilegenovlar tomonidan adabiyot darslariga o'quv materiallarini tanlash muammolari qisman o'rganilgan. Adabiy ta'limda asarlarning janrlarini o'rganish masalasi ustida ish olib borgangan tadqiqotchilar ham o'quv materiallarining xususiyatlariga e'tibor qaratishgan. Jumladan, A. Tilegenov maktab adabiyot darsliklari uchun xalq dostonlaridan namunalar tanlash xususida tadqiqot olib borgan.

Monografiyada adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirishning psixologik (qiziqish, idrok, xarakter, muloqot, iroda, xotira), pedagogik (faoliyatni boshqarish, emotsiyonal-irodaviy stimul hosil qilish, intellektual

faoliyatni rivojlantirish) va didaktik (ketma-ketlilik, onglilik, ko'rsatmalilik) jihatlari o'quv materiallarini takomillashtirish tizimi asosida yoritilgan. Takomillashtirishning samarali shakl, usul va vositalari "O'qishlilikning Flesh indeksi" asosida tizimlashtirilgan. Adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini jahon talablari – "O'qishlilikning Flesh indeksi" ga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

ADABIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARGA XOS BO'LGAN JISMONIY, RUHIY XUSUSIYATLARNING AHAMIYATI

Takomillashtirilayotgan davlat ta'lif standartidan kelib chiqib, ma'naviy-estetik yo'nalishdagi o'quv fanlaridan sanaladigan adabiyot darslarida aksariyat o'quvchilar ruhiy olami, hissiyotlarini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Bu hol o'quv materiali vositasida barkamol avlodni shakllantirish, uni tarbiyalash, unga ijobjiy ta'sir ko'rsatish uchun nafaqat didaktik, balki, umuman, psixologik, yosh psixologiyasi bilan bog'liq jihatlarni ham nazarda tutishni taqozo etadi. "Uzluksiz adabiy ta'lif yo'rig'i" (konsepsiyasi)da bu hol quyidagicha belgilab qo'yilgan: "Adabiyot" darsliklari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan didaktik vositadir. Shuning uchun yangilangan adabiyot darsliklari o'quvchilarning yoshi, ruhiy va jins xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda yaratilishi kerak. Darslikni yaratishda tarbiyalanuvchilarning «yuk»ini yengillashtirish yo'lidan bormaslik, ular chuqur ma'naviy holatlarni, teran hissiyotlar silsilasini tushunmaydi, nozik ishoralarning fahmiga bormaydi deb qaramaslik kerak. Negaki, biror insoniy tuyg'u bilan yoshlik vaqtida tanish bo'lмаган одам улг'аягач о'ша tuyg'уларга бегоналигича колаверади, чунки гарандай ма'naviy fazilatни исталган вақтда эмас, фақат о'з вақтидагина шаклантариш мумкин" [17; 6-b.]. Yosh davrlari ichida o'smirlik davri shaxs hayotida tub burilish yasaydigan muhim bosqichdir. Bu yoshda o'smirda har tomonlama: ham ruhiy, ham ma'naviy, ham anatomik-fiziologik o'zgarishlarda keskin rivojlanish sodir bo'ladi. O'smirlik bolalik va kattalar hayoti oralig'idagi davr bo'lgani tufayli "o'tish davri" deb atalib, 11–12 yoshdan 15–16 yoshgacha bo'lgan bosqichni qamrab oladi [58]. Y. A. Sorokoumova o'smirlik davrini belgilashda bir qator olimlar (S. Xool, E. Shpranger, V. Shtern kabi) biologik

rivojlanishni asosiy mezon hisoblashini, ayrimlari (J. Piaje, L. S. Vigotskiy, D. B. Elkonin, L. I. Bojovich, D. I. Feldshteynlar) esa ijtimoiy rivojlanishni yetakchi mezon deb ko'rsatib o'tganlarini aytadi [58; 136–137-b.]. Shuningdek, o'smirlik davrini nomlash va belgilashda ham turli qarashlar mavjud. Masalan, psixologlar Dj. Battervort va M. Xarris yosh davrlarini sakkiz bosqichga bo'lishadi hamda 6–14 yosh oralig'ini "kechikkan bolalik" deb hisoblashadi [28; 37-b.].

T. V. Burminskaya o'smirlik davrining xarakterli jihatı kayfiyatni tez-tez o'zgarib turishi, ya'ni emotsiyonal beqarorlikda deb biladi. Emotsional beqarorlikning avj nuqtasi o'g'il bolalarda 11–13 yosh, qiz bolalarda 13–15 yoshda kuzatiladi deb ta'kidlaydi [68; 81-b.]. Bunday beqarorliklar o'smir izzat-nafsiga daxl qilingan holatda sodir bo'ladi. Chunki o'smirlik davrida bola o'z nafsoniyatiga alohida urg'u beradi.

Eng murakkab insoniy tuyg'ular va hissiy kechinmalar xususida hayotiy tajribasi hamda badiiy asarlar tasvirini qiyoslagan holda fikr yuritishga, xulosalar chiqarishga odatlanish umumiyl o'rta maktab bitiruvchisi oldiga qo'yilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan biridir.

O'quvchining emotsiyonal beqaror davrida o'rganilayotgan badiiy asar qahramoni holatini his etish, uning o'z qarashlarini hissiyotlariga tayangan holda ifodalab berishiga yo'naltirish adabiy ta'limda o'smirlik davrining eng murakkab jihatı – emotsiyonal beqarorlikdan o'quvchining o'zi uchun unumli foydalana bilish bosqichi hisoblanadi. Bu jarayon o'quvchida "o'zi yoki o'rtoqlari tushgan murakkab vaziyatga o'rganilayotgan badiiy asar qahramonlari nuqtayi nazaridan baho berish, o'zlarining xatti-harakatlariga badiiy qahramonlardan ma'naviy asos topishga urinish"ni tarbiyalaydi [11; 150-b.].

Albatta, o'smir psixologiyasining shiddat bilan o'zgarishida akseleratsiya jarayoni muhim o'rin tutadi. Psixologiya ilmida bundan yarim asr muqaddam birinchi bor akseleratsiya jarayoni qayd etilgan [48; 20-b.]. Akseleratsiya (lot.

acceleration – tezlashtirish) – bolalarda jinsiy yetilish va gavda o'sishining tezlashishidir. Bu jarayon o'smir ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda uch bosqichli sprot musobaqalarining joriy etilishi natijasida o'quvchi-talabalarni sog'lomlashtirish imkoniyatlari kengayib, akseleratsiya jarayoni oshib, bolalarning bo'yi va og'irligi o'sgan [52; 46-b.].

Adabiyotdan o'quv jarayonini tashkil etishda buni e'tiborga olish zarur. Qiz va o'g'il bolalar rivojlanishidagi farq ularning munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. O'smirda kechadigan fiziologik o'zgarishlar ruhiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Endigina boshlang'ich ta'limni yakunlab, beshinchi sinfga o'tgan, ilk o'smirlik pallasiga kirgan o'quvchiga bilim berayotgan har qanday o'qituvchi uning darsga munosabatidagi beparvolikni sezadi. Bola diqqatini endi o'qituvchining uzundan-uzun nutqi yoki deklomatsiyasi yordamida ushlab turib bo'lmaydi. 12–13 yoshda o'smirning o'qishga qiziqishida muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi: o'zini ortiqcha qiynamaydi, o'yga tolmaydi, darsni vazifa doirasida bajaradi, o'ynashga qulay vaqt kutadi. Albatta, har bir bolaning o'ziga xos individual xususiyatlari mavjud, lekin bu yoshdagilarning umumiy jihatlari fanlarning ko'payishi, o'quv materiallarining qiyinlashuvi, uning har xil xarakterdagi xilma-xil o'qituvchilar bilan to'qnashuvi tufayli paydo bo'ladi. Bunga yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari sabab bo'ladi. Bir qarashdayoq 11–12 yoshli o'quvchida energiyaning oson uyg'onishi, faollikning oshishi, g'ayratini ichiga sig'dirolmaslik kabi o'ziga xosliklar ko'zga tashlanadi. Kichik o'smir yoshidagi o'quvchilarni jonlashtirish, uyg'otish, faollashtirish oson. U darsda zerikishi, uy vazifasini bajarishga rag'batি bo'lmasligi mumkin, lekin qiziqish doirasi juda keng bo'ladi. Hamkorlikdagi va guruh tarkibida amalga oshiriladigan o'quv faoliyatiga alohida moyillik ko'rsatadi. Masalan: mактабга birga kelib ketish, topshiriqlarni, uy vazifalarini birga bajarish, guruhli didaktik o'yinlarda topshiriqlarni bajarish kabi. Bu yoshdagи o'quvchi beriladigan topshiriqqa qiziqtirilmassa, bolani uni bajarishga

majbur etib bo'lmaydi. Lekin bundan kichik o'smir yoshidagi o'quvchilarning o'qishga munosabati yomon bo'ladi, deb xulosa chiqarmaslik zarur. Ularda bolalarga xos o'tkir zehnlilik, bilishga nisbatan kuchli qiziqish, bilimlarni tez o'zlashtirish, ko'rgan va eshitganlaridan ibrat olish kabi xislatlar kuchli bo'ladi. O'zlashtirganlarini ko'z-ko'z qilishga moyil bo'ladilar. Yod olingen she'r, o'qigan asar, ko'rgan kinosini aytib berish katta ahamiyatga ega.

O'smirlilik davrining dastlabki bosqichida muhim sanaladigan o'quv faoliyati kichik maktab davridan – boshlang'ich sinflardan keskin farq qiladi: 5-sinfdan o'quv predmetlarining ko'payishi va mundarijasining oshishi; bir o'qituvchiga o'rgangan o'quvchiga turlicha talab qo'yadigan, turlicha bilim beradigan, o'quvchilarga har xil munosabatda bo'ladigan bir nechta o'qituvchining kirishi kabilar. Bu bosqichda faoliyat yuritadigan o'qituvchilar ilk o'smir yoshidagi o'quvchining hissiyotlariga e'tibor qilmay, ularning aqli va tafakkuriga e'tiborni kuchaytiradilar. Ta'limning yangi bosqichidagi bu kabi yangicha munosabatlar o'smir xulqi va intellektining o'zgarishini taqozo qiladi.

Ijtimoiy muhit o'smirlilik davrining har qanday bosqichida qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Nosog'lom muhit o'smirda delinkvent (mayda bezorilik va huquqbuzarlik) xulq-atvorni hosil qiladi. Buning oldini olish, yosh davrlarining keyingi bosqichida o'smirning psixologik rivoji ijobiy bo'lishini ta'minlash uchun ham o'smirlikning ilk davridan boshlab uning ta'lim olishi va tarbiyasiga yosh xususiyatlaridan kelib chiqib munosabatda bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ma'lumki, ma'naviyat keng qamrovli tushuncha bo'lib, uni rivojlantirish uchun o'quvchida mustaqil ijodiy ishslash ko'nikma va malakalarini o'stirish lozim. Ya'ni o'smir shaxsida ma'naviyatni shakllantirish unda mustaqil fikrlash ko'nikmasini tarbiyalash bilan mutanosib tarzda kechadigan jarayondir. Uni shakllantirishning eng qulay davrlaridan biri o'smirlik davri hisoblanadi. Bolada bu davrga kelib, fiziologik va psixologik

jihatdan katta o'zgarishlarning yuz berishi ta'lif jarayoni – o'quv dasturi va rejasini tuzishda, dars jarayoni va darslikka o'quv materillari tanlashda, darslarni tashkil etishda buni hisobga olishni taqozo etadi.

Ma'lumki, o'smirlik davri uch qismiga: kichik, o'rta va katta o'smirlik yoshiga ajratiladi. Dastlabki kichik o'smirlik davrida (11–12 yoshda) bo'lgan bolalar tashqi ko'rinishlaridan deyarli farqlanmaydilar. Lekin kichik o'smirlik davrida bo'lgan bolalar bilan shug'ullanish tarbiyalovchidan alohida mas'uliyatni talab qiladi. Shuning uchun ham aynan 5-sinfo'quvchisining psixologik holatini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan, o'qituvchilar uchun alohida metodik qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Chunki boshlang'ich sinfdan o'tgan, ya'ni bir o'qituvchi bilan to'rt yil mobaynida muntazam birga bo'lgan, o'qituvchisi bilan o'zini bir oiladay, ona-boladay his qilgan o'quvchining ta'lif tizimi bir muncha murakkab bo'lgan 5-sinfda o'qishga adaptatsiyasi-moslashuvi sezgi a'zolarining qo'zg'ovchi kuchiga monand kelishidagi muayyan o'zgarishlar pedagogik jamoa uchun ham ahamiyatlidir.

O'smir yoshidagi bolalar o'jar, boshqarilishga bo'y berishi qiyin bo'lishiga qaramay tabiatan moslashuvchan, hamkorlikka moyil bo'ladilar. Agar shu davrdan boshlab ularda shaxslik va ma'naviy sifatlar shakllantirishga intilinsa, mustaqil fikrlashga yo'naltirilsa, qarashlarini bayon etishga odatlantirilsa, ta'limning keyingi bosqichlarida nafaqat adabiy ta'lif, balki boshqa o'quv fanlarini o'qitish ham o'ta samarali kechadi. Tajribali o'qituvchilarning o'zлари saboq beradigan sinfni 5-sinfdan boshlashni afzal ko'rishlari beziz emas. Chunki o'quvchilar boshlang'ich sinflardagi dars berish usullari va ustozlari fe'l-atvorlariga moslashib qolganliklari tufayli yuqori sinfda bir o'qituvchiga ko'nikishlari va bir-birlarini tushunishlar, ya'ni adaptatsiya oson kechadi.

Jamiyatda qadrlanadigan axloqiy me'yorlarni o'zlashtirish ham psixologik adaptatsiya bilan uyg'un holda kechadi. O'zaro

muloqot va faoliyatdagi psixologik adaptatsiyaga erishish ta'lim va tarbiya orqali amalga oshadi. "Adaptatsiya jarayonida bola muammolarni ortiqcha zo'riqishlarsiz qabul qiladi va o'z kelajagini aniq tasavvur eta oladi. Aks holda, ya'ni dezadaptatsiya holatida o'quvchining kommunikativ qobiliyatini o'stirish lozim bo'ladi", - deya ta'kidlaydi V. Averin [65; 22-b.]. Beshinchi sinfga o'tgan, o'smirlikning ilk davriga qadam qo'yanan o'quvchilarning ayrimlarida o'qishga bo'lgan qiziqish susayib qoladi, bilimlarni o'zlashtirishi qiyinlashib, o'qituvchisining tanbehlari va e'tirozlariga noadekvant munosabat ko'rsatadi, tengdoshlari bilan munosabatda muammolarga duch kela boshlaydi. Aynan 5-sinfga o'tgan o'quvchining yuqori sinfga moslashish jarayonini tadqiq etgan psixolog A. V. Averin kichik o'smir yoshidagi bolada yuz berishi mumkin bo'lgan bu kabi hodisalarning oldini olish uchun undagi o'ziga past baho berish, o'zini kamsitish kabi illatlarning oldini olish, ta'lim olishdagi zo'riqishlarni iloji boricha kamaytirish lozimligini aytadi.

Bolalik va kattalik davri oralig'i sanalgan o'smirlikning ilk bosqichida shakllangan psixologik, aqliy, ijtimoiy xususiyatlar keyingi yosh davrlarida ham insonning asosiy xususiyatlari bo'lib qolishi mumkin. Bu yoshdagi o'quvchi bilan munosabatga juda ehtiyyotkorlik bilan yondashish lozim bo'ladi. Ham o'smirlik davriga o'tib fiziologik va psixologik o'zgarishlarni, ham boshlang'ich ta'limdan umumiy o'rta ta'limga o'tib ijtimoiy krizisni kechirayotgan kichik o'smirga psixologik, pedagogik ko'mak berish, unga qulay sharoitni yaratish uchun, avvalo, o'quv jarayonini, o'quv materiallarini o'quvchi yosh xususiyatlarini inobatga olib tuzish maqsadga muvofiq bo'ladi. "Biologiya" darsliklari o'quv materiallarini loyihalashning didaktik asoslarinini tadqiq etgan G. Ergasheva o'quv materiallarini loyihalashda, o'quvchilar o'smirlik davrining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turishini ta'kidlab, ularning psixologik xususiyatlariga tayangan holda faoliyatini aniq maqsadga yo'naltirish lozim, deb hisoblaydi [88; 34-b.].

5-sinflar uchun beriladigan o'quv materiallarini ham o'quvchi o'smirni o'z imkoniyati, qobiliyati, individual xususiyatlaridan kelib chiqib birgalikda, ko'pchilik bo'lib bajaradigan va asosan matnga tayangan holda erkin, ijodiy, mustaqil fikrlab javob berishga yo'naltiradigan tarzda shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki kichik hayotiy tajribasi hamda o'y-fikrlariga tayanib, javob berayotgan o'smirda noto'g'ri javob berishdan cho'chish, ikkilanish bo'lmaydi. O'qituvchisining tanbehidan, tengdoshlarining e'tirozlaridan cho'chimaydi. Ayni vaqtda uni tinglayotgan o'smirlarda ham qiziqish, diqqat ushlab turiladi. Shu tariqa bolada o'ziga nisbatan ishonch, imkoniyatiga to'g'ri baho berish, fikrini erkin ifoda etish, voqeа-hodisaga, qahramonlarga shaxsiy munosabatini shakllantirish mumkin bo'ladi.

Maktab davrining bir bosqichidan ikkinchisiga o'tish jarayonida bolalarda sifat jihatidan ma'lum darajada yangilanish yuz beradi. Bu jarayonda o'quvchi taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jihatlarni umumlashtirgan holda quyidagicha ko'rsatish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini aqliy rivojlanishi bilan beriladigan bilim, ko'nikma va malakalar nomutanosibligi, ayrim bilimlarning mantiqsizlikka asoslanganligi, oila bilan maktab tarbiyasi o'rtasidagi tafovut; 6-, 7-sinflar o'quvchilariga xos bo'lgan harakatchanlik bilan intizom tizimining nomutanosibligi, ishtiyoqning zo'rлиgi, ayrim murakkab muammolarni mustaqil hal qilishga bo'lgan moyillik, erkinlik, mustaqillik sari intilishning balandligi bilan ta'lim-tarbiya jarayonidagi bir xillik, sustlik; odamlarga, atrof-muhitga tanqidiy nazar bilan qarashning kuchayishi hamda ta'lim jarayonida bunday intilishlarni qondirish imkoniyatining yetishmasligi, tabiiy taraqqiyot bilan ta'limiy-tarbiyaviy jarayon orasidagi nomutanosiblik singari jihatlar ko'zga tashlanadi.

Bola yosh bosqichlariga ko'ra turlicha qiziqishga ega bo'ladi, o'ziga xos fikrlaydi va his qiladi. Turli yoshda turlicha faoliyat ko'rsatadi, borliqqa munosabati ham har xil bo'ladi. Beshinchi, oltinchi sinf o'quvchilarini – kichik o'smir yoshidagi bolalarning

o'qituvchilar va bir-birlari bilan o'zaro munosabati o'zgara boshlaydi. Bu davrda faollikning xususiy shakllari kuzatiladi, ularning intellekti o'zini namoyish eta boshlaydi. 12–13 yoshli bolalarning ko'pchiligi o'qishga beg'amlik bilan qaraydilar: o'zlarini oshiqcha qiynamayilar, uy vazifalarini berilgan topshiriq darajasida bajaradilar, ko'pincha, o'zlarini ovutadigan boshqa narsalarni o'ylab topishga moyil bo'ladilar.

O'rta maktab yoshiga yetgan o'quvchida boshlang'ich sinf bolasiga xos bo'lgan insonni baholashdagi keskinlik va biryoqlamalilik kamayadi. Bu yoshdagi bolani shaxsning axloqiy sifatlari, uning ichki dunyosi, xarakterining shakllanishi va bunga turki bo'lgan omillar ko'proq qiziqtira boradi. Ammo kichik o'smir adabiy qahramonni uning shaxsiga xos bo'lgan barcha jihatlarni inobatga olgan holda, yaxlit baholashga qodir emas. U ko'pincha qahramonning u yoki bu fazilatiga urg'u bergen holda shaxsini baholaydi. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar fikrlashi va harakatlarida anchagina sabrsizlik seziladi. Bu davrda bolalar darsda bajariladigan ishlarning tezligiga ehtiyoj sezadilar, oradagi bo'shiqlar ularga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu yoshdagi bolalar qiyin, murakkab vaziyatlarning uzoqroq saqlanib qolishini xush ko'rmaydilar. Kichik o'smir yoshidagi bolalar o'zlariga berilgan har qanday topshiriqlarni yoki bir o'tirishda yaxlit hal qiladilar yoki umuman bajarmaydilar.

Mustaqil muhokama qilish yoki tanqidiy tahlil ularning faoliyatida ancha chegaralangan bo'ladi. Bu bosqichdagi o'quvchilar bilimlarni tayyor holida, o'ta maydalangan darajada qabul qilishni yoqtirishmaydi. Ayrimlar vazifalarni o'zi yechishga moyil bo'ladi, agar topshiriqnı o'qituvchining ko'magisiz hal qilishga ko'zi yetsa, qo'shimcha tushuntirishlardan qochadilar. Ba'zan ularning fikr ifodalashida mustaqil mulohazani ilg'ash mumkin.

O'rganganlari orasidan o'zinikini ajratib ifodalashga harakat 5-sinf bolasida ham kam uchraydi. O'quvchilarning bunday xulqi shaxs taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tarilishi bilan

izohlanadi. Ular oltinchi sinfdan boshlab o'zlarida mustaqil fikrlash va mustaqil harakat sifatlarini namoyon eta boshlaydilar. O'quvchining bu davrdagi jismoni va aqliy rivojlanishi uning tafakkur faolligi xarakterini ham o'zgartiradi: uni mustaqil aqliy zo'riqishga undaydigan topshiriqlarga boy darslar ko'proq o'ziga torta boshlaydi. Bu hol, avvalo, o'qituvchiga munosabatning tubdan o'zgarishi va o'quvchi mustaqilligining ortishi bilan izohlanadi. Kichik o'smir yoshidagi bolalarga xos bo'lgan faoliyatga moyillik, ishtiyoqning zo'rliqi, mustaqillikka intilish shaxslik shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular o'z holicha bolaning umumiy taraqqiyotini ta'minlaydi. Bu yoshda shakllangan ma'naviy fazilatlar kelajakda ijodiy faollik garovi bo'lishi va maxsus qobiliyatlarning yuzaga kelishi shartlaridan biri bo'lishi mumkin. Bu bosqichda boy berilgan imkoniyatlar bolaning hayotida hech qachon qaytib kelmasligini har bir o'qituvchi yaxshi anglashi kerak.

Maktab ta'limining o'rta bosqichi – mustaqillikning shakllanish davri hisobanadi. Bu yoshdagi bolalar intizomli o'quvchi bo'lib, talab etilgan narsalarni bajarishdan ko'ra o'z intellektual kuchini o'zları uchun qiziqarli bo'lgan narsalarga sarflashni xush ko'radilar. Bu davrning diqqatga sazovor tomoni shundaki, bolalarda ayrim mustaqil ishlarni va amaliy topshiriqlarni bajarishga moyillik kuchli bo'ladi. Bu davrda o'quvchilarni avvalgi bosqichlarda uchramagan topshiriqlar ruhlantiradi. Ular bunday topshiriqlarni bajarishga jon-dili bilan kirishadilar.

O'smirlik davri hammada har xil shaklda: kimdadir yengil, yana kimdadir ma'lum bir asoratlar bilan o'tadi. Bola 12-13 yoshida ham kattalar ta'siridan qutilish, mustaqillikka ega bo'lish, ayrim ijtimoiy, axloqiy meyorlarni o'zlashtirishga harakat qiladi. U bilan hisoblashishlarini, o'ziga xos shaxs sifatida shakllanganligini tan olishlarini xohlashini har qanday usul bilan bo'lsa ham ko'rsatishni istaydi. Kattalar e'tiborini tortish, katta bo'lib ko'rinishga intilish, bunga o'zini ham, atrofidagi kattalarni

ham ishontirishga urinadi. Shuning uchun ba'zida kattalarga ma'qul kelmaydigan xatti-harakatlarni namoyishkorona ko'rsatadi. Masalan: chekish, ichish, qaysarlik, gap qaytarish va hokazo. Kichik maktab yoshidagi bola uchun o'qituvchi yetakchi rol o'ynasa, o'smir yoshiga yetgan o'quvchida tengdoshlari yetakchi mavqega ko'tariladi. Tengdoshlari ichida tan olinish o'smir xulqining asosiy motividir. O'rtoqlari orasida tan olinish uchun bola xatti-harakatlari, odatlarini o'zgartirishga ham tayyor bo'ladi. O'smir xulqida salbiy odatlarning paydo bo'lishi uning tan olinishga bo'lган ehtiyojini qondira olmayotganidan, o'tish pallasi og'ir kechayotganligidan darak beradi. O'smir nazarida o'qituvchi tomonidan uning nafsoniyatiga tegadigan darajada berilgan noo'rin tanbeh tengdoshlari orasida obro'sining to'kilishiga olib keladigan "fojea" darajasida ko'rindi. Ko'p hollarda bunday munosabat o'qituvchi bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi.

O'smirlilikning dastlabki bosqichida do'st tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bola do'sti tomonidan tushunilishni, kechinmalari qabul qilinishini xohlaydi. Do'stlari atrofga uning ko'zi bilan qarashlari kerak deb hisoblaydi. Didaktik vositalarning o'smirlar individual xususiyatlariga tayanib javob berishga yo'naltirilishi ulardagi shu ehtiyojni tarbiyaga yo'nalgan tarzda qondirishi mumkin. Psixolog Sorokumovaning fikriga ko'ra, eng yaqin hamdard do'st o'smir yoshidagi o'zgarishlarga yordam bera oladigan "psixoterapevt" qiyofasida ko'rindi. O'smir do'sti yordamida o'zini shaxs sifatida ko'ra boshlaydi.

Agar do'sti ma'lum bir vaziyatga u o'ylaganidan boshqacharoq baho bersa, o'tish davrini qiyinchilik bilan kechirayotgan o'smirda do'stlik munosabatlariga chek qo'yish ehtimoli ham bo'ladi. O'zini yolg'iz, najotsiz his qilgan o'smir ideal qidirishni boshlaydi. Avvalgi do'stga nisbatan uni yaxshiroq tushunadigan, har qanday vaziyatda hurmatini saqlab, qadriga yetadigan odamni qidiradi. O'smirlikda do'st faqat tengdoshlari ichidan tanlanadi. Ular o'z "olamlarini" aksariyat tengqurlari

bilan bo'lishadi. Ota-on, o'qituvchi bilan kam hollarda do'st tutinishadi. O'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan o'qituvchi o'smir yoshidagi o'quvchilarga yaqin bo'lishga, ularga ijobiy ta'sir ko'rsata olishga intilishi lozim bo'ladi.

O'smirlik davri boshdan-oxir o'z-o'zini tahlil qilish, o'zligini anglashda alohida o'rin tutadi va o'ziga bahoni o'zi belgilaydi. O'smir bu bahoni asosan o'zining tashqi ko'rinishiga qarab belgilasa-da, kattalarning uning qobiliyati va intellektiga bo'lgan salbiymunosabati, tanbehi qattiq ta'sir ko'rsatadi. Tanbehlarning ko'p bo'lishi bolada qobiliyati, iste'dodi va kuchiga shubha uyg'otadi, o'ziga ishonmaslikka olib keladi. O'smirlikning o'rta bosqichidagi bu ishonchszilik, tushkunlik yashirin ko'rinishda saqlanib qoladi. Va yetuk shaxs sifatida kamolotga yetishuvida to'sqinlik qilib turadi. Shu sababli o'quv materiallarini, adabiyot darslarini muloqotga yo'naltirib, bir qolip, bir andozaga solingan, qaytariqlardan iborat bo'lmasligiga e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolada ilk o'smirlik bosqichidan boshlab xohish va intilishning rivojlanishi uning iroda va xarakteridan ancha ilgarilab ketadi. Hayotiy tajribasi yetishmasligi natijasida nazariya bilan amaliyotni, fantaziya bilan reallikni, romantika bilan ekzotikani, haqiqat bilan illyuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm bilan qat'iylikni aralashtirib yuborishi mumkin. Xuddi shu holatlar ba'zan noxush oqibatlarni ham keltirib chiqaradi. Kattalarning, xususan, o'qituvchilarning o'smirga shaxs sifatida emas, balki ta'sir obyekti sifatida, ya'ni o'qitilishi kerak bo'lgan obyekt deb qarashi o'smir fe'l-atvorida o'zgarishlar sodir bo'lishiga, jumladan, tajanglikka olib kelishi mumkin. Bu esa har ikkala subyekt orasidagi muloqotga salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'smirda hissiy zo'riqishni kuchaytiradi.

Qiziqish o'smir psixikasining asosiy harakatlatiruvchi motivlaridan hisoblanadi. Bolalikda o'yin yetakchi faoliyat sifatida qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lsa, bu yoshdagi o'smirda qiziqish xuddi shunday mavqeda turadi. O'smirlikning

yuqori pallasiga kirgan o'quvchi mustaqillikni asosiy me'yor bilib, ko'ngli tusagan mashg'ulotga qiziqib qolishi va qiziqishlarini tez-tez almashtirishi mumkin. O'z-o'zini anglashga intilish o'smir shakllanishida yangi va muhim bosqich sanalib, unda axloqiy sifatlar rivojlana boshlaydi.

Psixolog Y. A. Sorokumova ko'pgina o'smirlarning fikrlash jarayonida qiyinchiliklarni sezadi. Ulardagi tahlil, taqqoslash, umumlashtirish zo'riqish bilan kechadigan jarayon bo'lib, ko'rgazmalilik bu davrda ham aqliy faoliyatning asosi bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Yosh davrlaridagi shaxs rivojlanishining psixik o'ziga xosliklarini tadqiq etgan Y. A. Sorokumova o'smirlikning so'nggi bosqichida o'z-o'ziga baho berish bir maromda bo'lmasligini, bu jarayon turli hissiyotlarni kechirish orqali bo'lishini ta'kidlab D. I. Feldshteyn farqlagan o'smirlik davriga asoslanib o'ziga baho berishning quyidagi xususiyatlarni sanab o'tadi:

birinchi bosqich (10–11 yosh). Bu bosqichda o'smir o'ziga baho berishga qiynaladi. O'zi haqidagi salbiy fikrlar ko'p bo'ladi;

ikkinci bosqich (12–13 yosh). O'zi haqidagi salbiy bahoning saqlanib qolishi. Shu bilan o'ziga nisbatan qarashlarning, ayniqsa tengdoshlari bahosining oshishi kuzatiladi. Bu esa o'z shaxsiga hurmat, o'ziga nisbatan ijobiy fikrlarning ko'p bo'lishini istashining oshishi bilan kechadi;

uchinchi bosqich (14–15 yosh). O'ziga keskin baho bera boshlaydi. O'zini taqqoslash orqali taftish etib boradi. O'smir qobiliyati, bilimi, shaxsiyatiga kattalarning munosabati qandayligiga jiddiy qaraydi. O'ziga bildirilgan tanqidlarni og'ir qabul qiladi. O'ziga nisbatan munosabat, o'z-o'ziga baho passiv bo'lmay, ruhiy rivojlanishida yangi mazmun kasb etadi. Yangi qiziqishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lib, kattalar, tengdoshlari, qarama-qarshi jins vakiliga bo'lgan munosabatini boshqaradi. Xulqining qanday bo'lishi ham o'smirning o'ziga bergen bahosiga bog'liq bo'ladi [58].

Psixolog I. V. Dubrovin gumanitar yo'nalishdagi o'quv fanlari nazariy tafakkur rivojida katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. U VII-X sinflarda o'quv-tarbiya ishlarini takomillashtirib, o'quvchilarni intellektual jihatdan kamol toptirishning psixologik tavsiyalarini bergan. Psixologning fikricha, o'quv materiali o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi bilan birga bir muncha murakkab va "qiyin" bo'lib, faol aqliy zo'riqishga undashi lozim. Aks holda topshiriqlar, o'quv mazmuni psixik funksiyalar (xotira, tafakkur kabilalar)ning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. "Oson va yengil" o'quv materiali yangi talab, ehtiyoj (ya'ni bilim olish, izlanish)ni vujudga keltira olmaydi [34; 70-71-b.].

Estetik-ma'naviy yo'nalishdagi o'quv fanlarini o'qitishda ko'proq tarbiyalanuvchilar ruhiyati, hissiyotlari olamining shakllantirilishiga e'tibor qaratiladi. Jahon ta'lim-tarbiya tizimida alohida mavqega ega bo'lgan maktab adabiy ta'limi ayni shu xildagi o'ziga xos mezonlarni taqozo etadigan o'quv predmetlari sirasiga kiradi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, o'smir VII sinf yoshiga yetganda uning asosiy e'tibori milliy adabiyotning yaxlit estetik hodisa ekanligi haqida muayyan tasavvur hosil etishga qaratiladi. Amaldagi darsliklarda esa adabiy materiallar xronologik tartibda joylashtirilmay, kichik va o'rta o'smirlilik davriga monand tarzda ruknlarga taqsimlangan holda taqdim etiladi. Bu adabiyotning tarixiy taraqqiyotini o'rganishga emas, balki turli davrlarda yaratilgan mumtoz badiiy matnlar yordamida o'quvchilarning ruhiyatini shakllantirishga, ma'naviy olamini tarkib toptirishga e'tibor qaratilganligidan dalolatdir.

Yettinchi sinfga kelib adabiyot nazariyasi bo'yicha birmuncha chuqurroq ma'lumotlar berilishi ko'zda tutiladiki, o'quvchilar egallagan bilimlar o'rganilayotgan badiiy asarlarni tushunish va tahlil etish uchun yetarli darajada nazariy bilimga ega bo'lishlari lozimligidandir.

Aks holda o'quvchida ko'r-ko'rona yod olish, badiiy matnga singdirilgan asosiy ma'noni topishga uquvsizlik, dangasalik paydo bo'ladi. Bunday ta'lim o'quvchining nafaqat bilish saviyasiga, tafakkuriga, balki shaxsining shakllanishiga ham salbiy ta'sir qilishini L. I. Bojovich ta'kidlab o'tgan. U ko'r-ko'rona ta'lim olgan o'quvchi dunyoga to'g'ri qaray olmaydi, tafakkur rivoji uchun harakat qilmaydi deb hisoblaydi [29; 47-b].

Psixolog va pedagog olimlarning fikrlariga tayanib shuni aytish mumkinki, jismoniy, ruhiy va intellektual rivojlanayotgan o'smir shaxsining kamol topishi uchun adabiyot darslarida badiiy matn mohiyatiga olib kiradigan, o'ylashga va munosabat bildirishga undaydigan o'quv materiallaridan foydalanish zarur. "Badiiy adabiyot san'at sifatida inson ruhiyatiga (xususan hissiyotlari, intellekti, tafakkuriga) o'zgarish, yangilanish olib kiradi" [67; 15-b].

Adabiy ta'limda o'quv materialini tanlashda:

- savol va topshiriqlarning asta-sekinlik bilan murakkab lashib borish;

- savol-topshiriqlar bilan badiiy matn o'rtasidagi uzviylikni ta'minlash, ya'ni o'quvchi savol-topshiriqni bajarishda bevosita badiiy matnga tayanib o'z fikrini aytishga yo'naltirilishi;

- badiiy asar qahramonlarini o'zi va tengdoshlari bilan taqqoslashi, solishtirishi, muayyan xulosalar chiqarishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ijtimoiy qiyoslash psixologiyada mustaqil fikrlashga sabab bo'luvchi asosiy fenomen hisoblanadi. O'quvchining o'zini asar qahramonlari bilan solishtirishi uning o'z fikri, qobiliyati va imkoniyatlarini baholashiga xizmat qiladi;

- badiiy asar namunalari taqdim etilganda (asardan parchalar berilganda) o'smirlik davrining qayd etilgan xususiyatlari e'tiborda tutilishi lozim;

- yozuvchi mahoratini anglatishga xizmat qiladigan, badiiy so'z qudratini ko'rsatadigan didaktik topshiriqlarning berilishi o'quvchining adabiy ta'limga qiziqishini oshiradi. Bu esa o'smirga ijobjiy ta'sir o'tkazishga, uni tarbiyalashga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, mактабда адабиёй материаллар устидаги ишлайотгандаги о'қитувчи хар бир о'қувчинга имкониятларига чин дildан ишониши керак. Улarning адабиёй асарларни о'злаштиришада ўтуqlarga erishishiga ишонч, о'заро симимий до'стона алоқа, бир-бируни тушунишга итилиш ham о'қитиш jarayoniga жуда кatta ijобија та'sir ko'rsatadi. O'қувчиларда бадиёй асарлар о'қишга qизиқиш uyg'otish сiri о'қитувчинга ular bilan hamkorlikni tashkil qila bilishidadir. Bu shunday faoliyatki, o'қувчи о'зини о'қитишнинг обьекти deb emas, balki mustaqil, erkin faoliyat ko'rsatuvchi shaxs – subyekt sifatida his qiladi. O'қув jarayonini tashkil qilishda o'қувчи bilan симимий маслаҳатлашиб uning o'з ixtiyorи bilan bu jarayonga kirishib ketishiga имконият yaratadi. O'қитувчинга о'қувчига munosabatидаги симимиёнлиги, hurmati ikkinchi tomonning hurmatini uyg'otadi, o'қувтарбиya jarayonida ixtiyoriy faoliyatni vujudga keltiradi. O'қувчидаги о'зини tanish hamda o'зgalar oldidagi mas'uliyatni his qilish tuyg'ularini shakllantirishga faqat uni shaxs sifatida hurmat qilish bilangina erishish mumkin.

Tarbiyachining insoniy pozitsiyasi shundaki, u o'қувчини tabiatan qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilib, o'қувчи yashayotgan muhitga, bolaning hayotiga kirib borishi, xatti-harakatlari omillarini tushunishi, qarashlari o'қувчи qarashlari bilan uyg'unlashib ketishi керак. Bu uyg'unlik o'қувчи учун muhim bo'lган insoniy qadriyatlarni, hayotga sog'lom munosabatni shakllantiruvchi адабиёт darslarida адабиёй материаллар устидаги ишлайтиш jarayonida жуда самара beradi.

Mактабда darslar nafaqat ta'limni tashkil qilishning asosiёй shakli, balki har bir o'қувчини shaxsiy hayotga yo'naltiruvchi asosiёй jarayon hamdir. Shunday ekan, адабиёт darslarining asosiёй ashyosi bo'lган адабиёй материаллар mana shu jihatlarni ham inobatga olgan holda taqdim etilishi, ular устидаги ишлайтишда esa o'қувчинга kundalik hayotiga bevosita aloqador bo'lган lavhalarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Asar matni ustida ishslash, badiiy matnni o'zlashtirish o'z holicha murakkab jarayon. Bu jarayonda yuqori o'smir yoshida shakllanib ulgurgan o'ziga xos hissiyot va fikrlash faoliyati muhim omil sanaladi. Shuning uchun bu yoshdagi o'quvchiga o'rganish uchun taqdim etilgan badiiy asar o'z mazmuni, qahramonlarining xatti-harakati, voqeа-hodisalarning rivoji, badiiyligi bilan o'quvchilarning o'z tushunchalari doirasida fikr aytishiga, erkin munozaraga kirisha olishiga zamin yaratadigan bo'lishi talab etiladi.

Demak, mazmun ko'lami keng, lekin bir qarashda bo'rtib ko'zga tashlanmaydigan, o'quvchini "yo'naltiradigan" o'quv materiallari yordamida uning badiiy matnni tushunishiga erishiladi. Haqiqiy insoniy fazilatlar, mas'uliyat tuyg'usini anglatadigan, insonni va hayot murakkabliklarini ko'rsatib beradigan, turli janrdagi, yozilish uslubiga ko'ra turli xil bo'lib, turli xalqlar milliy qadriyatlarini aks ettiradigan asarlar o'quvchi ma'naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'QUV MATERIALLARI TAHLILI (5-7-sinf "Adabiyot" darsliklari misolida)

Adabiyot insonning ma'naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini belgilashda eng samarali ta'sir ko'rsatuvchi san'at turidir. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi bilan shug'ullangan metodist olimlar A. Zunnunov [37], M. Mirqosimova [76], S. Matjonov [75], Q. Yo'ldoshev [71], Q. Husanboyeva [90], R. Niyozmetova [77], R. Keldiyorov [73], H. Suyunov [82], U. Marasulova [74] va boshqalar, pedagog olimlar F. Norbayeva [79], M. Isayeva [70], M. Jamoliddinov [69], A. Tilegenov [84], O. Usmonova [86], S. Chiniyeva [87] kabilar ta'lim-tarbiyada adabiyot darslarining bola ma'naviy kamolotida tutgan o'rniiga alohida urg'u berishgan. Psixologlar ham adabiy ta'lim inson ma'naviy dunyosining shakllanishida katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydilar. Masalan, E. G'oziyev o'smir aql-zakovotining kamol topishida ona tili va adabiyot darslari va o'qituvchisining roli juda muhimligini yozsa [62], S. N. Karaseva o'smirlarning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishida adabiyot asosiy vositalardan biri ekanligini ta'kidlaydi [72; 15.]. Inson o'z xatti-harakatlarini axloqiy jihatdan anglab yetgan holda faoliyat ko'rsatadi, anglash amalga oshirilgan qaror tubida axloqiy hissiyot yotadi [52; 105-b.]. Axloqiy hissiyotni uyg'otish va barqarorlashtirishda badiiy asarlardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darslikning o'qituvchidan keyingi rutbada turuvchi mavqeyi uning mukammal bo'lishi, ta'limning sifatini, samaradorligini ta'minlovchi omillardan biri ekanligi tufaylidir. Shu sababli ham ilmda darslik masalasiga ko'p e'tibor qaratilgan. Milliy pedagogikada bevosita darsliklar masalasi bilan G. S. Ergasheva [88], Q. T. Olimov [81], N. I. Taylaqovlar [83] alohida shug'ullanganlar. Shuningdek, o'zlarining ilmiy ishlarida "Adabiyot" darsliklari masalasiga Q. Yo'ldoshev [71], M. Mirqosimova [76], Q. Husanboyeva [90], R. Niyozmetova

[77], S. Matjonov [75], M. Isayeva [70], M. Jamolitdinov [69], A.Tilegenovlar [84] ham u yoki bu darajada to'xtalib o'tganlar.

Professor Q. Yo'ldoshevning doktorlik dissertatsiyasida maktab adabiy ta'lmini yangilashning metodik asoslari va yangicha pedagogik tafakkur taraqqiyotining asosiy yo'naliishlari belgilab berilgan. Yangilangan pedagogik tafakkur sharoitida tarbiya va uning asosiy omillari, tarbiyalanuvchi va tarbiyachi munosabatlarida pedagogik hamkorlik hukmronlik qilishi, bu jarayonda har bir bolani o'z-o'ziga tanitish, o'zini taftish qilish, qiziqishlarini aniqlash, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirish yo'llari tavsiya etilgan. Bu jarayonda o'z-o'zidan darsliklar va ulardagi o'quv materiallari o'z mazmun-mohiyati bilan yetakchi ahamiyat kasb etadi" [71; 36.].

"Uzluksiz adabiy ta'lim yo'rig'i"i (konsepsiyasi)da umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratiladigan "Adabiyot" darsliklariga quyidagi talablar qo'yilgan:

- darslik o'quv dasturi mazmunini adabiyotning eng so'nggi yutuqlarini nazarda tutgan holda, ilmiy-metodik jihatdan yuqori saviyada ochib bera olishi;
- o'quvchining mustaqil ishlashi, o'z fikr-mulohazalarini ravon, savodli bayon qila olishini ta'minlashi;
- tarbiyalanuvchini mustaqil ijodiy mushohada yuritishga undashi;
- o'quv matnlariaro va predmetlararo aloqani, bilimlar izchilligini ta'minlashi;
- dars jarayonida zamonaviy texnika va hisoblash texnikasidan foydalanishni nazarda tutishi;
- o'quv faniga oid asosiy ma'lumotlar, ilmiy tushunchalar, qoidalar o'quvchi saviyasiga mos bo'libgina qolmay, balki ularning bilim darajasidan oldinroqda yurishi, tarbiyalanuvchilarni olg'a yetaklashi;
- darsliklardagi materiallar badiiy adabiyotning turmush bilan, hayotiy tajribalar va ma'naviy qadriyatlar bilan aloqasini mustahkamlashi;

- bilimlarning muntazam, mustahkam va ongli o'z-lashtirilishiga, o'quvchilarda badiiy adabiyotga muhabbat uyg'ota oladigan, ularda milliy qadriyat va urf-odatlarga hurmat tuyg'usini o'stiradigan, milliy g'urur, vatan va xalqqa cheksiz muhabbat hislarini shakllantirishga yordam beradigan tarzda tuzilishi kerakligi belgilab qo'yildi [17].

M. Isayeva o'rta maktabning V-IX sinflarida adabiyot bo'yicha o'quv dasturi va darsliklarini takomillashtirishda quyidagilarga amal qilish lozim deb hisoblaydi:

- badiiy asar tahlili orqali yozuvchining axloqiy qarashlarini yoritish;
- badiiy asar qahramonlarining ma'naviy-axloqiy xislatlarini o'rganishga alohida ahamiyat berish;
- o'quvchilarni mustaqil ish jarayonida o'z-o'zini ma'naviy-ruhiy jihatdan anglashga qaratilgan savol va topshiriqlarni ham puxta o'ylab tuzish;
- darslik yaratishda ham axloqiy-estetik masalalarga alohida e'tibor berish [70; 42-b.].

N.I. Taylakov esa darslik foydalanuvchiga qulay bo'lishi uchun uning qiziqarli va o'ziga jalb qiluvchan; foydalanuvchi (o'quvchitalaba)ga o'z bilimi, malakasini, fan haqidagi tushunchalari va dunyoqarashini takomillashtirishga imkon yaratishi; rasmiy o'quv dasturida talab etilgan materialni o'z ichiga olishi; tushunarli va foydalanishga qulay bo'lishi; misollar, masalalar, hayotiy holatlar va amaliy tushunchalar bilan ta'minlanishi; amaliyot va nazariyani bog'lashga yordam beradigan rasm va diagrammalar mavjud bo'lishi; respublikamiz milliy va madaniy an'analari hamda qadriyatlarni inobatga olishi; o'rta saviyadagi foydalanuvchiga mo'ljallangan bo'lib, bilim darajasi yuqori va past darajadagi foydalanuvchilarni ham inobatga olish kabi tamoyillarga tayanishning zarurligi ustida to'xtaladi [83; 83-b.].

Darslik o'qituvchi uchun o'ziga xos metodik yo'riqnomasi, o'quvchi uchun esa qiziqarli, mustaqil ijodiy fikrlashga undovchi, "yaqin o'rtoq" bo'lishi lozim. Darsliklar nazariyasi

bilan maxsus shug'ullangan olimlar ta'limning muhim didaktik vositasi hisoblangan darslik ta'rifiga alohida e'tibor berishgan. Jumladan, tadqiqotchi Q. T. Olimov darslikka quyidagicha ta'rif beradi: "Darslik bu – o'quvchida muayyan o'quv fanning aniq mazmuniga ega bo'lmay qolmay, balki undan bilim olishni o'rganish, o'rganilgan bilimlarni qancha to'g'ri ekanligini taqqoslashni va amaliy ko'nikmalarda qo'llashni o'rgatadi. Darslikni o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorligi vositasining birligi sifatida tasavvur qilish kerak. Darslik o'qitish vositasi majmuasining negizi hisoblanadi" [81; 35-b.].

G. S. Ergasheva: "o'quv materialining ta'lim jarayoniga qadar bo'lgan holati darslik muallifining pedagogik layoqatiga, uning ta'lim jarayoni mohiyatiga qanchalik kirib borganiga, ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish va didaktik loyihalash sohasidagi mahoratiga bog'liq" [88; 34-b.] deb hisoblaydi. Haqiqatan, ta'limning lokal loyihasi hisoblangan darslik aksariyat hollarda o'qitishning umumiy yo'nalishini belgilab beradi. S. Matjonovning tadqiqot ishi o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga bag'ishlangan bo'lib, bu jarayon ijodiy tafakkurni o'stirish omili ekanligi, adabiyot darslarida o'quvchilarni og'zaki va yozma ijodiy ishlarga undash bevosita darsliklardagi o'quv materiallaridan biri bo'lmish savol-topshiriqlarning zimmasiga yuklatilishi xususida so'z boradi. Savol-topshiriqlarning turlari va ularning mazmuniga alohida e'tibor qaratiladi [75].

M. Mirqosimovaning doktorlik ishi o'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda ham darsliklardagi adabiy matnlarning berilishi, ularning mazmun-mohiyati va tahlilga yo'naltirilgan didaktik ashyolar xususida so'z yuritiladi. Doktorlik dissertatsiyasida darslikda taqdim etilgan badiiy asarlar ustida ishlashning qiyosiy tahlil, muammoli ta'lim, munozara dars, seminar dars, mustaqil ish kabi o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar xususida so'z boradi [76]. H. Suyunovning nomzodlik dissertatsiyasi bevosita

“Adabiyot” darsliklaridagi adabiy asarlar mazmuni yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlarning mazmuniga bag’ishlangan [82].

Alovida adabiy janrlarni o’rgangan tadqiqotchilar ham darslik masalasiga u yoki bu darajada to’xtalib o’tganlar. Masalan, A.Tilegenov dostonlarning “Adabiyot” darsliklarida berilishi masalasini tadqiq etgan [84].

Umuman, adabiy ta’limni zamonaviy talablar asosida tashkil etish ustida ish olib borayotgan metodist-olimlar o’z ishlarida darslik xarakteri, undagi o’quv materiallarining tili, badiiy matn tahlili, savol va topshiriqlarning berilish tarzi, yozuvchilarning tarjimayi holiga alovida to’xtalganlar. “Adabiyot” darsliklarini adabiy ta’lim mazmunini yangilovchi eng asosiy bo’g’in sifatida baholab, ularning mukammalligi o’quvchilar shaxsiyati shakllanishiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi omil sifatida ko’rsatib o’tgan [38; 63.].

Tahlil jarayonida shu narsa ma’lum bo’ldiki, mustaqillikka erishilgandan keyin “Adabiyot” darsliklarida adabiyotga sof estetik hodisa sifatida baho berish, ularga yangilangan adabiy tafakkur nuqtayi nazaridan yondashish yaqqol ko’zga tashlana boshlangan.

Shuningdek, ta’limda o’quvchi maqomining ortishi, hamkorlik pedagogikasiga e’tiborning oshishi ham darsliklarda qaysidir darajada aks etgan. Buni 1991- yilgi 5-sinf “Vatan adabiyot” darsligi [30; 3-b.] bilan 1994-yilda nashrdan chiqqan “O’zbek adabiyoti” darsligining [55; 4-b.] bosh maqolasi “Kirish” va “Muqaddima”ni solishtirish misolida ko’rish mumkin. 1991-yilgi nashrning bosh maqolasi “Kirish” deb nomlanib, adabiyot so’z san’ati deb atalishining sababini qisqa jumlalar bilan izoh berib o’tilgan, xolos. Darslikning “Kirish” qismidan so’ng mavzular xronologik tarzda berila boshlangan. 1991-yilgi nashrda “Xalq og’zaki ijodi” rukni ostida “Uch og’a-ini botirlar” ertagi, “Chambil qamali” dostoni, “Malikai Husnobod” ertaklari taqdim etilgan va ular haqida kichik tahliliy matn, topishmoqlar

va topishmoqlar haqida tahliliy matn, maqollar va maqollar haqida tahliliy matnlar berilgan. "Uch og'a-ini botirlar" ertagi unga oq-qora tasvirda rasmlar ilova qilingan holda to'liq berilib, "o'z so'zingiz bilan hikoya qiling" deb o'quvchini shunchaki qayta hikoyalashga yo'naltirilgan topshiriq bilan bir qatorda "Uch og'a-inining ziyrakligi haqida ertakdan misollar keltirib so'zlang, ertaklar qanday so'zlar bilan boshlanadi va tugallanadi?" kabi ularni qisman izlanishga, o'ylashga undaydigan savol-topshiriqlar ham berilgan.

5-sinf "Adabiyot" darsliklarining 1999 - yilgi nashridagi bosh maqola "Adabiyot nima?" deb nomlanadi [50; 4-b.]. Maqolada badiiy adabiyotning so'z yordamida maydonga kelishini tasvirlashdan oldin, san'atning musiqa, raqs, haykaltaroshlik singari turlariga to'xtalingan. Adabiyotning ta'sir kuchi Hamzaning bir she'ri mazmunini izohlash bilan ko'rsatilgan va pand-nasihatlardan ko'ra ana shunday hikoyatlar yordamida kishilar ongi, yuragi, diniy qarashlariga ta'sir o'tkazish mumkinligi aytilgan. Adabiyot ana shu imkoniyatlardan foydalanishga intilishi ta'kidlangan. Maqolada o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda o'rganganlarini takrorlashga, eslashga undovchi quyidagicha savol va topshiriqlar keltirilgan: "Quddus Muhammadiy adabiyotning qaysi turida ijod qilgan?", "Vatan, istiqlol, mакtab haqidagi she'rlardan birini yod aytib bering". Bu kabi savol-topshiriqlar ma'lum darajada adabiy ta'limning uзвиyligi va uзluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi, albatta. Lekin ularning bu tariqa jo'n, faqat xotira hisobidan ishslashga qaratilgan turlari adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq kelavermaydi.

5-sinf "Adabiyot" darsliklarida 1999- yilgi nashrdan boshlab mavzular xronologik tarzda emas, ruknlar ostida birlashtirilib berila boshlangan: "Hikmat durdonalari", "Ertaklarning sehrli olami", "Afsonalar sadosi", "Mumtoz adabiyotga sayohat", "Bolalikning beg'ubor olami", "Vatanni sevmoq iymondandir". Darsliklarda adabiy matnlarning bu tariqa maxsus ruknlarda

taqdim etilishi o'qituvchi e'tiborini badiiy matnni qaysi rakursda o'rganishga yo'naltirilganligiga qaratadi. Ruknga jamlangan asarlar majmui o'quvchi diqqatini uzoq vaqt bir mavzu atrofida ushlab turadi. Bu boradagi qarashlarining qat'iy lashuviga sharoit yaratadi.

Yillar o'tib borgani sari darsliklardagi mukammallahuv har bir mavzuda ko'rindi, deyish to'g'ri bo'lmaydi, albatta. Ba'zi mavzularning berilishida, asarni o'rganishda avvalgi yillardagi darsliklardan o'rganadigan, namuna olsa bo'ladigan jahatlari ham bor. Masalan: Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertagini o'rganish mustaqillik yillaridagi darsliklarda qisqa ko'rinishda berilgan. 5-sinf darsligining 1957-yilgi nashrida savol-topshiriqlarikki qismga: "Savollar va vazifalar" ko'rinishida berilgan [31]. 1971- yilgi nashrda har bir bo'limga alohida savol va topshiriqlar taqdim etilgan [32; 40-b.], o'quvchini matnga tayanib, izlanishga, o'ylashga undashga harakat qilingan: "Bu ertak bilan "Malikai Husnobod" ertagini qanday o'xshash tomonlari borligini gapirib bering. Quyidagi maqollarni o'qing, qaysi biri ertakning ma'nosini bilan bog'lanishini aniqlang: "Xalq tinchligini buzgan omon qolmas"; "Yurt qo'risang o'zarsan, qo'rimasang to'zarsan".

Darsliklarda taqdim etilgan matnni qayta gapirib berishga yo'naltiruvchi savollar ham, aslida, asar matnnini qayta hikoyalash o'quvchining xotirasi hisobidan bajariladigan va boshlang'ich sinflar adabiy ta'limining didaktik ish turi bo'lsa-da, bu o'quvchilarni qaysidir darajada izlanishga undashiga harakat qilingan. Masalan: "Asarning IV bobini ertakka yaqinlashtirib so'zlab bering va nutqingizda "devday qadam tashladi", "Baxtiyor g'azab sochdi", "chol birdan cho'chib qochdi" kabi iboralardan foydalaning".

Shuningdek, darslikda asar matni asosida chizilgan rasm yuzasidan ham savol-topshiriqlar berilgan bo'lib, ular o'quvchini ziyraklikka, sinchkovlikka, tasviriy san'at namunalarini uqishga undaydi: "29-betdagi rasmga diqqat qiling. Har bir shaxs (xon,

Darxon, Oygul)ning qanday holda turganligini so'zlab bering" [32; 30-b.].

2007- yilda yaratilgan 5-sinf "Adabiyot" darsligida o'smirlilik davrining ilk pallasiga kirgan o'quvchining psixologik jihatlarini hisobga olgan holda tuzishga katta e'tibor berilgan [22; 3-b.]. Ularda o'quvchilarga ko'p narsani aytish imkonи berilgan, shaxsiyati hurmat qilinib, katta harflar bilan "Siz" deb murojaat qilingan. Yangi iboralarning "sal og'irlik qilayotan bo'lsa, buni bir sodda misol bilan tushuntiramiz" tarzida berilishi o'quvchida o'ziga ishonch, mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalaydi. Bosh maqolada adabiyot tarix bilan bog'lanib, tarixiy hikoyalarni eslatish orqali fanlararo uzviylikni ta'minlash bilan bir qatoda so'z san'atining inson hayoti bilan chambarchas bog'liqligi ko'rsatib bera olingan. Muhammad Yusufning "Vatanim" she'ridan olingan parcha orqali "Ona vatan" tushunchasiga izoh berilishi va adabiyotning nafisligi bilan dag'allik, befarqlik, yovuzlik singari yomon odatlarga o'rganib qolishdan asrashi ishonarli, o'quvchiga ta'sir eta oladigan tarzda berilgan. Adabiyotning tarbiyaviy ahamiyatini yoritish bilan bir qatorda bilimlarni kengaytirishi hamda boyitishga ham xizmat qilishiga urg'u berilganki, bu "Adabiyot" darsligining nufuzi oshishiga ijobiy ta'sir qilgan. Bosh maqolada adabiyot darsining ahamiyatini yoritishdan "nega badiiy asarlar kishilarni bunchalik qiziqtiradi?" savoliga javob berish, adabiy asarlarning turlarini izohlashga o'tilgan. "Adabiyot - so'z san'ati" maqolasi ilk sahifalardanoq o'quvchini adabiyotga oshno qilishga qaratilgan. Uni mustahkamlashga berilgan savol va topshiriqlar ma'lum darajada o'quvchida uyg'ongan ilk taassurotni rivojlantirib, uni ijodiy, mustaqil fikrlashga yo'naltirilganligi bilan diqqatga sazovor: "Hozirga qadar o'qigan adabiy asarlardan qaysi biri Sizga eng kuchli ta'sir qilgan? Bu ta'sirning sababi nimada, deb o'ylaysiz? Ko'chalar, metro bekatlari, teatrlar, shahar va qishloqlar, turli davlat mukofotlarining ko'pchiligi shoir-yozuvchilar nomiga qo'yilishining sababi nimada ekan? Adabiy asar bilan muallim

darsi o'rtasida qanday o'xshash va farqli tomonlar bor? Fikringizni aniq misollar bilan tushuntirishga harakat qiling" va hk.

Bu savollar o'smirni hali o'ylab ko'rмаган, таққослаған, солиһтірмagan hodisalarga e'tibor qaratishga, ularni qiyoslashga undaydi, hali balki hech kimga aytmagan taassurotлarini ifodalashga yo'naltiradi. Bu hol ijobiy ma'noda o'quvchining e'tiborini adabiyotga, darslikka qaratishga "majbur qiladi", badiiy so'zga qiziqish uyg'otadi.

"Adabiyot" darsliklarining asosiy tarkibiy qismlaridan bo'lган yozuvchi tarjimayi holi ham o'quvchilarda badiiy adabiyotga mehr uyg'otishda katta ahamiyata ega. Darslikdan o'rin olgan Ezop haqidagi maqolada masalchi shaxsining hayotida sodir bo'lgan ibratli voqealar misolida ochib berilishi nihoyatda aqlli Ezopga o'quvchining hurmatini, ijodiga qiziqishini oshira oladi. Darslikda masallar izohi, qissadan chiqariladigan hissasi bilan berilgan. Ezopning masallalari sharhlanganda o'zbek xalqi hikmatlari ishlatalganki, bu yaxshilik, ezzgulik barcha xalqlarda ham birday qadrlanishi, insoniy fazilatlar millat tanlamasligi ko'rsatib berilgan: "Og'irning ostidan, yengilning ustidan o'tma", - deydi dono xalqimiz. Har qanday qiyinchilikni bardosh bilan yengib o'tishga harakat qilgan odam, albatta, maqsadiga yetadi". Yoki "Burgut, zag'cha va cho'pon" masalidan so'ng "Ana shunday toifa odamlarga nisbatan donolar: "Ko'r pangga qarab oyoq uzatgin" deya tanbeh beradilar. Darhaqiqat, yoshi ulug' yoki martabasi baland kishilar oldida maqtanchoqlik qilish, o'z imkoniyatlariga to'g'ri baho bera olmaslik, ularga noo'rin xatti-harakat bilan o'zini ko'rsatmoqchi bo'lish oxir-oqibat u kimsani beobro' qiladi, e'tiborsiz narsadek chetga chiqib qolishga sabab bo'ladi" kabi [22; 44-b.].

Agar Ezop masallaridan ba'zilari mualliflar tomonidan sharhlanib, ayrimlarini tahlil qilish o'quvchilarning o'zlariga havola etilganda, xalq maqollaridan monandlarini topish, xulosa chiqarish o'zlariga havola etilganda edi, tarbiyalanuvchilarning

faolligi yanada oshgan, qarashlarini asoslashga yo'naltirilgan, qissadan hissa chiqarishga odatlantirilgan bo'lar edi.

2007-yil nashridagi 5-sinf "Adabiyot" darsligida eng muvaffaqiyatli berilgan mavzulardan biri "Uch og'a-ini botirlar" ertagidir. Oldingi nashrlardan farqli o'laroq, ertak matni botirlar va podshoh o'rtasida bo'lib o'tgan voqealarni qamrab oladi. Matnni berishdan oldingi "Uch og'a-ini botirlar" ertagi haqidagi izohda ertak deb nimaga aytilishi, uning o'ziga xos qurilishi, ertakning boshqacha atamasi ham uchrashi haqida nazariy ma'lumot beriladi. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati izohlanadi: "Barkamol yigit bo'lib voyaga yetgan uch og'a-ini botirlar podshohga kuyov bo'lishdi. Endi ular saroyda qolib, ayshishrat qilib yotsalar ham bo'lar edi. Podshohning o'zi ularga shuni taklif qildi. Biroq og'a-inilar bunga rozi bo'lmaydilar. Nega? Ertakni o'qib chiqsangiz, buni o'zingiz bilib olasiz", - deya o'quvchini asarni o'qishga qiziqtiriladi. Darslikning oldingi nashrlarida ertakning botirlarni yo'ldagi sarguzashtlari berilib, voqealar rivoji oxiriga yetkazilmagan. Amaldagi darslikda ertak voqealarining ikkinchi yarmi ham berilganki, bu o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladi.

Maishiy ertaklar turiga kiradigan "Uch og'a-ini botirlar" ertagi qaysi jihatlariga ko'ra shu turga mansubligini, umuman ertaklarning bir necha turlarga bo'linishi haqida ma'lumot berib o'tilganda ertak haqidagi nazariy bilimlar yanada to'liq bo'lar edi. Maqolada u haqda ma'lumot berilmasa-da: "Siz o'tgan darslardan ertaklarning bir necha turlarga bo'linishini bilib olgan edingiz" eslatmasi beriladi [22; 63-b.].

Bu darslikda ham "Oygul bilan Baxtiyor" ertagi qisqartirishlar bilan berilib, uni to'liq matnnini o'qib chiqish vazifasi topshiriladi: "Maktabingiz kutubxonasidan Hamid Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor" ertak-dostonini topib, to'liq o'qib chiqing".

Juda ravon, qiyinchiliksiz o'qiladigan asardagi she'riy san'atlarning izohlanishi 5-sinf o'quvchisiga ona tilidan o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashga, Hamid Olimjon

mahoratini ko'z oldiga gavdalantirishga xizmat qiladi: "... Jambil elining qonxo'r xoni zulmga qarshi bosh ko'targan xalqqa rahbarlik qilgan keksa Darxonning boshini tanasidan judo qilib, uning go'zal qizi Oygulga tikilishi:

Qiz oldida bu xirs
Ko'rsatib yovvoyi hirs...

deya tasvirlanadi. "Xirs" fors-tojik tilida "ayiq" degani bo'lsa, "hirs" – insонning qo'pol nafsi ifodalaydigan tushunchadir". Yoki asardagi: "yana bir badiiy topilmaga" e'tibor qaratilib, Oygul baliq qornidan topib olgan gavharni sotish uchun bozorga tushgan cholni ustamon savdogar: "Cholni qo'y may holiga, olib chiqib xoliga" gaplashadi. Dostondagi bu kabi topilmalarga o'quvchining e'tiborini tortish ona tili fanidan o'tiladigan undoshlar imlosi mavzuusini mustahkamlashga, fanlararo uzviylikni ta'minlashga ham xizmat qiladi" [22; 96-b.].

5-sinf o'quvchilari uchun yaratilgan amaldagi "Adabiyot" darsligida san'atning boshqa turlariga murojaat Andersen ijodida kuzatiladi: "Siz uning ertaklari syujeti asosida ishlangan kinofilmlar, sahna asarlarini ko'p ko'rgansiz. Dyumchaxon, Irkit o'rdakcha, Bulbul, Kay, Gerda, Suvparisi kabi obrazlar sofinsoniy orzular bilan xalq ertaklariga xos xayoliy sarguzashtlarning uyg'unlashib ketganligi tufayli barchamizning sevimli qahramonlarimizga aylangan" [27; 112-b.].

Umuman, 5-sinf uchun yaratilgan qator darsliklar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular nashrdan nashrga takomillashtirilib borilgan. Ularni yanada takomillashtirish borasidagi nazariy qarashlar va amaliy takliflar bobning oxirgi bo'limida o'z aksini topgan.

Mustaqillik davrida 6-sinflar uchun yaratilgan "Adabiyot" darsliklarida adabiyotning o'quvchi kamoloti uchun xizmat qiladigan eng sara asarlari berila boshlangan. Darslik turli "izm'larga bo'ysunmagan, faqat yaqin qo'shnilar bilan chegaralanmagan mundarija asosida shakllantirildi.

Mustaqillik davri “Adabiyot” darsliklaridagi bosh maqolalarda adabiyot shaxs va tabiat uyg’unligida talqin qilina boshlandi. Mustaqillikkacha bo’lgan darsliklarda bosh maqola berilmay, to’g’ridan to’g’ri mavzular taqdim etilgan.

6-sinf uchun 1991-yilda nashr etilgan “Adabiyot” darsligidagi “Odoblar xazinasi”, “Inson – badiiy asarning bosh qahramoni” nomli kirish maqolalari o’quvchini adabiyotga yangicha yondashuvga o’ziga xos tayyorlovchi, moslashtiruvchi, yo’nalish beruvchi vazifasini o’tagan [19; 158-b.].

Savol va topshiriqlar ikki qismda:

“I. O’zingiz hal qiling.

II. O’qituvchi yordamida hal qiling” tarzida berilgan.

Birinchi darsdanoq o’quvchini faollikka undash bu nashrnning yutug’i hisoblanadi: “Shu vaqtga qadar o’qigan badiiy kitoblarining ro’yxatini tuzing. Ulardan sizga ko’proq ma’qul bo’lganlari qaysilar? Sababini izohlang. Sizga yoqqan (yoki yoqmagan) asar qahramonlari nimasi bilandir o’zingizga yoki tanishlaringizdan birortasiga o’xshab ketadimi?” va hokazo.

6-sinf “Adabiyot” darsligining 1995- yilgi nashri “O’zbek adabiyoti tarixi” ruknida Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan “Hotami Toy”, “Ikki vafoli yor”, “Kabutar” hikoyatlari keltirilgan. “Alisher Navoiy va uning hikoyatlari haqida” maqolasida shoir hayoti, hikoyatlar mazmuni, undagi g’oyalari izohlangan. Savol topshiriqlar ham badiiy matnga emas, balki maqolani o’rganishga yo’naltirilgan. “Hayrat ul-abror” dan olingan hikoyalar yuzasidan esa bir xil qolipdagi savollar berilgan: “Hotami Toy” hikoyatining mazmunini so’zlab bering va undagi obrazlarni tavsiflab bering. Dostondagi “Kabutar” hikoyasining mazmuni va g’oyasi nimadan iborat?” va hk [56; 20-b.].

Bobur, Muhammad Solih, Huvaydo, Gulxaniy, Mujrim Obid, Ogohiy umuman “XX asr o’zbek adabiyoti” ruknidan A. Qodiriy ijodigacha bo’lgan ijodkorlar bir yo’sinda berilgan. A. Qodiriy hayoti va ijodi Habibulla Qodiriy esdaliklari orqali yoritilgan.

Unda yozuvchining mahalla bolalari uchun qiroatxona ochishda ko'mak bergani, uni kitob, jurnal, gazetalar bilan ta'minlagani, ko'cha bolalariga bu juda ma'qul kelgani tasvirlangan. Darslik mualliflari hech qanday izohlarsiz Habibulla Qodiriy esdaliklaridan olingen parcha orqali Abdulla Qodiriy shaxsini o'quvchi tasavvurida gavdalantirishga erishilgan. G'. G'ulom va Oybekni o'rganish ham o'ziga xos tarzda berilgan. Ularning hayotiga emas, balki ijodiga urg'u berilgan: dastlab ular haqidagi yozuvchi, adabiyotshunoslarning fikrlari, so'ng ijodlaridan namunalar, asar yuzasidan savol va topshiriqlar, nazariy ma'lumotlar tarzida. Nazariy ma'lumotlar qisqa va lo'nda berilgan. Lekin o'quvchi hali tanish bo'lмаган asarlardan misollar keltirilgan. "Hikoya kichik epik janrdir. U birgina voqeа asosiga quriladi. Ana shu birgina voqeа jarayonida birikki shaxsning, qahramonning umumiy va o'ziga xos sifatlari ochiladi. A. Qodiriyning "Uloqda", Abdulla Qahhorning "Bemor", G'. G'ulomning "Mening o'g'rigma bolam" hikoyalarni o'qidingiz. A. Qodiriy hikoyasida uloq voqeasi va u bilan bog'liq fojea tasvirlanadi. A. Qahhor asarida Sotivoldi xotinining og'rishi va shunga munosabat jarayonida Sotivoldining nochor ahvoli ko'rsatiladi". Bunday holat 1997-yilgi nashrda ham takrorlangan [57; 116-b.].

6-sinf uchun 2000- yilda chop etilgan "Adabiyot" darsligidan boshlab asarlar "Bola – uchqur xayol sohibi", "Kechagi kun saboq", "So'zda hikmat bor", "Tuyg'ularning kamalak rangi" deb nomlangan ruknlar ostida berilgan.

"Bola – uchqur xayol sohibi" rukni ostida jahon adabiyotidagi bola zehnini o'stiradigan, faqat bolalikdagi tasavvur rang-barangligiga monand asarlar berilgan: topishmoqlar, Janni Rodarining hech kimnikiga o'xshamagan, tugallanmagan yoki bir necha yakuni bor ertaklari; Xudoyberdi To'xtaboyevning mashhur sarguzasht asari, Chingiz Aytmatovning ramzlarga boy "Oq kema" qissasi, Jonatan Swiftning dunyoga mashhur "Gulliverning sayohatlari" asari kabi [41].

Darsliklar nomining o'zgarishi, adabiy matnlarning maxsus ruknlariga joylashtirilishini shunchaki tasodif yoki shakliy yangilanish ehtiyoji deb bo'lmaydi. Bu badiiy asarlarga qaysi rakursdan yondashilsa, o'rganish uchun taqdim etilgan asarga qanday nazar bilan qaralsa badiiy so'zning ta'sir kuchi kutilganday bo'lishi mumkinligidan kelib chiqqan.

Mazkur nashr 2005- yilgacha takomillashtirilib borilgan. 2005- yilda 6-sinf uchun "Adabiyot" darsligi yangilangan [22]. Badiiy asar ruhiyatini kitobxonga singdirish, o'quvchi tasavvurida asar voqealarini jonlantirish, qahramon xattiharakatlarini fahmlashda unda tasvirlangan davrdagi tarixiy muhit bilan tanish bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda 6-sinf "Adabiyot" darsliklarining 2005-yilgi nashrida G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini o'rganishdan oldin birinchi jahon urushi davridagi vaziyatning berilishiga keng o'rinn ajratilgan. Yozuvchining bolalik yillari shu davrlarga to'g'ri kelganligining izohlanishi badiiy asarga o'quvchilarning qiziqishini kuchaytirib, shum bolani "tirik inson" sifatida qabul qilishlariga yordam bergen. 5-sinf "Adabiyot" darsligida ham G'afur G'ulom ijodi o'rganilgani va darslikda shoir haqida ancha keng ma'lumotlar berilganligi uchun 6-sinf darsligida o'quvchiga eslatma tarzda murojaat qilinadi: "Taniqli o'zbek adibi G'afur G'ulomning tarjimayi holi, "Mening o'g'rigma bolam" hikoyasi bilan o'tgan o'quv yilida tanishgan edingiz. Yodingizda bo'lsa..." deya quyi sinfdagi ma'lumotlar beriladi. Darsliklar o'rtasidagi izchillik, uzviylik adabiyot haqidagi bilimlarning mustahkam bo'lishiga yordam berishi tabiiy. 5-sinfda berilgan G'afur G'ulom hayoti haqidagi maqolada birinchi jahon urushi davridagi xalq hayoti tasviri 6-sinf darsligida ham takrorlangan. Bu o'quvchi uchun yangilik emas, lekin o'z o'rnidagi takrorlash mustahkamlashga xizmat qilgan. Bunga holat yoki hodisani takror hikoya qilish bilan emas, balki quyidagi savol ko'magida erishilgan: "5-sinfda o'rganganingiz G'afur G'ulomning "Mening

o'g'rigina bolam" hikoyasi bilan "Shum bola" qissasining qanday umumiy jihatlari bor, deb o'ylaysiz?

Qissa to'g'risidagi suhbat: "Undan bir shingil bahramand bo'lganingiz..." deya boshlanib, unda o'quvchi uchun yaxshi tanish bo'lgan asar shunchaki kulgi yoki ko'ngil ochar mashg'ulot sifatida emas, balki "nursiz, qabohat va jaholatga to'la muhit" tasvirlangan. O'quvchilar o'z tengdoshi hayotining og'irligini his qilishga yo'naltirilgan. Asar so'ngidagi savol va topshiriqlar yozuvchining bibliografiyasi, qissa matni, qissa haqidagi suhbatdan ko'zlangan, o'quvchining anglashi istalgan ma'naviyruhiy jihatlarga e'tibor berishga qaratilgan. Masalan: yozuvchi haqidagi maqolada birinchi jahon urushiga urg'u berilgan holda "Shum bola" qissasida yozuvchining bolalik hayoti to'g'ridan to'g'ri va to'liq aks etgan, deb bo'ladimi?" savoli qissa bilan maqola o'rtasida izchillik o'rnatishga qaratilgan. Bevosita asar matni bilan bog'liq savollar esa Shum bolaning xarakterini ochishda o'quvchini shaxsiy fikriga tayanishga undaydi: "Shum bola ba'zan yolg'on gapiradi, yomon ko'rgan odamlaridan o'ch oladi, hatto ozgina o'g'rilikka ham qo'l uradi. Uning bu harakatlarini qanday baholaysiz? Shum bola bilan mahalladoshi Omonning bir-biridan qanday farqi bor?", "Shum bola" qissasi asosida yaratilgan badiiy film bilan qissa orasida qanday farqlarni uchratdingiz?" savollari bilan o'qituvchi sinfga yaxshi tanish bo'lgan epizodlarni eslatish yordamida darsni jonlantirishga, tortishuvlarga, bahsga olib kelishi mumkin. G'afur G'ulomning hayoti, "Shum bola" qissasini o'rganish uchun berilgan savol va topshiriqlar keng qamroviligi bilan ahamiyatlidir. Agar "Shum bola" asari haqidagi maqola so'ngidagi savol-topshiriqlar orasida qissada uchraydigan ko'plab badiiy tasvir vositalarini izohlashga oid savollar ham berilganda yozuvchi mahorati, tili o'quvchi uchun yana yangi bir saboq, kashfiyat bo'lishi mumkin edi. Darslikda qissa haqidagi suhbat so'ngida o'quvchi e'tiboriga havola etilgan o'xshatishlar darslikdagi asardan olingan parchada uchramaydi. Masalan: "Hazrat bo'lsa, o'zini umr bo'yи o'likdan boshqa narsani

yuvmagan kishiday qilib ko'rsatishga harakat qilar edi", "Xotin qozonning qopqog'ini ochdi-baliqday bo'lib, oppoq laganda moshkichiri chiqdi, o'rtaga qo'ydilar". G'afur G'ulom mahoratini ko'rsatish uchun berilgan badiiy vositalarni matndan yoki badiiy filmdan o'quvchiga tanish bo'lgan o'rnlardan berilsa yaxshiroq natijalarga erishish mumkin bo'lar edi. 2022-yilgacha amalda bo'lgan 6-sinf darsligining o'ziga xos jihatni berilgan badiiy matnni izohlashga keng o'rin ajratilganligidadir. Badiiy asar matnidan so'ng asar haqida bat afsil so'z yuritiladi. O'quvchiga asar voqealari, qahramon xatti-harakatlari, fe'l-atvori, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gap yetkaziladi. Asar haqidagi maqola kitobxon diqqatini tortish uchun o'quvchi bilan suhbat tarzida qurilib "Siz tengi bola"deya murojaat qilingan. O'quvchilarning e'tibori Toshtemirning buvasi Baxshilla maxsumdan eshitgan hikoyasining mazmun-mohiyatiga qaratilib, ular asarda tasvirlangan voqealardan yuzaki xulosa chiqarmaslikka, har bir qahramon xatti-harakatiga xolis baho berishga o'rgatib boriladi. Qissadan olingen parcha tasnifida izohlanmagan asar qahramonlariga savol va topshiriqlar vositasida o'quvchi diqqati qaratilgan: "Shang'illab butun hovlini boshiga ko'taradigan Fayzi dasturxonchi, Sizning nazaringizda, qanday odam?"

"Kechagi kun saboqlari" rukni Muhammad Aminxo'ja Muqimiylar faoliyati, "Tanobchilar" hajviyasi bilan boshlanadi. Muqimiyning hayoti va ijodi haqida 5-sinf "Adabiyot" darsligida ma'lumot berilgan bo'lib [22; 266-b.], o'sha matnnning deyarli yarmi 6-sinf darsligida so'zma-so'z takrorlangan [23; 94-b.]

"Tanobchilar" hajviyasi haqida alohida maqola berilmagani holda "Nazariy ma'lumot"da "Tanobchilar"dagi badiiy tasvir vositalariga izoh berilgan [23; 102-b.].

O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini o'rganish 5-sinf darsligi bilan izchillikda berilgan. Biografik ma'lumotlarning sinfma-sinf deyarli bir xil mazmunda takrorlanishi, savol va topshiriqlar tarkibida ham 5-sinf darsligi bilan bog'lanishlar borligini kuzatish mumkin: "Hikoyadagi

Umri xola va “Dunyoning ishlari” qissasidagi ona obrazi o’rtasida qanday o’xshashliklar bor?” [23; 154-b.].

Didaktik ashylarda o’quvchilarning avvalgi sinflarda olgan bilimlariga murojaat qilish samarali usul, lekin hasbi hollardagi takrorlar o’quvchilarni zeriktiradi. Darslikda o’quvchilarni o’ylanish, izlanishga undovchi, o’z fikrini aytishga yo’naltiruvchi va yozuvchi mahoratini tadqiq etishga qaratilgan vazifalar ham mavjud: “Hikoyaning bosh qahramoni Shoikromning ko’ngli g’ashligi, diqqinamas holatiga nima sabab ekanligini tushuntiring. Urush odamlarni o’zgartirib yuborganligini hikoya qahramonlari so’zlari orqali tushuntiring” va hk. Darslikdagi boshqa mavzularga ilova qilingan asar haqidagi maqolalar “Urushning so’nggi qurbanasi” hikoyasida berilmay, butun mas’uliyat didaktik vositalar zimmasiga qo’yilgan. Agar hikoya berilishidan oldin Umri xolaning halok bo’lishi haqida ilova berilmaganda, o’quvchida paydo bo’ladigan asar so’ngidagi hayajon ancha yuqori bo’lar edi. O’smir yoshdagi bolalarni sarguzashtlarga boy yoki o’ziga xos, boshqalarga o’xshamagan qahramonlar o’ziga tortishi, ular orasidan o’zlariga ideal izlashlari, do’st tushunchasi yuqori mavqeda turishidan kelib chiqilsa, Tog’ay Murodning hayoti va ijodi, “Yulduzlar mangu yonadi” asari 6-sinf “Adabiyot” darsligida o’z o’rnida berilgan, deyish mumkin. Tog’ay Murodning Seton-Tompson qalamiga mansub “Yovvoyi yo’rg’a” asarini tarjima qilganligiga urg’u berilishi, keyingi sinfda yozuvchini yana bir bor yodga olishga zamin tayyorlaydi. “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar”, “Otamdan qolgan dalalar” asarlarining qahramonlari, syujeti haqida berilgan ma’lumotlar o’rinsiz. Filologik yo’nalishdagi ma’lumotdan so’ng filologik bilim talab qiladigan topshiriqlar ham berilgan: “Tog’ay Murod va unga tengdosh yozuvchilar ijodiga xos bo’lgan asosiy xususiyatlarni biror asar misolida ko’rsatishga harakat qiling” [23; 296-b.].

Darslikda asar mazmuni yuzasidan “Uzluksiz adabiy ta’lim konsepsiysi”ga muvofiq keladigan, o’quvchiga ma’naviy, estetik ozuqa beradigan, mustaqil fikrlashga yo’naltiradigan didaktik topshiriqlar ham talaygina: “Bo’ri polvon nega o’g’li Tilovberdining g’alabasini tan olishni istamadi va uni qaytadan kurashga tushishga majbur qildi? Tilovberdining Abray polvondan yengilganidan keyingi holatini qanday tushunasiz? Bu – otaga hurmatsizlik belgisimidi yoki boshqa narsami?” Savollarning ba’zilari o’quvchida badiiy matnga tayanib, o’z kuzatuvlari asosida fikr bildirishni talab etadiganlari ham bor: “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi Siz hozirga qadar o’qigan boshqa yozuvchilar asarlaridan ko’proq nimasi bilan farq qiladi? Qissaning kitobingizda berilgan parchalaridan Bo’ri polvon aslida qayerda ishlashi, qishloqda nima yetishtirilishini bilsa bo’ladimi?” Bunday savollar o’quvchi taassurotlarini umumlashtiradi. “Tog’ay Murod qissasini mutolaa qilib, o’zingiz uchun o’zlashtirgan eng muhim ma’naviy boylik nima bo’ldi?” savoli mavzuni yakunlab beradi.

6-sinf “Adabiyot” darsliklarini o’quvchining psixo-fiziologik xususiyatlarini nazarda tutgan, adabiyot o’qitishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda o’rganish quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

- yozuvchi hayoti va ijodini yoritishda uning shaxs sifatidagi qiyofasini ochadigan jihatlarga e’tibor qaratilmagan;
- badiiy asar haqidagi maqolalarda murakkab jihatlarnigina yoritib, asar orqali yozuvchi aytmoqchi bo’lgan fikrni o’quvchiga tayyor holda bermay ularni savol va topshiriqlar zimmasiga yuklashga e’tibor qilinmagan;
- badiiy asarlar tahliliga ruknlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashilmagan;
- savol-topshiriqlarning murakkablik darajasini ko’tarish, avvalo, mamlakat ta’lim tizimi oldiga qo’ygan vazifalar, qolaversa, maktabda adabiyot o’qitishning maqsadiga muvofiq kelishi lozimligi nazardan chetda qolgan.

Mamlakat mustaqilligiga erishilgan ilk yillardagi “Adabiyot” darsliklarida sinflararo bog’liqlik, uzviylik kuzatilmaydi. Masalan, 1991- yilda 7-sinflar uchun chop etilgan nashrda 5-sinfda badiiy adabiyot so’z san’ati ekanligi, obrazli ifodalash nima ekanligi yoritilgan bo’lsa [33; 3-b.], 7-sinf darsligida shu fikr kengaytirilgan, chuqurroq tahlil qilingan holda yana taqdim etilgan. Qaytariqlarga qaramay 7-sinf darsligidan o’rin olgan bosh maqola matnini o’rganish uchun taqdim etilgan savol-topshiriqlarda o’quvchini maqolada ilgari surilgan qarashlarning – san’at turlarining o’xhash va farqli jihatlari va ularda hayot voqeа-hodisalarining badiiy timsollarda aks etishini anglashga yo’naltirish samarali amalga oshgan, deyish mumkin. Lekin suratlar ilova qilinmagani holda O’. Tansiqboyevning “Jonajon o’lka”, P. Benkovning “Uzum uzish” rasmlari batafsil tasvirlangan. “Adabiyot” darsliklarida tasviriy san’at namunalarining, xususan badiiy asarlar mazmuni yuzasidan yaratilgan san’at asarlarining taqdim etilishi, asar tahlili jarayonida ularga murojaat qilish adabiy ta’limning samaradorligini oshiradi. Bu haqda keyingi boblarda alohida so’z yuritiladi. Lekin bu suratlarni ko’rmagan o’quvchiga ular haqida gapirish o’ta samarasiz jarayon hisoblanadi.

7-sinf uchun yaratilgan “Adabiyot” darsliklarining 1991-yilgi nashrida savol va topshiriqlar o’quvchini matn mohiyatiga olib kiradigan tarzda emas, shunchaki bir marta xayolidan o’tkazadigan umumiyligi tarzda tuzilganligi, asar haqidagi maqolalarda ham uning g’oyasini ifodalash, bosh qahramonni tasnif qilish bilan chegaralanganligi kabi umumiyligi jihatlarga ega. Masalan: “Maymun bilan Najjor” masalini o’rganish uchun keltirilgan savol va topshiriqlar:

1. “Maymun bilan Najjor” masalining g’oyaviy mazmunini so’zlang.
2. Maymun nima uchun kulgili ahvolga tushib qoldi?
3. Masalda Kashmir viloyatining tabiat qanday tasvirlanadi?” va hk [33; 37-b.].

1993-yilgi nashrdan esa adabiyotning so'z san'ati ekanligi faqat matnda yoki maqolada emas, savol va topshiriqlarda ham o'z aksini topa boshlagan: "Badiiy adabiyotda inson hayoti va uning kechinmalarini san'atning boshqa turlariga qaraganda to'laqonli, serqirra va hayotda aks ettirilishining sababi nimada?" kabi. 1993-yildan buyon 7-sinf adabiyot darsligiga xalq og'zaki ijodidan "Ravshan" dostoni berib kelinmoqda.

1993- yilgi nashrda dostonning asosiy matni Ravshanning Shirvon yurti bozoridagi holatidan boshlab berilgan. Savol orqali esa qisqartirib berilgan o'ringa munosabat bildirish so'ralgan: "Doston voqealarining ro'y berishiga sabab bo'lagan holatlarni aniqlang. Ularga munosabatingizni bildiring" [40; 272-b.]. Keyingi nashrda voqealar Go'ro'g'lining Ravshanga Gulanorni so'rab Avaz oldiga borishi bilan boshlangan [41; 10-b.]. Dostonda voqealar rivojiga sabab bo'lgan syujetning berilishi, o'quvchida undagi keyingi voqealarning yaxshi anglanishiga, Ravshan tabiatining chuqurroq tushunilishiga imkon beradi. "Ravshan" dostoni haqida"gi maqolada dastlab umuman doston haqida, so'ngra ishqiy-sarguzasht dostonlarning mazmuni, "Ravshan" dostoni qahramonlariga ta'rif, doston vazni haqida ma'lumot beriladi. Maqolada qahramon ko'pincha afsonaviy go'zalni tushida yoxud uning suratini (uzukda, ko'zguda) ko'rib, g'oyibona oshiq bo'lib qolishi aytildi. "Baxshi" so'ziga ham izoh berilgan, 7-sinf o'quvchisiga "baxshi" so'zining qaysi so'zdan kelib chiqishi haqidagi ma'lumotga zaruriyat yo'q edi.

Maqola yuzasidan savol va topshiriqlar, badiiy obraz haqidagi nazariy ma'lumot, ma'lumot yuzasidan taqdim etilgan topshiriqlar "Ravshan" dostoni asosida olingan bilimlarni mustahkamlash vazifasini o'tagan.

7-sinf darsligining 2005- yilgi nashri "Badiiy so'z qudrati" nomli bosh maqolasida badiiy adabiyot so'z san'ati ekanligi ochilgan, faqat fikr emas uni ifodalab berish ham badiiy tarzda, shoirona ifoda etilgan: "Insondagi ismsiz tuyg'ular, nozik kechinmalar, ko'z bilan ko'rib, quloq bilan eshitib, qo'l bilan

ushlab, til bilan tatinib, burun bilan hidlab bo'lmaydigan ruhiy holat jilvalarini faqat so'z yordamida ifoda etish mumkin” [44; 3-b.]. Maqlolada badiiy adabiyot san'atning boshqa turlariga qaraganda serqirraligi va ifoda imkoniyatlarining kengligi, buning sabablari, badiiy va ilmiy adabiyot o'rtasidagi asosiy farqlar, badiiy obraz tushunchasiga ta'rif, adabiy asarning kitobxon tuyg'ulariga ta'sir etish sabablari, og'zaki va yozma adabiyotga xos belgilar, borliqning badiiy adabiyotda san'atning boshqa turlariga qaraganda to'laroq aks ettirilishi sabablari batafsil bayon qilingan. Darslikning o'ziga xos jihatni mustahkamlash uchun test topshiriqlarining berilishidir. “Ko'zim qarog'idasan, Vatan” rukni Abdulla Avloniy hayoti va ijodi bilan boshlangan. Maqlolada rukndan kelib chiqib, adibning Vatan ravnaqi uchun qilgan xizmatlari, asarlarida bu borada aks etgan fikrlariga keng o'rinni ajratilgan. “Vatanni suymak” (“Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan) parchasi, “Vatan” she'ri berilgan. O'quvchi diqqatini tortish uchun muhim sanalar, asar nomlari, muallif o'quvchi anglashini muhim sanagan o'rinnlar to'q rangda ajratib ko'rsatilgan. Maqolaning ravon, ohangdor, qofiyali tilda yozilganligi uning o'qishlilagini ta'minlagan. Masalan: “Shoir jaholatni aritadigan, jamiyatni yuksaltiradigan, millatga o'zligini tanitadigan maskan maktab ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi”.

Darslikda “Turkiy guliston yoxud axloq”dan olingan “Vatanni suymak” nomli nasriy parcha yuzasidan berilgan didaktik vositalar o'quvchini matnga, uning badiiyatiga sinchkovlik bilan qarashga yo'naltiradi: “Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtingda cho'pon bo'l” maqolida “kishi” so'zi qaysi so'zning ma'nodoshi bo'lib kelgan? Maqoldagi o'zaro qarshilantirilayotgan so'z va tushunchalarni aniqlab, jumlanı izohlang”. Shuningdek, matndan o'quvchi anglashi zarur bo'lgan, lekin biroz murakkabday ko'ringan jihatlarga savol-topshiriqlarni kengroq tarzda berish bilan erishilgan: “Qissadan hissa, ya'ni matnga xulosa sifatida berilgan she'riy misralarni qayta o'qing. Uning birinchi baytidagi “uy-u vatan” so'zlarining

mazmun miqyosi haqida o'ylab ko'ring. Shoir uy-vatani o'z avlodiga qolayotganligidan xursandmi yoki bu yerda yanada kengroq, ko'lamliroq ma'no bormi?"

Dasliklararo, fanlararo uzviylik ham savol-topshiriqlar orqali amalga oshirilgan: "Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solar, Sening darding boshqa dardni tortib olar" misralaridagi vatan tuyg'usi salmog'iga berilgan ta'rifni izohlang. Bu tuyg'u savdosi bilan o'zga yurtlarda boshqa dardlarni unutgan kimlarni bilasiz?" topshirig'i o'quvchilarni 5-sinf darsligidagi Boburni eslashga, u haqda gapirishga undaydi.

"Baytlarda Avloniy so'z takrori, takroriy so'zlar, juft so'zlardan keng foydalangan. Bunday so'z qo'llashlardan shoir ko'zlagan maqsadni izohlang" topshirig'i o'quvchilardan ona tili darslarida olgan bilimlariga tayanishni taqozo etadi. Mazkur darslikning afzalliklaridan yana biri shundaki, unda har bir matn – u adibning hasbi holi bo'ladimi, badiiy asardan namuna taqdim etiladimi yoki nazariy ma'lumot bo'ladimi, barchasi uchun didaktik ashyolar – savol-topshiriqlar alohida taqdim etilgan. Ayrim darsliklarda bir ijodkor yuzasidan (biografiyasi, asarlaridan namunalar bo'yicha) umumiyligi savol-topshiriqlar taqdim etilgan.

Darslikda Mirkarim Osim faoliyatini yoritishda ilmiy us-lubdan foydalanilgan. Hasbi hol yo'nalishidagi maqolada tarixchi adibning asarlari davriy jihatdan, mavzu nuqtayi nazaridan guruhlangan. Nisbatan kichik hajmda berilgan maqola Sobir Mirvaliyevning "O'zbek adiblari" kitobidan olingan bo'lib tarixchi adib shaxsi, hayotidan ko'ra ijodi bo'rttirib berilgan. "Zulmat ichra nur" qissasidan "Yoshlik ayomining ilk bahori", "Yazd cho'li", "Qushlar tili" nomli hikoyalar o'rinni olgan. Har bir hikoyadan keyin alohida savol va topshiriqlar berilishi o'quvchiga kichik matnni puxta o'zlashtirish imkonini bergan, yozuvchi nazarda tutgan, yosh kitobxon anglashi, "ko'rishi" lozim bo'lgan haqiqatlarga uning e'tiborini qaratgan: "Bola Alisher qobiliyatlarining yuzaga chiqishida oila muhiti qanday

ahamiyat kasb etganligini kuzating. Uning tarbiyasida otasi, onasi va tog'alarining o'rni qanday bo'lgan deb o'ylaysiz? Shahzoda Husaynga – bo'lajak hukmdorga xos belgilar aks etgan o'rnlarni topib izohlang. Mamlakatdagi siyosiy ahvolning qaltisligi, buning sababi va oqibatlari bayon etilgan, tasvirlangan o'rnlarni sinchiklab o'qing. Yozuvchi bularni qanday, kim yoki nimalar vositasida berayotganiga e'tibor qarating", kabi.

Asarlardagi o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirish, milliy g'ururini shakllantirishga xizmat qiladigan har qanday kichik lavhaga ham savol-topshiriq yordamida qayta murojaat qilinib, o'quvchini javob berish mobaynida faqat o'z fikriga suyanishga "majbur" qilingan: "Alisherning Attor haqida aytgan hikoyatiga diqqat qiling. Mo'g'ul askarining arzimagan somonga Mavlonodek bir zotni sotib yuborgani va qashshoq dehqonning bisotidagi oxirgi molini – somonini qartayib qolgan bir cholga alishganini qanday izohlaysiz?" kabi. Bu singari savollarga javob bergen o'quvchi ilmni, ilm ahlini qadrlaydigan xalqqa mansub ekanlididan, shunday fazilatga ega bo'lganligi uchun ham bu yurtdan buyuk insonlar yetishib chiqib, jahon tamadduniga katta ulush qo'shganligidan faxr hissini tuyadi.

Savol va topshiriqlardaba'zio'rnlardatakrorlanish kuzatiladi: "G'iyosiddin Bahodirning o'g'li bilan so'zlashishi yo'siniga qarab, uning qanday odam ekanini izohlang" topshirig'idan keyin yana shunday vazifa berilgan: "Alisherning otasi bilan domlasining unga munosabatlarini izohlang. Shundan kelib chiqib, ularning qanday odamlar ekaniga to'xtaling". Ikkinci topshiriq birinchi savolga nisbatan kengroq javob talab qilsa-da, bevosita birinchi javobni qisman takrorlashni taqozo etadi.

Darslikda Asqad Muxtor ijodidan beshta she'r o'rganish uchun taqdim etilgan. Keltirilgan she'rlarda tabiat tasviri yetakchilik qiladi, shoir o'z fikrlarini ochiq-oydin emas, balki manzara tasvirida berishi, bir qaraganda o'quvchi uqishi uchun og'irlik qilganday tuyuladi. Savol va topshiriqlar ustida ishslash bilan o'quvchilar tasvirlanganlarni fahmlay boradilar.

Eng muhimi, bu ishni didaktik vositalar turtkisi bilan o'zlariga bajaradilar. Masalan: "Tug'ilish" she'ridan so'ng: "Tongdan oldin yoqqan yomg'irdan so'ng osmon ochilib, yulduzlar yog'ishini qanday tushundingiz? Yomg'ir savalashi va yulduz yog'ishi orqali ifodalananayotgan tasvirga va aloqadorlikka e'tibor qarating" kabi.

Bu singari mukammal tuzilgan didaktik vositalar tabiat tasvirini o'quvchi ko'z oldida kino tasmasiday gavdalantiradi, shoirni rassom sifatida ko'rsatadi. Uning mahoratiga tan berib, o'ziga kashf qilish imkoniyatini beragani uchun, tuygan zavqi uchun ham she'rni yoqtirib qolishi mumkin. Hech qanday izohlarsiz berilgan topshiriqni bajarish bilan she'r mag'zini chaqadi: "She'r sarlavhasidan kelib chiqib, oxirgi bandda qanday voqeasiga tasvirlanganini tushuntiring. Oq choyshabda jilmayib yotgan jahonning umidi to'g'risidagi mulohazalariningizni bildiring".

Asqad Muxtorning darslikka kiritilgan navbatdagi "O'zimniki emas bu umr..." she'rini o'rganishda o'quvchilarga: "Birovning umriga birov sherik bo'lishi yoki egalik qilishi mumkinmi?" degan savol beriladi. Javob matndan kelib chiqishni talab etmaydi, o'quvchi o'zining kichik tajribasi, ko'rgan, eshitgan, o'qiganlari asosida javob beradi.

Galdagi savol esa o'quvchini matnga tayanib chuqurroq o'ylashga, atroflicha mushohada yuritishga undaydi: "Bir vaqtlar meni deb halok bo'lgan kimdir, men uning uchun ham yashab yuribman" satrlari mazmunini sharhlang. Nega shunday bo'lgan deb o'ylaysiz?" Ikki banddan iborat bu she'rdagi mazmun o'smirda ajdodlari oldidagi burchlilik mas'uliyatini uyg'otadi. Yengil-yelpi o'ylashga, yashashga haqqi yo'qligini tuydiradi. "Rozi-rizo bo'lmas egasi" misrasida gap kim haqida borayotganini aniqlang" topshirig'iga javob so'rash bilan o'quvchi psixikasiga ta'sir ko'rsatiladi. Yuqorida unda uyg'otilgan mas'uliyat hissi qat'iylashadi.

Darslikda Shukur Xolmirzayev ijodining berilishida o'z-gachalikni kuzatish mumkin. Biografik maqolada "Qora kamar"

dramasiga urg'u berilgan. Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan asarning bosh qahramoni Xurrambekka ta'rif berilib, Abdulla Nabiga aytgan so'zlaridan parchalar keltirilgan. Birinchi navbatda hikoyanavis sifatida tan olingan yozuvchi o'nlab barkamol hikoyalari sanalib, ularga alohida to'xtalinmaganligi beziz emas. Chunki o'quvchi "O'zbeklar" hikoyasini o'qish, o'rganish bilan Shukur Xolmirzayevning hikoyanavislik mahoratini bevosita kuzatadi. Drama misolida yozuvining boshqa jihatlari haqida to'laroq ma'lumot berishga, tasavvur uyg'otishga erishilgan. Hikoyani o'rganish uchun qirq uchta savol-topshiriq berilgan bo'lib, ular o'quvchini mustaqil ishlashga, jiddiy o'ylashga, asarni sinchkovlik bilan o'qishga, yozuvchini taftish qilishga yo'naltirilgan. Masalan: "Asar qahramonining: "...eng katta o'g'rilik" dan xabardor bo'lishi hikoyada ishonarli tasvirlanganmi? Shu o'rnlarni yana bir bor o'qib, javob bering" yoki "Botir cho'ponning qo'zisini aynan kim yashirgan deb o'ylaysiz? Buni qanday bilganingizni tushuntiring".

Yuqoridagi savollar o'quvchini yozuvchi uslubini tahlil qilishga, matnga jiddiy, sinchkovlik bilan yondashishiga undaydi.

"Ergashning cho'ponnikida bir osham ham osh yemaganligi sababini izohlang. Siz uning ornida nima qilgan bo'lardingiz? Cho'pon va uning ayoli ruhiyatini tushunishga urinib ko'ring. Ergashning harakatlariga ularning ko'zi bilan baho bering" singari savol-topshiriqlarga javob berishda o'quvchi erkin mushohada yuritadi, faqat o'z fikriga tayanadi.

Hikoyani o'qishda o'quvchi tushunishi qiyinroq bo'lgan har bir so'zga izoh berib o'tilgan: to'l-nam o'tkazmaydigan saqichli qalin qog'oz, oshalol – podachilar ish haqi ornida oladigan yeguliklari, oshhalol va hk.

Darslikda hikoyadan so'ng test topshiriqlari taqdim etilgan. Ular ham o'quvchini matnga yana bir marta qaytishga, uni sinchkovlik bilan o'qishga majbur qiladi. O'quvchi taqdim etilgan javob variantlarining har biri ustida bosh qotirishga majbur bo'ladi:

Paxtadan qaytayotgan Ergash avtobusda nima uchun yig'ladi?

- A. Mehmondo'st oilaga xiyonat qilganlariga.
- V. Og'ir kunlar ortda qolganiga.
- C. Qadrdon bo'lib qolgan qishloqdan ketgisi kelmayotganiga.
- D. Shunday bag'rikeng, olijanob insonlar borligidan quvonib.

Ba'zi test topshiriqlarini yechishda o'quvchida ikkilanish bo'ladi. Matnda uchramaydigan, qahramon tabiatiga mos kelmaydigan javoblar berilishini ham kuzatish mumkin:

Ergash nima uchun Botir cho'ponning uyida hech narsa yemadi?

- A. Narsalar ozligidan xafa bo'ldi.
- B. Uy egasi kambag'alligini ko'rib, ularni teng ko'rmadi.
- C. Ishtahasi yo'q edi.
- D. Ularni mensimadi. Ovqatlar sifatsiz edi.

Matnda Botir cho'ponning uyida Ergashning hech narsa yemasligi "Lekin bir burda non yeyishga istihola qilardim. Bu oila – kambag'al oila edi" deya izohlangan. Javoblarning hech biri Ergash fe'l-atvoriga, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gapiga bevosita to'g'ri kelmaydi. O'quvchi to'g'ri javobni belgilashida ulardagi "xafa bo'ldi", "teng ko'rmadi" va "ovqatlari sifatsiz edi" jumlalari xalaqit beradi. Darslikning qayta nashrida shu kabi anglashilmovchiliklar bartaraf etilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Test topshiriqlaridagi soddalik S. Zunnunova ijodini o'rganishda kuzatiladi. "Qizimga" she'rini o'rganish uchun berilgan testda "Dudog'ing guldan xushbo'y, Yuzlaring undan xushro'y" tasviri kimga qaratilgan?

- A. O'quvchiga.
- B. Qiziga.
- C. Sevgilisiga.
- D. Hamma javoblar to'g'ri.

She'rning nomidan ko'rinish turgan narsani so'rash yuqori saviyada tuzilgan savol va topiriqlarni bajargan o'quvchiga malol keladi. Navbatdagi test javob variantlari undanda jo'n tuzilgan:

“Boshi toshdan bo’lsin jigarlaringizning, Ammo tosh bo’lmasin ko’ksida yurak” satrlaridan kelib chiqadigan ma’noni ayting?

A. Bunday odamga gap ta’sir qilmaydi. Tosh salomatlikka zarar yetkazadi.

B. Boshi toshdan bo’lgan odam gapga tushunmaydi.

C. Boshi toshday qattiq bo’lsin-u, ammo yuragi toshday bo’lmasin, odamlarni tushunadigan, ularni ayaydigan bo’lsin.

D. Yurakdagagi tosh kasallik keltiradi.

Avvalo, berilgan savol ham, taqdim etilgan javob variantlari ham puxta o’ylanmagan. “Boshi toshdan bo’lgan odam gapga tushunmaydi”, “Yurakdagagi tosh kasallik keltiradi” kabi variantlar ichidan to’g’ri javobni topish uchun o’quvchi she’r matniga qayta murojaat qilmaydi, o’ylanmaydi, izlanmaydi, shunchaki belgilab qo’yadi.

“O’tmishdan sadolar” rukni “Ravshan” dostoni bilan boshlanadi. Dostonni o’rganish uchun o’ttiz oltita savol va topshiriq berilgan. Didaktik vositalarda dostonga badiiyat mezonlari nuqtayi nazaridan yondashilgan bo’lib, ularga o’zbeklar turmush tarzidagi o’ziga xosliklardan kelib chiqib javob beriladi. Oddiy bo’lib ko’ringan o’rinlarga o’quvchi diqqati qaratilib, dostonga, millatga hurmat uyg’otiladi: “Avazning rad javobiga Og’a Yunus parining bir muncha bosiqlik bilan munosabatda bo’lganligi sababini izohlang. Dostonda Zulkumor portreti tasvirlangan o’rinni toping. O’zbek xalqining go’zal qiz to’g’risidagi tasavvuriga o’z munosabatingizni bildiring. Dostondagi “Kaptarday bo’lib turgan qizlar” tasvirini sharhlang” kabi.

Doston matni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlarda ba’zi qaytariqlar ham ko’zga tashlanadi: “Ravshanni Shirvonga otlanrigan narsa faqat Zulkumorga bo’lgan muhabbatmi yoki boshqa chuqurroq sabab ham bormi? Bu haqdagi xulosangizni matnga tayanib bildiring”. “Qahramonning “Yor deymanu nomus orga boraman”, - degan iqrorini izohlang” topshiriqlariga javob

bergan o'quvchi xuddi shunday javobni keyingi savollardan biriga ham qaytarib berishi mumkin: "Suratini uzuk ko'zida bиргина мarta ko'рган qizni topish uchun yurti, ota-onasini tashlab yo'lga tushgan Ravshan tabiatи haqida qanday fikrdasiz? Fikringizni doston matniga tayanib asoslang. Yoki bu qarorning boshqa sababi bor edimi?"

Badiiy obraz va mubolag'ali tasvir haqidagi ma'lumotdan so'ng mustahkamlash uchun test topshiriqlarining berilganligi ham nazariy ma'lumotlarning puxta o'zlashtirilishiga yordam beradi.

7-sinf uchun yaratilgan amaldagi "Adabiyot" darsligida mavzular murakkablashib borilishi inobatga olinib, har bir tushunchaga, so'zga izoh berib borilgan.

Masalan, Jahon otin Uvaysiy faoliyatini berishda Uvays Qaraniy haqida ma'lumot berilib, uning Muhammad alayhissalomga, hali payg'ambarlik berilmay turib, o'zi hali ko'rмаган, daragini faqat ilohiy kitoblardan eshitgan payg'ambarga g'oyibona muhabbat qo'yganligi, Muhammad alayhissalom ham ko'rmay turib Uvays Qaroniy hazratlariga alohida mehr qo'yganlari, shundan Islom olamida payg'ambarimizning g'oyibona nazariga sazovor bo'lganligi, shoira Uvaysiy ham o'z taxallusini qaysidir bir buyuk zotga bo'lgan g'oyibona uvayslik munosabati tufayli tanlagan bo'lishi mumkinligi aytildi.

Savol va topshiriqlar g'azallarning har bir baytini chuqur va atroficha tahlil qilishga yo'naltirilgan. Nazariy bilimlarni takrorlashni g'azal baytlariga murojaat qilib, bir qarashda anglab bo'lmaydigan tagma'nolarga shama qilinib, ularni izlashga undaydigan, shoira mahoratini ochadigan didaktik vositalar Uvaysiy ijodini yaxshi o'zlashtirilishiga imkon yaratgan, deyish mumkin. Didaktik vositalar ichida hali u haqida ma'lumot berilmagan nazariy ma'lumotlarni so'rash ko'zga tashlanadi: "Qanday she'riy san'atda o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli so'zlar yordamida ta'sirchanlikka erishilishi mumkinligini aytинг".

Yoki har bir tushunchaga izoh berilgan holda tasavvuf atamalarini hech tayyorgarligi bo'lмаган о'quvchidan со'rалган о'rнлар ham mavjud: "G'азалдаги ошиқнинг зоҳид билан баҳса киришишинг бойи нима? Ошиқлик ва зоҳидлик о'ртасидага фарқдан келиб чиқиб баҳо беринг". 7-сinf о'quvchisi адабиёти дарсларida hали зоҳидлик тушунчасига дуч келмaganлиги учун bu savolga javob bera olmaydi. 7-sinf "Adabiyot" darsligi Ernest Seton-Tompsonning hayoti, ijodi va "Yovvoyi yo'rg'a" asarini о'рганиш билан yakunlanadi. Bu asar aynan o'z о'rnida taqdim etilgan, deyish mumkin. Chunki адабиёти haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lган о'quvchi ma'lum tayyorgarlikni talab qiladigan yozuvchi haqidagi maqola va taniqli adib tomonidan tarjima qilingan asar mutolaasidan ko'proq zavq oladi. Xalqona ruhda ijod qilgan Tog'ay Murodning Seton-Tompson haqidagi maqolasi о'зига xoslik, individual, ayricha xususiyatlarga ega qahramonlarga ishtiyoqi baland o'smirda qiziqish uyg'otishi tabiiy. Maqolada asar muallifining maktab davrida "Kanada qushlari" kitobini qanday sotib olganligi, mashhurlik davrida adib Berrousni lol qoldirishi kabi voqealarning berilishi asarga eng yaxshi "reklama" vazifasini o'tagan. Yozuvchining hayoti va ijodi о'зига xos original tarzda berilganki, bu yozuvchini о'quvchi tasavvuridagi о'зига xos qiyofasini, obrazini hosil qila olgan. Asarni о'рганиш учун berilgan savol va topshiriqlar erkin ijodiy yondashuvni talabi qilib tuzilgan. Ulardan ба'зilariga javob berish bilan o'smir yozuvchi mahoratini о'zicha tadqiq etadi: "Ayg'irga qo'yilgan mukofotni olish kerakmikan? Jo ikkilanib qoldi. Qo'yilgan pul chakana emas. Lekin ayg'irning turgan turmushi xazina, u asl zotli surriyot yaratish mumkin" jumlalari Joga xos yana qaysi jihatlarni namoyon etmoqda?" Ba'zi savol-topshiriqlarga o'smir faqat o'z taassurotlaridan keliб чиқиб javob beradi: "Otlarni ovlash tadbiri va jarayoniga diqqat qarating. Bunda sizning e'tiboringizni nima ko'proq jalb qildi?"

"Agar hikoyani boshqacha nomlash kerak bo'lsa, siz unga qanday sarlavha qo'yan bo'lardingiz?" kabi didaktik vositalar

o'quvchida o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantirib, fikrini erkin ifodalashga, qahramonlarga, voqea-hodisalarga shaxsiy munosabatini matnga tayangan holda ifodalashga yordam beradi. Zero ularga berilgan har qanday javob noto'g'ri bo'lmasligi bilan bir qatorda zerikarli, zo'rma-zo'raki ham bo'lmaydi. O'z javobiga tengdoshlarining diqqatini sezgan o'smir tengdoshlari ichida tan olinish, atrofdagilarning e'tiborini tortish, o'z mavqeyini oshirishga intilishi kabi psixologik ehtiyojini qondiradi. Bu o'z-o'zidan darsga qiziqishni ham keltirib chiqaradi. "Adabiyot" darsliklarida taqdim etilgan materiallar yuzasidan berilgan didaktik materiallarning o'rganilayotgan badiiy asar qahramonlari holatini his etish va fikrini hissiyotlaridan kelib chiqqan holda ifodalashga yo'naltirilgan tarzda tuzilganligi o'smirlik davriga xos bo'lgan eng murakkab jihat - emotSIONAL BEQARORLIKdan adabiy ta'limda uning o'zi uchun unumli foydalanish imkonini beradi.

O'QUV MATERIALLARIGA QO'YILADIGAN PEDAGOGIK TALABLAR VA ULARNING JAHON "O'QISHLILIK INDEKSI" MEZONLARIGA MOSLIGI

Adabiyot o'quv fani sifatida o'quvchida hissiy, intellektual, ijodiy, ruhiy-ma'naviy va axloqiy sifatlarning shakllanishi hamda rivojlanib borishiga, dunyoqarashining kengayishiga ko'maklashadi.

Adabiyot darslaridagi o'quv materiallarini o'rganish jarayonida tarbiyalanuvchida ma'naviy-estetik did shakllana boradi. O'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalar hosil qilish hamda tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon uchun tanlangan, yozma yoki og'zaki faoliyatga undaydigan har qanday didaktik vosita o'quv materiali sifatida ko'rildi. O'quv materiali ovozli, sxemali, shartli belgilar, suratlar va matnlardan iborat bo'lib qolmay, o'qituvchining mimikasi, gap ohangini ham qamrab oladi. O'quvchi bevosita dars jarayonida, darsdan tashqaridagi mustaqil faoliyatida ham o'quv materialiga tayanadi. O'quv materiali badiiy matn ko'rinishida ham, bitta harf yoki so'z shaklida ham (masalan, "Alifbe" darsligi materiallari) bo'lishi mumkin. "Pedagogik atamalar lug'ati"da o'quv materialiga quyidagicha ta'rif berilgan: "O'quv materiali – didaktik materialning moddiy yoxud moddiylashgan modellarida aks etadi hamda o'quv faoliyatida ishlatish uchun mo'ljallanadi" [53; 159-b.].

Ta'lim oluvchilarning o'quv-biluv va o'quv-amaliy faoliyatlarini jadallashtirishda ko'mak beruvchi ta'lim metodlarini tamlash nafaqat ta'lim maqsadiga, balki o'quv materiali mazmuniga ham bog'liqidir. Hamma gap o'quv materialidan qanday foydalanishda. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha: "O'quv materiali og'zaki bayon etilganda talabalar ma'lumotning 5–10%ini eslab qoladilar. O'quv adabiyotlaridan mustaqil o'qish ma'lumotning 10–15%ini, ko'rgazmali materiallar esa ma'lumotlarning 20–25%ini o'zlashtirishga imkon beradi.


Amaliy metodlar eng samarali hisoblanib, talabalar ongida ma'lumotning 75%i saqlanib qoladi. Lekin o'quv materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o'rganish, amaliy mashg'ulotlarni mustaqil bajarish undan ham samaraliroq hisoblanadi, ya'ni bilimlarning 90%i o'zlashtiriladi va bir qator ko'nikmalar shakllanadi" [91; 39–40-b.].

Adabiy ta'lif samaradorligiga erishishda: **o'quv materiali + pedagogik mahorat + ta'lif metodlari + o'quvchi yoshi bilan bog'liq psixologik xususiyatlar + mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyati + ta'lif muhiti + vaqt chegarasi** yaxlit bir butunlikda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu talablarning ba'zilari asosiy, yetakchi omil sanalib, ular bilan mashg'ulot jarayonida ma'lum natijalarga erishish kafolatlansa, ayrimlari shu natjalarning sifati va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'quv materiallarini takomillashtirish o'zaro bog'langan va bir-biriga ta'sir ko'rsatib turadigan pedagogik hodisa bo'lib, tizimli yondashuvni talab qiladi. Pedagogika ensiklopediyasida tizimli yondashuv pedagogik obektyaxlitligini ochib ko'rsatishga yo'naltiruvchi, uning ichki aloqa va munosabatlarini belgilovchi jarayon sifatida ta'riflanadi.

Badiiy asarni o'rganishda yozuvchining hayoti va ijodi, savol va topshiriqlar, materialning janr xususiyatlari, ya'ni adabiyot bo'yicha nazariy ma'lumotlar, asar haqidagi maqola uyg'un holda takomillashtirilsagina uning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi oson va yengil bo'ladi. Badiiy asarni o'zlashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi bu kabi omillardan o'rinci va samarali foydalanish o'quvchilarda badiiy did va tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi (1-rasmga qarang).

O'quv materialining pedagogik maqsadga muvofiq bo'lmasligi mohir o'qituvchi mehnatini ham yo'qqa chiqarishi mumkin. Jiddiy yondashilib, ishlab chiqilmagan o'quv materiali Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, o'qituvchi va o'quvchi kuchi-yu mehnatini "o'tin yorishga sarflagan"day taassurot qoldiradi. Uzluksiz ta'lifning har bir bosqichi, har bir mashg'ulot uchun

taqdim etiladigan o'quv materialining sifatli bo'lishi ta'limgartarbiya samaradorligining garovidir. Chunki, "o'quv muammosi yoki o'quv topshirig'ida aks etgan o'quv muammosi oldin o'r ganilgan bilim, faoliyat usuli, orttirilgan tajriba vositasida hal etilsa, unda o'quvchi o'z tezaurusus (o'quvchida u yoki bu o'quv predmeti bo'yicha to'plangan bilim, ko'nikma, malaka va hayotiy tajribalar majmui)idan kerakli bilim, faoliyat usuli vositasini izlaydi. Zaruriyat tug'ilganda kerakli bilim, faoliyat usuli, orttirilgan tajribani yangi o'quv vaziyatiga tatbiq etish o'ziga xos jarayon bo'lib, u bolalarda tanlay olish layoqatini rivojlantiradi" [92].



1-rasm. Badiiy asarni o'zlashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar


5-7-sinflar adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirish tizimi o'z ichiga o'quv materiallari shakllari, o'quv materialini taqdim etish usullari hamda o'quv materiallarini o'rgatish vositalari (darslik, lug'atlar, metodik qo'llanmalar, texnika vositalari)ni oladi. Adabiy ta'limgartarbiya samaradorligining garovidir.

foydalilaniladigan o'quv materiallari shakllari – darslikda taqdim etilgan badiiy asar namunasi, asar haqidagi maqola, yozuvchi biografiyasi, matnlar mazmuni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar, nazariy ma'lumotlar va ayrim shevalarda qo'llanilaniladigan, tarixiy yoki eskirgan so'zlar izohini aks ettiruvchi lug'atlardan iborat bo'ladi. Ilg'or o'qituvchilar tomonidan adabiy asarlarning audio shaklidan keng foydalilanadi. Ular o'quv jarayoni rang-barangligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Afsuski, adabiyot darslarida o'rganilaniladigan badiiy asar namunalariga oid illustratsiyalar yetarlicha ishlab chiqilmagan.

O'quv dasturida belgilangan badiiy asar darslikda aks etadi. Darslik muallifi va o'qituvchi tavsiya etilgan asarni o'quvchining o'zlashtirishiga qulay tarzda taqdim etishi lozim. Shunga ko'ra, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan 5–7-sinflar adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirish tizimi quyidagicha ifodalanadi (2-rasmga qarang).

5–7-sinflar adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirish tizimi modelida aks etgan o'quv materiallarining turlari badiiy matnni o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishida muhim o'rinn tutadi. Shuningdek, o'qituvchining professional mahoratiga, tajribasiga bog'liq bo'lgan mimikasi, gap ohangi va mashg'ulot jarayonida foydalilaniladigan turli tarqatmalar ham badiiy asarni o'zlashtirishga ta'sir ko'rsata oladi. Ular individual xarakterga egaligi uchun umumiy tavsiya etiladigan tizimda aks ettirilmadi.

Davlat ta'lim sandartida ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarida (A2) adabiyot fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirilishi bilan birga adabiyot fanida adabiy-nutqiy kompetensiyasiga binoan nasriy, she'riy, dramatik asar namunalarini ifodali o'qishi va mazmun-mohiyatini tushuna olishi, maktab kutubxonasidan mustaqil foydalaniib, turli janrdagi adabiyotlarni tanlab mutolaa qilishi, undagi voqeа-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildira olishi



2-rasm. 5-7-sinflar adabiyot darslarida o'zlashtiriladigan o'quv materiallarini takomillashtirish tizimi.

lozim. Shuningdek, badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi shakllangan bo'lishi kerak. Unga ko'ra, badiiy tasvir vositalarini farqlay olishi, ularni berilgan matndan topib, tahlilda foydalana olishi, asarda tasvirlangan insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yurita olishi, badiiy asarda aks etgan voqelikni estetik tahlil qila olishi zarur.

O'quvchida tayanch va xususiy kompetensiyasini shakllantirish bir necha omillarga bog'liq. O'quv materialining o'qishlilik darajasi ham shunday omillar sirasiga kiradi.

Chunki, avvalo, o'quvchi qo'lidagi materialni tushunishi, anglay olishi lozim. Materialni o'zlashtirish o'quvchining salohiyati, yoshi, matnning qiziqarliligi, o'quvchining mahorati kabi bir nechta faktorlarga bog'liq. O'quv materialining o'qishliligi ham ahamiyati jihatidan eng muhimlari sirasiga kiradi. O'qishlilik tufayli matn yengil o'zlashtiriladi, o'quvchida zo'riqish kuzatilmaydi. Darslik va qo'llanmalar, xususan, mакtab o'quvchilar uchun yaratigan manbalar bayon uslubining soddaligi, ravonligi, akademizmdan xoliligi ularga qo'yilgan asosiy talablar hisoblanadi.

"Bayon uslubining soddaligi" tushunchasi mavhum ma'no sifatida ko'rildi. Chunki, bir kishiga sodda bo'lgan uslub boshqa bir kishiga murakkab bo'lishi mumkin. Har kim soddalik chegarasini o'z saviyasidan kelib chiqib belgilaydi. Demak, mavhum tushunchalarни aniqlashtirish, me'yorlashtirish uchun o'lchov zarur bo'ladi. Bu o'rinda darsliklarga qo'yiladigan sanitar-gigiyenik talablar nazarda tutilayotgani yo'q. Balki o'qiyotgan o'quvchi tomonidan matnni anglashilishi, uqushi, ya'ni o'qishliligi nazarda tutilmoqda. O'quv materialining matnlari mazmuni yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlar, asar haqidagi maqola, nazariy ma'lumotlarni takomillashtirishga e'tibor qaratish lozim. Asrlar davomida yetib kelgan badiiy asarlarni o'quvchi tushunishida bunday o'quv materiallarining ahamiyati katta. Badiiy adabiyotning qaysi namunalarini Flesh indeksiga muvofiq bersa bo'lishi masalasi katta ko'lamli tadqiqotlar mavzusi.

Matnning “o’qishlilik” darajasini standartlashtirish masalasi XX asr 20–30-yillaridan boshlangan. Keyinchalik, 80 yillarda Xalqaro Kitobxonlar Assotsiatsiyasi va AQSH ingliz tili o’qituvchilarining milliy kengashi o’z a’zolariga o’quv materiallarining o’qishlilik darajasiga jiddiy qarashlarini so’radi.

Bugungi kunda jahon amaliyotida o’quv materialining o’qishlilik indeks talabiga mos kelishiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. AQSHning ko’pgina shtatlarida matnning o’qishlilik indeksiga muvofiq kelishi qonun bilan ham belgilab qo’yilgan. Rossiyada ham bu borada qator tadqiqotlar olib borilgan. Qozoqistonda ham darsliklarga qo’yiladigan talablarda flesh indeksiga mosligi kiritilgan. O’zbekistonda hali bu borada izlanishlar kuzatilgani yo’q.

Jahon tajribasida o’quv materialini obyektiv baholashga ehtiyoj sabab qilingan tadqiqotlar natijasidan adabiyot ta’limida qo’llash zarurligi o’quv materiallari tahlilida yaqqol namoyon bo’ldi. 5-sinf “Adabiyot” darsligida “Susanbil” ertagi haqidagi maqolada tahrirtalab o’rinlar ko’pki, o’quvchini chalg’itib, badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi shakllanishiga to’siq bo’ladi. Masalan: “Ushbu ertak mazmunidan talay kerakli xulosalar chiqardik, ertaklar shunchaki ko’ngil ochish, ovunish uchun aytilmasligi va to’qilmasligiga ishonch hosil qildik, ularning mavzu jihatdan hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar, hayotiy-maishiy ertaklar, hajviy ertaklar kabi turlari borligini ham bilib oldik” [24; 56-b.].

Bu o’rinda “bilib oldik” jumlasini ishlatish noo’rin, chunki ertak turlari haqidagi ma’lumot darslikning 71-betida keltirilgan. “Asar boshlanmasidagi an’anaviy kirish so’z (“Bor ekan-u yo’q ekan, bo’ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg’a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, o’rdak surnaychi ekan, g’oz karnaychi ekan”)ni olamizmi, tabiat tasviriga bag’ishlangan o’rirlarni olamizmi yoki personajlar – eshak, ho’kiz, xo’roz, kalamushlar, bo’rilarning suhabatidagi dialoglarni olamizmi, barchasida jozibali tasvir, xalqona mutoyibaga boy

nutq kishi diqqatini tortadi, o'quvchi o'zini voqealar ichida yurgandek his etadi" kabi gap o'quvchi uchun faqat ortiqchalik qilib, chalg'itadi [24; 57-b.]. Xuddi shu maqolada agar savol-topshiriq ko'rinishida berilsa o'quvchida izlanishga, o'ylashga imkon beradigan o'rinalar muallif tomonidan izohlab berilgan. Mavzusining muhimligi bilan boshqa ertaklardan ajralib turadigan jihatlari sanalib, o'quvchiga tayyor qilib berilganligi 5-sinf o'quvchisining psixologik talabiga ham (hamkorlikda qilinadigan faoliyatga alohida moyillik ko'rsatishi, mustaqil aqliy zo'riqishga undaydigan topshiriqlarga boy darslar ko'proq o'ziga tortishi kabi), DTS talablariga ham ziddir. Amaliyotda o'quvchilarga savol ko'rinishda taqdim etilgan sharhlar ularda darsga qiziqishni, o'quv materialiga sinchkovlik bilan qarashning o'sganligi kuzatildi.

6-sinf darsligida Turob To'la ijodini berishda o'quvchi uchun murakkablik qiladigan, yodida qolmaydigan, adabiy ta'lif maqsadiga xizmat qilmaydigan ma'lumotlar o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yozuvchining qayerlarda ishlagani to'liq berilganki, o'quvchi uchun tashkilotlarning nomini eslab qolish, bilish ortiqchalik qiladi: "Jumladan, yoshlar gazetasida adabiy xodim, O'zbekiston Davlat nashriyoti(O'zdavnashr)da muharrir, "O'zbekfilm" kinostudiyasida ssenariy bo'lim mudiri, respublika Kinochilar uyushmasida kotib, Madaniyat vazirligi san'at ishlari boshqarmasi boshlig'i, hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi Adabiyotni targ'ib etish markazi rahbari singari vazifalarni bajardi" [27; 40-b.].

6- sinfda A. Qahhorning "Bemor" hikoyasi berilgan. Bir varaq hikoya uchun uch varaq u haqidagi maqola keltirilgan [27; 113-b.]. Maqola qanchalik baland saviyada yozilgan bo'lmasin, bolalardagi mustaqil ishlarni va amaliy topshiriqlarni bajarishga moyillikning kuchli bo'lishi, bu davrda o'quvchilarni avvalgi bosqichlarda uchramagan topshiriqlar ruhlantirishi, ular bunday

topshiriqlarni bajarishga jon-dili bilan kirishi bilan bog'liq ruhiy holat hisobga olinmaganligi, ortiqcha so'zamollikka yo'l qo'yilgani uchun adabiy ta'limga maqsadiga xizmat qila olmaydi.

Faqat uzun gaplar, keragidan ortiq ma'lumotlar emas, filolog nazari bilan yozilgan, adabiyot haqida maxsus bilim talab etadigan murakkab jumlalar o'quvchida faqat mavhum tasavvur hosil qiladi. Masalan: "Hikoyalarida yozuvchining sinchkov nigohi, tasvirlanayotgan narsa-yu hodisalarni miridan sirigacha bilishi, kerakli bayon maromi va ifoda ohangini yanglishmay topa olishi sezilib turadi" kabi [47; 81-b.]. Bu kabi o'quv materiallarining tahlili adabiyot ta'limi uchun o'qishlilik darajasini joriy etish ehtiyojini ko'rsatadi. Flesh indeksi, ya'ni o'qishlilik indeksi nima?

O'qishlilik indeksi – matnni anglashning murakkablik darajasini aniqlash o'lchovi. O'qishlilik indeksi bir necha parametrlar asosiga ko'ra hisoblanadi, masalan: poligrafiya (nashr ishlari) jihatidan (harflarning hajmi o'lchovi, rangning och yo to'qligi, yorqinlik darjasasi, sahifaning o'lchovi kabilar), semantik va stilistik jihatni (matndagi sodda va qo'shma gaplar miqdori, gapdagi so'zlar soni, so'zlardagi bo'g'inlar soni, tez-tez yoki kam uchraydigan so'zlarning solishtirma soni, neologizm va jargonlar miqdori) kabilar.

Flesh indeksi (muallifi amerikalik Rudolf Flesh) ingliz tilidagi o'quv materiallarining o'quvchi tomonidan o'zlashtiriluvchanlik darajasini aniqlash mezonini bo'lib, Amerikada keng tarqalgan o'lchov birligidir. Flesh faoliyati davomida matnlarning balandparvoz, jimjimador bo'lishiga qarshi bo'lgan. Fikrni aniq, tushunarli, sodda ko'rinishda berish imkonini bo'lganda, sun'iy murakkablashtirishdan qochish lozimligini uqtirgan [109]. Yana bir tadqiqotchi Roberto Ganning ham matnnning o'qishlilik darjasini bilan shug'ullangan. Flesh indeksi ommalashganligiga ko'ra bu kabi boshqa tadqiqotlardan ustunlik qiladi. Rossiyada I. V. Oborneva bu mavzuda ilmiy ish himoya qilib, matnnning

o'qishlilik darajasini aniqlashning avtomatik usulini ishlab chiqqan [80].

Flesh matnning murakkablik darajasini quyidagi formula orqali aniqlaydi:

$$FRE = 206.835 - 1.015 \left(\frac{\text{so'zlar soni}}{\text{gap soni}} \right) - 84.6 \left(\frac{\text{bo'g'in soni}}{\text{so'zlar soni}} \right)$$

Ma'lumki, ingliz tilining ma'lumotlilik darajasi boshqa tillarga nisbatan yuqori. Masalan, rus tilida bitilgan matn ingliz tilida yozilgan matnga nisbatan jumlalarning uzunligi, so'zlarning ko'p bo'g'inligi va belgilarning ko'pligi bilan farqlanadi. Ya'ni ingliz tilidagi bir jumla rus tiliga tarjima qilinganda u taxminan 20 foizga kengayadi yoki aksincha, rus tilidagi bir jumla ingliz tiliga tarjima qilinganda uning hajmi 20%ga qisqaradi. Shundan kelib chiqib Flesh indeksi formulasi rustilidagi matnga moslashtirilgan shaklda belgilangan. Rus tilida o'rtacha gap uzunligi ingliz tilidan kaltaroq (artikl va yordamchi fe'llar kamroq ishlatalishi hisobiga), o'rtacha so'z uzunligi esa uzunroq bo'lganligi sababli, rus tilidagi matnning maxsus o'lchov versiyasini ishlab chiqish uchun ingliz tilidagi matnlar va ularning tarjimalari uchun olingan indekslar taqqoslanib, koeffitsentni aniqlashga urinib ko'rilgan.

Flesh indeksining rus tiliga moslashtirilgan holati quyidagi shaklda belgilangan:

$$FRE = 206.835 - 1.3 \left(\frac{\text{so'zlar soni}}{\text{gap soni}} \right) - 60.1 \left(\frac{\text{bo'g'in soni}}{\text{so'zlar soni}} \right)$$

Flesh indeksini o'zbek tilidagi matnlar uchun tatbiq etishda uni ingliz tili uchun ishlab chiqilganligini inobatga olish lozim. Har bir tilning o'ziga xos grammatik qurilishi bo'lib, ingliz tili uchun yaratilgan oson o'qish indeksini o'zbek tiliga tadbiq qilishda tillarning tuzilishini solishtirib ko'rish to'g'ri bo'ladi. Ingliz tili - analitik til. Analitik tillarning o'ziga xos xususiyati

shundaki, ularda grammatik ma’no so’zlarning o’rni va yordamchi so’zlar asosida tushuniladi. O’zbek tili esa sintetik til hisoblanadi. Unda grammatik ma’no qo’shimchalar yordamida ifodalanadi. Bir xil matnlarning ingliz tili va o’zbek tilidagi tarjimalari solishtirilganda, ma’lum axborotni berishda o’zbek tilidagi matn ingliz tiliga qaraganda yoyiqroq ekanligi kuzatildi. O’zbek tilida o’rtacha gap uzunligi ingliz tilidan kaltaroq, o’rtacha so’z uzunligi esa uzunroq. Uchta bir xil mazmundagi, lekin turli: o’zbek, rus, ingliz tilidagi matnlarni solishtirilganda o’zbek tilida gap uzunligi ham rus tili, ingliz tiliga qaraganda qaraganda qisqa, so’z uzunligi esa uzun ekanligi kuzatildi. Shu sabab, Flesh indeksini o’zbek tilidagi matnlarga qo’llashda oradagi farqni taxminan 30% deb olish mumkin.

O’zbek tilidagi matnning maxsus o’lchov versiyasini ishlab chiqish uchun ingliz, rus tilidagi matnlar va ularning tarjimalari uchun olingan indekslar taqqoslanib, koeffitsentni aniqlashga urinib ko’rildi.

Flesh indeksining dastlabki o’zbek tiliga moslashtirilgan holati quyidagi shaklda:

$$FRE = 206.835 - 0.7105 \left(\frac{\text{so' zlar soni}}{\text{gap soni}} \right) - 59.02 \left(\frac{\text{bo' g'in soni}}{\text{so' zlar soni}} \right)$$

tavsiya qilish mumkin.

O’qishlilik indeksining ikki shakli mavjud bo’lib, biri Flesh indeksi, ikkinchisi Flesh-Kinkeyd indeksi deb nomланади. Bu indekslarning birinchisi – Flesh indeksi matnning o’qishliligi darajasini ko’rsatsa, ikkinchisi – Flesh-Kinkeyd indeksidan muktab o’quvchisining imtihonda beriladigan matnlarni o’zlashtirishdagilibilik darajasini aniqlash uchun foydalaniлади. Muktab testi uchun Flesh-Kinkeyd formulasi:

$$0,39 \times ASL + 11,8 \times ASW - 15,59.$$

Fleshning matnlar o’qishlilik darajasini aniqlovchi formulasi “ $FRE=206.835(1.015\times ASL)-(84.6\times ASW)$ ”даги FRES

(ingliz tilida – Flesch Reading Ease Scale) – Flesh indeksining daraja ko'rsatkichi (shkalasi); ASL(ingdiz tilida – average sentence length)-so'zlarningajratib olirgan jumladagi o'rtacha soni (gapning uzunligi)ni; ASW (ingliz tilida – average number of syllables per word) – bo'g'inlarning so'zdagi o'rtacha sonini ifodalaydi. Mazkur formulaga solish uchun ma'lum mavzudagi matndan 100 so'zdan iborat parcha ajratib olinadi. Avval shu 100 so'z nechta gapda ishtirok etganligi aniqlanadi. So'ngra parchadagi bo'g'inlar sanalib 100ga bo'linadi. Shunda parchadagi so'zlarning o'rtacha uzunligi kelib chiqadi. Olingan natija formulaga qo'yiladi va FRES daraja ko'rsatkichi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar kelib chiqadi:

100 – juda oson o'qiladi. Gapning o'rtacha uzunligi 12 va undan kamroq so'zlardan iborat. Ikkitadan ortiq bo'g'inli so'zlar yo'q;

65 – oson o'qiladi. Gapning o'rtacha uzunligi 15dan 20gacha so'zni tashkil etadi. So'zlar o'rtacha 2 bo'g'indan iborat;

30 – o'qish biroz murakkab. Gaplarda 25tagacha so'zlar uchraydi. Odatda 2 bo'g'inli so'zlardan iborat bo'ladi;

0 – o'qish juda murakkab. O'rtacha bitta gapda 37 so'z mavjud. So'zlar o'rtacha 2tadan ko'p bo'g'inlardan iborat.

Ingliz tili uchun 90–100 qiymati boshlang'ich mактаб о'quvchilariga mo'ljallangan; 60–70 qiymati maktab bitiruvchilari o'qishi mumkin bo'lgan matn; 0–30 qiymati esa oliy ma'lumotli odamlar uchun mo'ljallangan.

Matnlarning oson o'qilishi indeksini quyidagi jadvalda yaxlit holda ko'rish mumkin (1-jadvalga qarang).

So'zni haddan ziyod, o'rинli-o'rinsiz ishlataverish, ortiqcha tafsilotlarga berilish o'quvchini chalg'itadi, matnda ilgari surilgan asosiy fikrni anglab olishga xalaqit beradi. Matnlarning oson o'qilishi faqat so'zlarning uzun yoki qisqaligi, gapning sintaktik qurilishi bilangina emas, mavhumlik darajasi, anglashning yengilligi bilan ham o'lchanadi. Shuningdek, lingvistik jihatdan matnning oson o'qilishini ta'minlashda matnlarni jo'nlashtirib

yubormasdan, o'quvchilarning so'z boyligini oshirishni ham ko'zda tutish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin matnning murakkabligi har qanday yaxshi niyatda berilayotgan ma'lumotni o'quvchi tomonidan qabul qilinmasligiga, anglanmasligiga olib kelishi ham mumkin. Bu o'quv mashg'ulotidan kutilgan samaradorlikka xizmat qilmaydi.

1-jadval

Matnlarning o'qishlilik indeksi ko'rsatkichi

Indeks	Osonlik darajasi	Ta'lim bosqichi
90 – 100	juda yuqori	5-sinf
80 – 90	yuqori	6-sinf
70 – 80	o'rtadan yuqori	7-sinf
60 – 70	o'rta	8 –9-sinf
30 – 50	o'rtadan quyi	10–11-sinf
0 – 30	juda quyi	OTM bitiruvchisi

Flesh indeksi talablari bo'yicha tanlangan o'quv materiali adabiyot ta'limi uchun yanada samarali xizmat qilishi uchun unga pedagogik yondashuv talab etiladi. Ya'ni yozuvchi mahorati, badiiy so'z vositasida o'quvchiga ta'sir qilish o'rinalariga yo'naltirish lozim bo'ladi.

Adabiyot o'smirning ruhiyati, hissiyotlarini boyitib, o'tkirlashtirib, intellektiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Ta'lim-tarbiyaning asosi – emotSIONAL ta'sir bo'lishi, o'quvchi sezgilari orqali o'zlashtirilgan yangi bilimlar uning yodida qolishi, oson tushunilishi mumkin. Jamiyatda faqat bilimli emas, balki o'tkir hissiyotli insonlar ham qadrlanishi lozimligini ta'kidlagan L. S. Vigotskiy: "O'quvchi kelajakda qanday inson bo'lib ulg'ayishni xohlasa, uning shu jihatlariga ta'sir o'tkazib tarbiyalash lozim", deb hisoblaydi [35; 140-b.].

Masalan, mana shu holatni Chingiz Aytmatovning “Oq kema” [47; 127-b.], Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” [25; 75-b.] kabi bola ruhiyati nozik ifodalangan asarlarni o’rganish jarayonida kuzatish mumkin. O’quvchini asar voqealari kulminatsiyaga chiqqan o’rinlardan, masalan, Chingiz Aytmatovning “Oq kema” asarida bug’u kallasini maydalash chog’ida bola kechinmalarining ifodalanishida, mast holda yotgan bobosining yuzi, uni baliqqa aylanish fikriga kelishga turtki bo’lgan sabablarni yoki “Kichkina shahzoda” asaridagi bolakay uchuvchidan qo’zichoq rasmini chizib berishni so’rab, dastlab bo’g’ma ilonni, oriq qo’zichoqni, shoxi bor qo’chqorni rad qilib, quticha chizib bergenida uchuvchini lol qoldirib, “talabchan hakam gul-gul yonib”, xuddi shunaqasi kerakligini ta’kidlagan o’rinlarga o’quvchi e’tiborini tortish, bolaligini, yodida qolgan birinchi chizgan surati yoki kattalarga tushuntirib bera olmagan (to’g’rirog’i kattalar tushunmagan) vaziyatlar yuzasidan izohlash jarayoniga shaxsiy munosabatini ifodalash har doimgidan ko’ra qiyinroq kechadi, munosabat bildirish asnosida o’quvchi shaxsiyati yaqqolroq ochiladi. Savol-topshiriqlar matnga tayangan holda o’quvchini o’z fikrini, o’ylarini aytishga undaydi. Shu bilan birga o’quvchi yozuvchining tasvirni berish, qahramon ruhiyatini ko’rsatishdagi mahoratini ham baholab boradi. Natijada o’quvchining mashg’ulotga qiziqishi ortadi, unda erkin fikrlash ko’nikmasi va badiiy didi shakllana bordi.

Eng muhimi, badiiy asarlar o’z mazmun-mohiyati bilan shakllanib kelayotgan shaxs ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir ko’rsatishi uchun badiiy matn yuzasidan taqdim etiladigan savol va topshiriqlar o’quv materiali sifatida shunga yo’naltiradigan tarzda tuzilmog’i maqsadga muvofiqdir. Buning uchun taqdim etiladigan savol va topshiriqlarda badiiy matn mazmunidagi muhim jihatlarga urg’u berilishi lozim. Ya’ni badiiy asardagi o’quvchining ruhiyatidan o’tsa uning ma’naviyatiga qattiq ta’sir ko’rsatadigan, o’zidan ijobiy iz qoldiradigan o’rinlarni ajrata

bilish va ularni savol-topshiriqqa aylantirib, shular asosida tarbiyalanuvchining e'tiborini muhimga qaratish lozim bo'ladi.

Adabiy ta'limda asosiy e'tibor o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy, ruhiy kamolot yo'lida tarbiyalashga qaratilar ekan, bolaning intellektual imkoniyatlari darajasi, shaxsiga xos bo'lgan tabiiy xususiyatlari va yoshiga xos rivojlanishini ham hisobga olish zarur. Chunki badiiy asarning inson shaxsi rivojlanishi va shakllanishiga ta'siri ma'lum darajada uning bilimiga ham bog'liq bo'ladi. Bilim borliqni badiiy his etish, badiiy so'zning qudratini, tasviriy vositalarni tushunish, mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va yuksak insoniy tuyg'ularni tarbiyalash bilan hamohangdir. Bilim egasi badiiy asardagi yozuvchi mahoratini tushunishi, zavqlanishi mumkin. Lekin, avallo, bolada badiiy matnga qiziqish uyg'otish lozim bo'ladi. Shunda o'quvchi darsga jiddiy yondashadi, natijada unda bilim bilan birga ma'naviy sifatlar ham shakllana boradi. Qiziqish uyg'otish uchun esa o'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish shart.

Ma'lumki, dars mavzusi bilan bog'liq bo'lмаган biror qiziqarli hodisa yoki kino muhokama qilinganda o'quvchilar o'zaro erkin muloqotga kirishib ketadilar. Sirtdan kuzatilsa, bunday vaziyatlarda ular o'z aqliy va yosh imkoniyatlaridan ko'ra ko'proq narsalarni bilishlari ma'lum bo'lib qoladi. Demak, dars jarayonida o'quvchilarni xuddi shunday muvozanatdan chiqaradigan, qiziqtiradigan, ularni o'ylantiradigan, tabiatiga, yosh xususiyatiga mos mavzular ko'proq berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol-topshiriqlarning turfaligi va o'quvchilarning shaxsiga qaratilgan bo'lishi darslardagi shunday vaziyatlarning asosi bo'ladi. O'quvchilarning ruhiy muvozanatdan chiqishi esa ularni ma'naviy kamolot sari yetaklash garovidir.

O'smirning og'zaki va yozma nutqi faollashadi, berilgan mavzularda insho yozish, mustaqil ravishda og'zaki chiqishlarga tayyorlanish va o'zligini namoyish etish, o'z fikrlarini saralab, umumlashtirib yetkazish, mulohazasini aytish va yozma

ifodalash ko'nikmalari rivojlanadi. Intellektual qobiliyatlarini ko'rsatish uning katta bo'lganini isbotlash uchungina emas, balki atrofdagilar e'tiborini tortish, o'z mavqeini oshirishga intilganligining ham belgisi hisoblanadi. Shuning uchun 12–13 yoshli o'smir oson topshiriqlarga bepisand qaraydi, uni bajarishni o'ziga ep ko'rmaydi, yengil-yelpi vazifalarga qiziqmaydi. O'zini bunday topshiriqlarni bajara olmaydiganday qilib ko'rsatadi. Yosh davrlarining o'ziga xos jihatlarini o'rgangan psixolog N. S. Leytes 6-sinf o'quvchisi misolida o'smirlik davrini tadqiq etar ekan, yaxshi o'quvchi o'qituvchining oson savollarga javob berishni xohlamasligi, savol uni qoniqtirmasligi, bunday savollar o'quvchining ta'lim olishga qiziqishining yo'qolishiga olib kelishi mumkinligini yozadi [51]. O'smir fikrlashni, bahslashishni, tortishishni yoqtiradi. Erkin ijodiy fikrlash o'smir o'quv faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shaxsning jamiyat bilan munosabatini tadqiq etgan psixolog J. M. Glozman: "Bolalarining fe'l-atvori kattalar bilan muloqoti, ularga bo'lgan munosabati asosida shakllanadi", deb hisoblaydi" [36; 123-b.].

O'smirlik davrining bu bosqichida muloqot yetakchi faoliyat maqomidagi o'qish, mehnat bilan bir darajada turadi, bu davr muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysinadi, o'smirlar "katta bo'lganman", degan tushuncha bilan muloqotga kirishadilar. Shu sababli kattalar tomonidan haq-huquqlari cheklanishidan, ularning qarshilik va e'tirozlaridan qattiq ta'sirlanadilar. Atrofdagilarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. O'rta o'smir yoshidagilarga ta'sir ko'rsatish, tarbiya berishning eng qulay sharti – ularning kattalar bilan teng faoliyat ko'rsatishlariga imkon yaratishdan iborat. O'qituvchilar ta'lim jarayoniga o'smir bilan do'stona, uni to'la tushungan holda rahbarlik qilsalar, bunga o'smir ijobiy qaraydi, lekin bu rahbarlik kattalar xohish-istagi ustunligida kechsa, ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Avtoritar munosabat ko'rib tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotda mustaqil holda harakat qilishlari, o'z rejalarini mustaqil ravishda amalga


oshirishlari, mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari bir muncha qiyinroq kechishi ham shundandir.

6-sinf o'quvchisi endi o'zining kichik tadqiqot ishlarini olib borishi: bir necha manbalar bilan ishlashi, dalillarni solishtirishi mumkin. Uning dunyoqarashi tez kengayadi. Bu yoshdag'i o'quvchilarda bir-birlari bilan, o'qituvchisi bilan bahslashishga moyillik kuchli bo'ladi.

Adabiyot o'qitish metodikasi ilmida ham mana shu psixologik qarashlardan kelib chiqqan holda o'quv materiali – didaktik vositalarni bolaning bilim olishga bo'lgan qiziqishi darajasiga asoslangan holda belgilash mumkinligi ta'kidlanadi. "O'smirlarning oltinchi sinfdan boshlab jismoniy va aqliy rivojlanishi ularning faolligi xarakterini ham o'zgartiradi" [63; 17-b.]. O'smir yoshidagi maktab o'quvchilarining aql-zakovatini kamoltoptirish uchun ham ularga doimo mantiqiy tafakkur qilish usullarini o'rgatib borish zarurligini ta'kidlagan F. R. Norbayeva ona tili va adabiyotdan o'quvchilarga to'g'ri jumla tuzish, ravon mulohaza yuritish, fikrlash, yozish o'rgatib borilishi bilan o'quvchilarda mantiqiy fikrlash rivojlanishini yozadi [79; 51-b.]. Lekin shaxs har qanday sharoitda, hammaning oldida ham erkin gapiravermaydi. Psixolog Z. Nishonova: "O'quvchi o'z fikrining to'g'riliği va asosliliga ishonch hosil qilsagina fikrini erkin bayon eta oladi. Buning uchun shunday shaxslararo munosabat muhitini yaratish kerakki, odamdag'i unchalik darajada ahamiyatli bo'lмаган fikr yoki g'oyani ham qo'llab-quvvatlovchi "o'zgalar"ning mavjud ekanligiga erishish kerak", deb hisoblaydi [78; 231-b.]. Erkin, xolisona, sog'lom, oqilona fikr almashinuvi sharoti va muhitining yaratilishi o'smir va o'spirinlarda lo'nda, ravon, mantiqiy tilda so'zlash malakasini o'stiradi. Bunday muhit ijodiy faoliyat tashkil etilgandagina yuzaga keladi.

Z. Nishonova ijodiy faoliyatga ta'rif berar ekan: "Agarda, o'quvchi uning uchun yangi bo'lgan topshiriqni mustaqil hal qilsa, mavjud bilimlarni qayta qursa, o'zgartirsa, darsliklar yoki boshqa bilish manbalarini o'rganishda obyektga o'zaro ta'sir

o'tkazishda yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirsa unday faoliyat ijodiy faoliyat bo'lishi" ni ta'kidlaydi [78; 233-b.].



3-rasm. O'quv materiallari ko'magida adabiy ta'lim samaradorligiga erishish yo'llari

Ko'rindik, o'smirni o'ylashga, fikrlashga, izlanishga undaydigan, bahsga chorlaydigan o'quv materiallari asosida tashkil etiladigan darslar uning intellektual rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi, o'quvchining asosiyligi – darslik ham o'z murakkab mazmun-mohiyati bilan, o'quv materiallarining qiziqarliligi bilan o'qish jarayonidan, sinfdagi a'luchi o'quvchi

saviyasidan ham bir qadar oldinda bo'lishi, didaktik vositalar ijodiy muhit yaratishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir. O'quv materiallari ko'magida adabiy ta'lim samaradorligiga erishish yo'llari quyidagi rasmda (3-rasmga qarang) o'z aksini topgan.

Mazkur jadvalda aks etgan, DTSida belgilab qo'yilgan: "Yuksak ma'naviyatli, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarashga ega bo'lgan fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalash" maqsadiga erishish uchun ta'lim amaliyotini o'quv materiallari va ularga qo'yiladigan har xil talablarga muvofiq tashkil etish talab etiladi [12].

DARSLIKDAGI O'QUV MATERIALLARI USTIDA ISHLASHGA QO'YILADIGAN METODIK TALABLAR

Darsliklarning mukammalligining ahamiyati uning yuksak ma'naviyatning asosi, milliy barkamollik negizi, kuchli taraqqiyotning poydevori sifatida ko'rlishidan. Taraqqiyoning tezlashgan bugungi davrida darsliklar metodik, texnik-texnologik jihatdan muttasil takomillashtirilib borilmoqda. Ta'lim va tarbiya asosi bo'lmish darslik axborot asrida o'quvchi ehtiyoji, talabini qondiribgina uning haqiqiy hamrohiga aylanishi mumkin. Shuning uchun ularda o'quvchilar intellektual imkoniyatlari, bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishning muhimligi hisobga olinishi zarur. Ular o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda yozilishi va bezatilishi adabiy ta'lim samaradorligining garovidir. "Chunki tuyg'ular tarbiyasi bilan shug'ullanishni ko'zlagan, yosh avlod qalbini, shaxsini shakllantirishday g'oyat mas'uliyatlari maqsadni mo'ljallagan "Adabiyot" darsliklari bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olmasa tuyg'ulariga ta'sir eta bilmasligi mumkin. Turli sinf o'quvchilari turlicha ta'sirchanlik darajalariga ega bo'lismi. Bolalarning psixologik va jismoniy imkoniyatlari to'liq hisobga olib ish ko'rilsagina, o'quvchilarda ko'zda tutilgan ruhiy holat paydo bo'lishi mumkin" [70; 144-b.].

Darsliklarning tili ravon, ifodasi jonli, har xil qobiliyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarning har birini suhbatga chorlay oladigan, ularni fikr yuritishga, muhokama qilishga, taqqoslashga undaydigan, o'z xulosalarini aytishga jalb qiladigan didaktik topshiriqlarga boy bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Adabiy ta'lim mazmuni qanchalar boy va rang-barang bo'lsa, yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishi imkoniyati shunchalar oshib boradi.

"Har bir o'quv fani dasturida o'quvchi va talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bulgan bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni hamda hajmi ifodalandi. Shunga

asoslangan xolda davlat ahamiyatiga molik bo'lgan hujjatlardan biri "Adabiyot darsliklariga qo'yiladigan talablar"da darsliklar:

- o'zbek adabiyoti dasturi mazmunini adabiyotning eng so'nggi yutuqlarini nazarda tutgan holda, ilmiy-metodik jihatdan yukori saviyada ochib bera oladigan;

- o'quvchi va talabalarning mustaqil ishlashlari, fikr-mulohazalarini ravon, savodli bayon qila olishini ta'minlaydigan;

- o'quv materialining o'zlashtirilishini ta'minlaydigan, o'quvchini mustaqil ijodiy mushohada yuritishga undaydigan;

- o'quv-matnlariaro va predmetlararo aloqani, bilimlar izchilligini ta'minlaydigan;

- dars jarayonida zamonaviy texnika va hisoblash texnikasidan foydalanishni nazarda tutadigan;

- o'quv faniga oid asosiy ma'lumotlar, ilmiy-tushunchalar, qoidalar o'quvchilarning saviyasiga mos bo'libgina qolmay, balki ularning bilim darajasidan oldinroqda yuradigan, tarbiyalanuvchilarni olg'a yetaklashni ta'minlaydigan;

- darsliklardagi materiallar badiiy adabiyotning turmush bilan, hayotiy tajribalar va ma'naviy qadriyatlar bilan aloqasini mustahkamlaydigan;

bilimlarning muntazam, mustahkam va ongli o'zlashtilishiga, o'quvchilarda badiiy adabiyotga muhabbat uyg'ota oladigan, ularda milliy qadriyat va urf-odatlarga hurmat tuyg'usini o'stiradigan, milliy g'ypyp, vatan va xalqqa cheksiz muhabbat xislatlarini shakllantirishga yordam beradigan tarzda tuzilishi kerak" [18; 3-4-b.], deyiladi.

Professor Q. Yo'ldoshev o'zining doktorlik tadqiqot ishida: "Adabiyot darsliklariga qo'yiladigan talablar davr bilan birgalikda, adabiyot o'qitish konsepsiyasidagi o'zgarishlarga muvofiq tarzda o'zgarib boradi. Chunki har qanday darslik o'quvchi ruhiyatining ehtiyoj, intilish va imkoniyat atalmish qirralarini aks ettirgandagina muvaffaqiyat qozona oladi, samara bera oladi", deydi [71; 143-b.]

“Adabiyot” darsliklari jamiyatning maktab oldiga qo‘ygan tarbiyaviy-ta’limiy vazifalarini amalga oshirish vositalaridan biri bo‘libgina qolmay, ular bilim asoslarini egallashning omili hamdir. Darslikning mazmuni o‘quv dasturi belgilab bergan yo‘nalishga asoslanadi, albatta. Chunki dasturda darslarda o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nnkma va malakalar mazmuni, hajmi, badiiy asarlarga yondashuv yo‘nalishi belgilab berilgan bo‘ladi.

“Haqiqat shundaki, – deydi prof. Q. Yo‘ldoshev “Yoshlik” jurnalining muxbiri savoliga bergan javobida, – millat ahlining badiiy saviyasi darslik saviyasida bo‘ladi. Chunki millatning intellektual-ma’naviy qiyofasi shu darslik vositasida shakllantiriladi... Ma’lumki, adabiyot – o‘quv fani, u yozuvchi-shoir tayyorlash uchun o‘qitilmaydi. Menimcha, rasm va musiqa kabi saboqlar ham yoshlarda rassomlik yoxud qo‘shiqchilik qobiliyatini hosil qilishi uchun emas, balki ularda tasviriy san’at va musiqani tushunishga xizmat qiladigan didni shakllantirishga yo‘naltirishi zarur” [20; 7-12-b.].

Professor B. To‘xliyev o‘zining “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli qo‘llanmasida darsliklar haqida gapirib shunday deydi: “Darslik o‘quvchilar bilimining izchil o’sishiga, ilmiy asosga tayanishiga imkon berishi bolalarning yoshini hisobga olishi, mavzularning mantiqiy aloqadorligiga e’tibor berishi lozim. Unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar targ‘ib qilinishi, o‘quvchilardagi yuksak axloqiy va estetik didlarning shakllanishi va tarbiyalanishiga xizmat qilmog‘i lozim” [60; 43-b.].

Q. Husanboyeva o‘zining doktorlik tadqiqot ishida: “... darsdan tashqari biror qiziqarli, hayotiy hodisa yoki kino muhokama qilinganda o‘quvchilarning tillari “yechilib ketganday” bo‘ladi. Shunday vaziyatlarda o‘quvchilar o‘z aqliy va yosh imkoniyatlaridan ko‘ra ko‘proq narsalarni bilishi ma’lum bo‘lib qoladi. Demak, darsliklarda dars jarayonida o‘quvchilarni xuddi shunday muvozanatdan chiqaradigan, qiziqtiradigan, o‘ylantiradigan, tabiatiga, yosh xususiyatlariga mos mavzular

ko'proq berilishi, matnlar yuzasidan taqdim etilgan savol va topshiriqlarning xilma-xilligi darslardagi shunday vaziyatlarning asosi bo'ladi. Shakllanayotgan shaxsnинг muntazam ravishda ruhiy uyg'oq holatda bo'lishi uni ma'naviy kamolot sari yetaklash garovidir" [90; 72-b.].

Bundan tashqari, darsliklar o'quvchiga dunyoni anglashga yordam beradigan, olgan bilimlarini hayotning bugungi taraqqiyoti darajasi bilan bog'lay oladigan, shakllantirilgan ma'naviy qadriyatlar va o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyatga tatbiq qilishga imkoniyatlar beradigan darajada yaratilishi lozimdir. Bularga qo'shimcha ravishda, "Adabiyot" darsliklari muqaddas milliy qadriyatlar, urf-odatlarni qadrlashga, o'zbekona axloq qoidalarini anglashga, ular bilan hisoblashishga, Vatanga va xalqqa cheksiz muhabbat hissini tarbiyalashga ham xizmat qilmog'i maqsadga muvofiqdir.

Professor A. Zunnunov darsliklar tarkibini ikki guruhg'a bo'ladi: matnlar va matndan tashqari tarkiblar. Olimning ta'kidlashicha, "Adabiyot" darsliklarida yozuvchi tarjimayı holi, badiiy asarlar yoki ulardan berilgan parchalar, asar haqidagi ma'lumotnomalar, adabiy nazariy tushunchalar va sinfdan gashqari o'qiladigan asarlar matnlar sanaladi. Shu matnlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi asar mazmuni asosida tayyorlangan savol va topshiriqlar, yozuvchi va shoirlarning fotosuratlari, badiiy asar qahramonlari va asar syujeti asosida tayyorlangan tasviriy san'at materiallari, matnni o'zlashtirish uchun tayyorlangan lug'atlar matndan tashqari tarkiblar hisoblanadi" [37; 11-b.].

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, "Adabiyot" darsligiga kiritilgan matnlar ma'lum bir yaxlitlikda, tugallangan shaklda bo'lishi, mazmunan bir-birini to'ldiradigan, hajman dasturda rejelashtirilgan soatlar miqdoriga muvofiq keladigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Darslikka kiritilgan matnlar jamiyatning komil shaxslar yetishtirishdek talabi va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilishi

talab qilinadi. "Adabiyot" darsliklarida qo'llaniladigan atamalar, adabiy nazariy tushunchalar, amalda umuman qabul qilingan mezonlarga mos kelishi shart.

Adabiyot o'qitish jarayonining emotsionalligini oshirish uchun darslikda o'quvchining to'lqinlanishiga, qiziqishiga imkoniyat yaratuvchi, ularda yorqin, yaqin kechinmalar uyg'otuvchi materiallar berilishi darslikning saviyasini ko'tarish bilan birga uning o'quvchilar uchun sevimli kitobga aylanishiga asos bo'lishi ham mumkin.

Darsliklar mukammalligini ta'minlash uchun xizmat qiladigan matndan tashqari materiallardan yana biri – rasmlar shunchaki tasvir yoki ranglar jilosi bo'lmay badiiy asar qahramonlari xarakterini, ichki dunyosini ochib beruvchi, matn mazmunidagi milliy ruhni, badiiy asar go'zalligini namoyish qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi adabiy ta'limning maqsadiga monand keladi. Yozuvchi yoki shoirlarning suratlari ham uning shaxsiyatini, ichki dunyosini asarlariga yo'g'rilgan dunyoqarashini ochib beradigan darajada bo'lishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Toki, badiiy asar tahlili jarayonida, adib tarjimai holini o'rganishda o'qituvchi-o'quvchiga qo'l keladigan, tarbiyalanuvchilarda ma'lum tasavvurlar paydo qiladigan, shu bilan birga darsliknnng bezagi vazifasini ham o'tay oladigan materiallar bo'lsin.

"Adabiyot" darsligiga kiritilgan asarlar o'z mazmun-mohiyati, badiiy jihatiga ko'ra o'quvchilarga o'zbek xalqining tarixiy an'analari, ma'naviy qadriyatları va madaniyati haqida ma'lumot berish bilan birga ularning badiiy estetik didini o'stirishga, ularda shaxslik sifatlarini shakllantirishga, dunyoqarashining boyishi va kengayishiga xizmat qilishi kerakligini nazarda tutish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Darsliklarda taqdim etiladigan o'quv materiallarining mazmuni haqida Q. Husanboyeva shunday deydi: "O'quvchi faoliyatining yaratuvchanligi yoki ijodiyligi unga taqdim etilgan o'quv materialining xarakteriga ham

bog'liq. Adabiyot darsliklarida ayrim topshiriqlar tavsiflashdan iborat bo'ladi, ba'zilari umumlashtiruvchi xarakter kasb etadi. Ayrim savollar avval o'zlashtirilgan bilimlarni eslashga ehtiyoj uyg'otsa, boshqasi har tomonlama o'ylashni va tahlilni talab etadi. Bir xil savollar uchun darslikdagi ma'lumotning o'zi kifoya qilsa, o'zgasini o'zlashtirish uchun qator yordamchi manbalarga suyanishga to'g'ri keladi. Bunday turfa topshiriqlarni bajarishda, tabiiyki, o'quvchilarning yaratuvchanlik va ijodkorlik faoliyati darajasi bir xil bo'lmaydi. O'quv materiali qanchalik takroriy xarakterga ega bo'lsa, u o'quvchiga shuncha zerikarli bo'ladi va uni o'zlashtirish yaratuvchanlik xarakterini kasb etmaydi [90; 62-b.].

"Adabiy ta'lim konsepsiysi"da: "Komil shaxsni shakllan-tirishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan chinakam badiiyat namunalari milliy va jahon adabiyotini estetik qimmati yuksak asarlari, ana shu asarlarni tushunish va o'zlashtirishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan adabiy-nazariy hamda didaktik bilimlar tizimi yangilangan adabiy ta'limning mazmunini tashkil etadi. Adabiy ta'limning mazmunini belgilashda sinfiy, partiyaviy, mafkuraviy va boshqa cheklashlarga yo'l qo'yilmaydi. Adabiy ta'limning bosh maqsadiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan har qanday asardan, u kim tomonidan, qachon yaratilganidan qat'iy nazar, adabiyot o'qitishda foydalanilaveriladi. Badiiy asarlarga siyosiy-sinfiy manfaatlaridan kelib chiqib munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilmaydi. Negaki, insonning ma'naviyati siyosiy-sinfiy ko'rinishga ega emas. Asl ma'naviyat faqat umuminsoniydir" [17; 5-b.].

Darsliklarning mazmun-mohiyatini belgilash masalasiga adabiyot o'qitish metodikasi ilmi bilan shug'ullangan o'zbek metodist olimlarining barchasi ma'lum darajada o'z munosabatlarini bildirib o'tganlar. Masalan, professor S. Matchanov o'zining "Umumta'lim tizimida adabiyotdan mustaqil ishlarni tashkil etish" nomli doktorlik dissertatsiyasining

“O‘quvchilarni darslik ustida ishlashga o‘rgatish usullari” deb nomlangan bandida o‘quvchining darslik ustidagi faoliyati quyidagi jarayonni qamrab olishini aytadi:

1. Tayyorgarlik davri. Bu bosqichda o‘quvchilar darslik-majmuada berilgan asarlar muallifi, sarlavhasi, epigrafi, janri, bo‘limlari bilan tanishadi, uning o‘tilgan mavzular bilan aloqasini aniqlaydi.

2. Bilimlarni o‘zlashtirish. Bu bosqichda asosiy matnni o‘qib o‘rganish orqali mavzuni o‘zlashtirish yo‘lidan boriladi. Matnda ajratib ko‘rsatilgan nazariy tushunchalar bayoni va xulosalarga alohida e’tibor beriladi. Ilova qilingan rasm va jadvallarning mavzu aloqasi o‘rganiladi. Tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlar izohlanadi.

3. Bilimlarni mustahkamlash. Bu jarayonda o‘qib o‘rganilgan matn mazmuni hikoya qilinadi. U to‘la o‘zlashtirilmagan taqdirda qayta o‘qiladi. Matn oxiridagi savol va topshiriqlar ustida ishlanadi. Zarurat sezilganda matn yuzasidan reja tuziladi, konspekt yoziladi.

4. Yakuniy bosqich. Matnda ilgari surilgan asosiy fikr, yetakchi g’oya oldingi darslarda yoritilgan masalalar bilan taqqoslanadi. O‘rganilgan bilimlar umumlashtiriladi va xulosalanadi [75; 92-b.].

Bu fikrlar, ya’ni o‘quvchilarning adabiyot darsi jarayonidagi faoliyati darsliklarning mazmunini belgilashga bevosita daxldor bo‘lmasada, darsliklardan o‘rin olishi lozim bo‘lgan didaktik vositalar: badiiy asar, nazariy ma’lumotlar, savol va topshiriqlar, badiiy asarlar mazmuni asosida ishlangan rasmlar adabiyot darsliklarning mazmunini belgilashi lozimligini anglash mumkin. Olim darsliklarning ma’lum bir tizim asosida yaratilishi o‘quvchilarning ular ustida ishlashini osonlashtiradi, lekin o‘qituvchilarning ayrimlarini darslik bilan ishlashni bilmaydilar deb hisoblaydi. Buning turli obyektiv va subyektiv sabablarini: darslikning nazariy qismlari tilining o‘ta rasmiy va og‘irligi, savol va topshiriqlarning jo‘nligi, suratlar va boshqa qo‘srimcha didaktik materiallarning yetarlicha berilmasligida deb biladi.

Professor S. Matjonov bilimlarning to'la o'zlashtirilishi uchun o'quvchilar matn mazmunini mustaqil ravishda o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishlarini talab qiladi, ya'ni iloji boricha o'quvchining o'z so'zlari bilan qayta hikoyalashga e'tibor qaratilmog'i lozim deb hisoblaydi.

Bizningcha, matn mazmunini qayta hikoyalash boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh psixologiyasiga monand ish. Ularning yoshida o'qigan yoki eshitganlarining mazmunini eslab qolish imkoniyati kuchli bo'ladi. O'qish darslarida mazkur yoshdagi bolalarga xos bo'lgan bunday tabiiy psixologik xususiyatni yanada rivojlantirish maqsadida o'rganilgan badiiy matnlarni qayta hikoyalashga urg'u beriladi. Yuqori sinflar adabiy ta'limining maqsadi butunlay boshqa va 5- yoki 6-sinf o'quvchilaridan o'qiganlarini qayta hikoya qilishni, garchi o'z so'zlari bilan bo'lsa-da talab qilish ularning adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini so'ndirib qo'yishi mumkin.

O'zbek adabiyoti kursining ilk bosqichini, asosan, xalk og'zaki ijodi namunalari tashkil etadi. 5-sinflarda xalq og'zaki ijodi namunalaridan ertaklar, rivoyatlar, afsonalar, dostonlar, matal-maqol, topishmoqlar, tez aytishlar o'rganish uchun ko'proq havola etilgani o'rinnlidir. Chunki xalq yaratgan ertak va afsonalarning tili sodda, ravon va bu yoshdagi o'quvchi ruhiyati va qiziqishlariga mos bo'ladi. Kichik o'smir yoshidagi o'quvchining psixologiyasi sarguzashtlarga boy asarlarni o'rganishga moyil bo'ladi. Xalq maqollari va matallari ham bolalarning axloqiy jihatlarini to'g'ri shakllantirishga hissasini qo'shami, ham o'quvchilarning nutqini o'stirishga xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodi namunalari mazmunan bolalar yoshiga va ruhiyatiga yaqin bo'ladi. Shu bilan bir qatorda ularni o'zlashtirish, ayrimlarini yod olish o'quvchi uchun qiyinchilik tug'dirmaydi. "Go'ro'g'li", "Alpomish" turkum dostonlarida o'z aksini topgan mardlik, ishbilarmonlikni, xalq fantaziyasining nechog'lik boyligi va kengligini, qahramonlariga xos bo'lgan botirlilik, yengimaslik kabi fazilatlar tayanch maktablarning

o'quvchilarida hayrat hissini tarbiyalashi tabiiy. Lekin, katta hajmdagi o'zbek xalq ogzaki ijodi namunalarini bo'laklarga bo'lganda yoki ularni montaj qilganda ham asarning badiiy yaxlitligini, jozibasini saqlab qolish juda katta hamiyat kasb etadi. Asarlarni sun'iy ravishda istagancha bo'laklarga bo'lish mumkin emas. Ertak va afsonalarni qismlargacha bo'lganda, har bir bo'lak o'ziga xos yaxlitlikka ega bo'lishi va shu bilan birga umumiy yaxlitlikni ham saqlab turishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyot kursi mazmunini belgilashda o'zbek mumtoz adabiyoti salmoqli o'rinni egallashi ham tabiiy. O'quvchilar o'zbek adabiyoti tarixini keng qamrovda bilishlari shart. Yaratilgan davridan keyin ham yashayotgan mumtoz asarlarni o'quvchilar ma'naviy dunyosining jonli, ta'sirchan bir bo'lagi sifatida taqdim eta bilish lozim. Darslarda o'tmisht adabiyotining ruhi va chuqur ma'nosi to'liq ochilgandagina, ular o'z samarasini beradi. Umuman, mumtoz adabiyotning hozirgi zamon va uning muammolari bilan aloqasi tabiiy, hayotiy muammolarning izchilligiga asoslangan bo'lishi lozim. Mumtoz adabiyot bilan hozirgi zamon o'quvchisi o'rtasidagi aloqaning mustahkam bo'lishi uchun mumtoz adabiyotning badiiy xususiyatlarini hozirgi hayotga har xil sun'iy yo'llar bilan bog'lash ham noto'g'ri.

Maktab adabiy ta'limida XV asr turkiy adabiyotining buyuk namoyandasini Alisher Navoiy faoliyati monografik tarzda o'rganilib kelinmoqda. Alisher Navoiy asarlari soddalashtirilgan holatda yoki nasriy bayonda boshlang'ich sinflardan tortib, tayanch va o'rta maktablarni ham qamrab olgan. Yuqori sinflarda Navoiy asarlarini soddalashtirish yoki tabdilini berishning hojati ham bo'lmaydi. Faqat ularning asli bilan bir qatorda nasriy bayonining berilishi adabiyot o'qitishdagi muammoli masalalardan biri bo'lib turibdi. Lekin Navoiyni sinfma-sinf o'rganish to'g'ri tashkil etilsa, yuqori sinflarga borganda uning tabdiliga – nasriy bayoniga ham hojat qolmaydi. Navoiy shaxsini, uning insoniy sifatlarini o'rganishda 5-sinflarda u haqda aytilgan rivoyatlar, shoirning bolalik davri tasvirlangan badiiy asarlardan

parchalar o'rganish shaklida amalga oshirilsa, 6–7-sinflarda uning kichik hajmdagi o'quvchilar yoshi va saviyasiga mos keladigan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan asarlari o'rganilsa, 8-sinfdan boshlab Alisher Navoiyning tarjimai holi va murakkab janrdagi asalarini mukammal o'zlashtirish bilan davom ettirish mumkin.

Badiiy asarlarning jozibasini anglash, umuman asarni to'liq o'zlashtirish uchun ularni yaratuvchilarning shaxsini bilish juda katta ahamiyat kasb etadi. Adib o'z shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashi, jamiyat va tabiatga munosabati bilan o'quvchilarga qanchalik yaqin, sevimli bo'lsa, uning asarlari ham shunchalik o'zlashtiriluvchan bo'ladi.

Yaratilgan asarlardagi badiiy tasvir vositalarining o'zaro bog'liqligini payqab olish va ularni baholash uchun badiiy tasvir ifodalarini ko'rish, ularni kuzatish yetarli emas. Buning uchun badiiy matn ortida muallifni eshitish, uning o'zigagina xos bo'lgan, takrorlanmas ijodiy xususiyatlarini his qilish lozim bo'ladi.

Umuman, yozuvchi tarjimayi holini quyidagi tarzda berish taklif etiladi:

1. Yozuvchi tarjimayi holini u haqidagi jonli hikoya shaklida tashkil qilish. Bu quyidagilarni qamrab oladi:

- g'ayrioddiy, o'ziga tortuvchan boshlamalar (epigraflar) (bu o'quvchini mavzuni o'zlashtirishga ko'p jihatdan tayyorlaydi);

- yozuvchi bolalik yoki o'smirlik taassurotlarining aniq tasviri, ya'ni bir maqsad sari yo'naltirilgan, keyinchalik u yetuk inson bo'lib shakllanganda asarlarida o'z timsoliga ega bo'lgan voqeа hodisalar, xotiralar;

- uning o'smirlik yillardagi yirik rejalar;
- muallifning ma'lum yoshida o'zi uchun qiziqarli bo'lgan axloqiy, etik-estetik muammolari;

- tarjimayi hollar ichida o'rganilajak badiiy asarlardan kichik lavhalar keltirish.

2. Millat ulug'larining o'rganilajak yozuvchi haqidagi xotiralar, memuarlar, yozishmalar, yozuvchining kundaliklaridan namunalar, tarjimayi hol janridagi asarlari.

3. Ko'rgazmalilikning har xil shakllariga murojaat qilish:

- tasviriy san'at;
- tizimli jadvallar;
- eshitish, ko'rish orqali o'zlashtirishning texnik vositalari.

4. Yozuvchining ijodiy portretini namoyish qilish. Bunda quyidagilar asosiy usullardan bo'lishi mumkin:

- badiiy asarlardan olingan parchalarni ifodali o'qish;
- yozuvchi hikmatlaridan, tanqidiy qarashlaridan foydalanish;
- o'quvchilarning shu mavzu asosida ma'ruza va axborotlari;
- insholar, bayonlar, mustaqil ishlar;
- yozuvchi shaxsiga bag'ishlangan she'rlar.

Bugungi kunda ta'larning bosh maqsadi komil shaxsni tarbiyalash ekan, o'sha shaxsning shakllanishida adabiyot darslarida yozuvchi shaxsiga murojaat qilish juda katta ahamiyatga ega. O'z shaxssi bilan bugungi avlodni tarbiyalashga hissa qo'shadigan mumtoz va zamonaviy adiblarning tarjimayi hollari memuarlarda, xatlarda, kundaliklarda namoyon bo'ladi. Bu manbalar o'quvchining yozuvchi shaxsi haqidagi tasavvurini boyitadi, uning yashagan davri, zamondoshlari bilan, adibning ijtimoiy, etik-estetik qarashlari bilan tanishtiradi. Yozuvchi bilan o'quvchini bir-biriga yaqinlashtiradi. Yozuvchi shaxsining hayot oqimiga, jamiyat rivojiga munosabati, qarashlari uning asarlarida o'z aksini topadi. Yozuvchi tarjimayi holini o'rganish bu - yozuvchining ichki dunyosini, yozuvchi shaxsining shakllanishi va rivojlanishini, tarixdagi, jamiyatdagi o'rnini ko'rsatish, uning insonga, jamiyatga munosabatini ochib berish demakdir. Yozuvchini boshqargan oliy hislar nimalar ekanligini o'quvchiga anglatish demakdir.

O'zbek adabiyoti kursining mazmuni qator o'zbek olimlari tomonidan mukammal ishlab chiqilgan. O'zbek adabiyoti kursida o'zbek mumtoz adiblari Ahmad Yassaviy, Xorazmiy, Alisher

Navoiy, Bobur, Mashrab, Nodira, Muqimiy, Furqat va hokazo adiblarning ijodini monografik tarzda o'rganish maqsadga muvofiq deb topilgan. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'rganish, ularni tahlil qilib mag'zini chaqish o'quvchilarga, hatto, ayrim o'rnlarda, o'qituvilarga ham qiyinchilik tug'diradi. Maktablarda olib borilgan sinov-tajriba ishlari natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, faqat yuqori sinf o'quvchilarigina mumtoz janrlarning badiiy jozibasini, ulardagi insoniy va ilohiy muhabbatni anglab olishga qodir va bunga intiladi.

Shubhasiz, o'zbek mumtoz adabiyotidan o'rganish uchun tavsiya etilayotgan vakillar ijodini o'rganish "O'zbek mumtoz adabiyoti" ruknida xronologik tarzda amalga oshiriladi.

O'zbek adabiyoti kursi mazmunini tashkil qiluvchi yana bir bo'lim "O'zbek zamonaviy adabiyoti" bo'limidir. O'zbek zamonaviy adabiyoti ham boy va ko'p qirralidir. Adiblar ijodida o'quvchi ma'naviyatini boyitish uchun juda katta manba bo'lib xizmat qiladigan jihatlar behisob. Shuning uchun zamonaviy adabiyot imkon qadar kengroq qamrab olinishi maqsadga muvofiqdir.

O'zbek adabiyoti kursida XX asr o'zbek adabiyotini o'rganish uchun adiblarning ixcham, mazmunli va qiziqarli tarjimayı hollari hamda asarlaridan namunalar o'z aksini topadi. Dasturning "Sinfdan tashqari o'qish va sinda muhokama qilish uchun" bo'limida shu adiblarining boshqa asarlarini tavsiya etish mumkin. Shunday qilinganda ular ijodini imkon qadar kengroq va yaxshiroq o'zlashtirish mumkin bo'ladi.

Metodist olim Q. Husanboyeva darsliklarning mazmunini belgilash haqida gapirib: "Darsliklarga material tanlash, ular qaysi sinflarga mo'ljallanganidan qat'iy nazar, yozuvchining mavqeい, olgan unvonlariga qarab emas, asarlarning inson kamoloti yo'lida nechog'lik ahamiyatliligi bilan belgilanadi. Badiiy ijod namunalari dunyosidagi eng zo'r asarlarning barchasini darslikka kiritib bo'lmagani singari, eng yaxshi deb topilgan adibning asarlari ham, agar u millat kelajagi

ma'naviyatini shakllantirishga hissa qo'sha o'lmasa, darslikka kiritilmaydi.

Darsliklardagi didaktik ashyolarning vazifasi o'quvchini o'sha eng zo'r asarni mustaqil ravishda qidirib, topib o'qiydigan ma'naviyat egasi sifatida shakllantirishdan iboratdir, deydi [90; 211-b.].

O'quvchilar ma'naviyatining shakllanishi, badiiy-estetik didining o'sib borishi masalasi hamisha birinchi planda turishi lozim. Badiiy asarlar bilan ishslash jarayoni ham shunga qarab murakkablashib boradi.

Adabiyot darslari uchun material tanlashda, uning mazmunini belgilashda quyidagi me'yorlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Asarning badiiy yuksakligi.
2. Uslub va janr jihatdan xilma-xilligi.
3. O'quvchining yoshiga mos bo'lishi.
4. Asarning o'quvchi tomonidan o'zlashtira olish jihatlari.

O'zbek zamонавијада adabiyotidan material tanlashda asarlarda millatning ruhi qanchalik chuqur aks etganligiga jiddiy e'tibor berish lozim bo'ladi. Xalqning milliy ruhi ko'proq uning asarlarida o'z aksini topadi. O'qitishning har bir bosqichida turli murakkablikdagi matnlarning tavsiya etilishi o'quvchilarning axloqiy boyishini, ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. Yana shuni ham unutmaslik kerakki, o'qitish, jarayoni o'quvchining rivojlanishidan oldinda bo'lishi lozim. Unga har bir o'quvchi ma'lum qiyinchiliklar orqali erishsin. Ta'lim-tarbiya jarayonini o'quvchining sust rivojlanishiga moslanib qolishiga aslo yo'l qo'yish mumkin emas. Ana shunda o'quvchi qiziqadi, intiladi.

O'rganish uchun tavsiya etilayotgan adabiy-badiiy materiallarning o'quvchi yosh xususiyatlari, qiziqishlari va psixologiyasini nazarda tutgan holda asta-sekinlik bilan murakkablashib borishi o'qishga qiziqishning saqlanib qolishiga imkoniyat yaratadi. O'quvchining badiiy asar o'qish ko'nikmasini shakllantiradi, kengaytiradi, ichki dunyosining

yangi qirralarini ochib beradi, adabiy ta'lif talabiga mos ma'naviy barkamollikning shakllanish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek adabiyoti namunalarini tayanch mакtabning 5-7-sinflari "Adabiyot" darsliklariga joylashtirishda didaktikaning turli tamoyillaridan uyg'un foydalanish mumkin. Yuqori sinflar o'zbek adabiyoti kursi mazmunini belgilashda esa asosiy narsa berilgan adabiy-badiiy materiallarda estetik, ilmiy ustuvorlikni saqlash, yuqori sinf o'quvchilari yosh xususiyatlari va qiziqishlarini nazarda tutish, o'quvchi faoliyatining yuqori nuqtasini aniqlash va o'qitishni shularga asoslangan qolda amalga oshirish lozim bo'ladi.

Zamonaviy adabiyoti namoyandalarining tarjimayi holini, asarlarini o'rganish borasida ilmiy-publisistik, ilmiy-ommabop va avtobiografik tarzdagi materiallar mavjud. Adiblarning shaxsi haqida ulug'larning fikrlarini berish, ularning adiblar asarlariga munosabatini epigraf tarzida yoki epilog shaklida berish ham o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Professor M. Mirqosimova o'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirishni tadqiq etar ekan, quyi sinfdagi tahlilni yuqori sinflardagi tahlildan farq qilinishini ta'kidlaydi: "O'quvchilar diqqati matnni ifodali o'qishga, mazmunini o'zlashtirishga, og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratiladi. O'qituvchi o'quvchi taassurotlarini tinglashga ko'proq e'tibor beradi. Uning asarda tasvirlangan voqeа-hodisalarning oqibatini tushunib olishiga ko'maklashadi, ma'naviyat tarbiyasiga alohida e'tibor beradi" [76; 23-b.].

Olima to'g'ri tanlangan tahlil usuli bilan adabiyot darslarida quyidagi natijalarga erishish mumkinligini aytadi: tahlil uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarni singdirib borish; adabiy tahlil vositasida o'quvchilar ma'naviy dunyosini tarbiyalash, hissiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish; dunyoqarashini takomillashtirish; zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalarini quyidan yuqoriga tomon bosqichma-bosqich mustahkamlab borish

natijasida ularni mustaqil ijodiy ishlarga yo'llash; badiiy ijod talablari va qonuniyatlari haqida aniq tushunchalar hosil qilish; o'quvchilarning kitobxonlik darajasini o'stirish, estetik didlarini tarbiyalash, jamiyatning faol ijodkor a'zosi sifatida shakllantirshga erishish; nutq madaniyatini tarkib toptirish, ijodkorlik sifatlarini kamol toptirish, badiiy so'zga mas'uliyat va mehr bilan yondashishga o'rgatish; har xil davrda yaratilgan turli uslubdagi asarlar tahlili yordamida boy adabiy merosimizga hurmat hissini tarbiyalash, undan g'ururlanish tuyg'usini hosil qilish, xalqimiz e'tiboriga sazovor bo'lgan ijodkorlar haqida, ular yaratgan asarlarning badiiy qimmati to'g'risida bilim berishdan iborat" [76; 52-b.].

Adabiyotni chuqur o'rganishda darsliklarda adabiy-nazariy tushunchalarning berilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda ularni o'zlashtirishni metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilish ham alohida e'tiborga molikdir. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmi buning uchun bir necha shartlar bajarilishini nazarda tutadi.

O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotga xos bo'lgan ko'plab adabiy janrlar, adabiy-nazariy tushunchalar haqida darsliklarda shu janrdagi asardan oldin to'liq ma'lumot berish maqsadga muvofiqdir. O'quvchida janr haqida to'liq tasavvur hosil qilingandan so'ng asar tahlili ustida ishlash uning bu boradagi muvaffaqiyati garovidir. O'zbek mumtoz adabiyotiga xos bo'lgan adabiy-nazariy tushunchalarning o'rganilishidan maqsad ham dars jarayonida o'quvchi badiiy asarni tahlil qilganda unda maxsus adabiy terminlarni qo'llash ko'nikmasini shakllantirishdir. Busiz adabiyot darslari matn mazmunini quruq qayta hikoyalashga o'xshab qoladi.

Adabiy asarlarni badiiy, nazariy tahlil qilish uchun ma'lum leksik asos zarur. Umumiy o'rta ta'limning quyi bosqichlarida nazariy ma'lumotlarning samarali o'zlashtirilishi o'quvchining nutqiy, nazariy faolligini oshiradi. 8–9-sinflarda, ta'limning

keyingi bosqichlarida adabiy-nazariy ma'lumotlarni o'zlash-tirishni osonlashtiradi.

Adabiyot darslarida badiiy asarlarning o'quv tahlili jarayonida muallifning asar qahramonlari shaxsiyatini ochishga qaratilgan leksikasiga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Chunki bu leksika o'quvchilarda badiiy asarda aks etgan axloqiy-estetik jihatlarga signal vazifasini o'taydi. Shunday leksikan ni nazariy bilimlar yordamida chuqur o'zlashtirish, qahramonlar xarateriga xos bo'lgan insoniy jihatlarni teran anglab olish ularning ma'naviyatida o'chmas iz qoldiradi. Bunday nazariy bilimlar o'quvchilarda: atamalarni to'g'ri o'zlashtirish va qo'llash, so'zning leksik ma'nosini anglash, uning grammatik ahamiyatini o'rganish hamda uni eslab qolish kabi ko'nikmalarning shakllanishiga olib keladi.

Adabiyot darslarida badiiy matnlarning o'quvchi tomonidan to'liq o'zlashtirilishini ta'minlaydigan muhim omillardan yana biri ularning mazmun-mohiyati yuzasidan tayyorlanadigan savol va topshiriqlardir. "Adabiyot" darsliklarida obzor mavzular, tarjimayi hollar, asarlarning tahlili uchun alohida savol va topshiriqlar tuziladi. Ular orasiga nazariy ma'lumotlarga doir tushunchalarni qamrab oladigan savollar ham kiritiladi. Bir qator darsliklar bilan tanishib chiqish jarayonida shunga amin bo'ldikki, adabiy matnlar yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar faqat matn mazmunini qayta hikoyalashga qaratilgan. O'quvchining og'zaki nutqini o'stirishga yo'naltirilgan. Juda ko'p savollar shunday tuzilganki, o'quvchi savol ustida o'ylab ham, uni to'liq tushunishga harakat qilib ham o'tirmaydi. Savolning aynan so'zma-so'z javobini matndan topib yozib qo'yadi yoki o'qituvchiga javob beradi. Bunday faoliyat bilan o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish dargumon va buning isbotini kundalik hayot ko'rsatib turibdi.

"Adabiyot" darsliklariga yuqorida gilarga qo'shimcharavishda o'rganilajak asarning badiiy jozibasi, qimmati, ta'sirchanlik

jihatlarini, qahramonlarning shaxsi, ruhiy kechinmalari va tuyg'ulari tasvirini olib beruvchi hamda asarda aks etgan milliy ruhni ko'rsatuvchi savol va topshiriqlar guruhini ham kiritish maqsadga muvofiqdir.

Professor Q. Yo'ldoshev savol va topshiriqlarga alohida to'xtalib: "Yangilangan adabiy ta'lim "Adabiyot" darsliklarida savol va topshiriqlar keng o'rinn tutishini taqozo qiladi. Negaki, darsliklardagi matn bo'yicha tuzilgan savollar badiiy adabiyotning mohiyatini ochishga qanchalik xizmat qilsa, bolalarni matn jozibasini his etishga nechog'lik yo'naltirsa, badiiy asarni o'rganishdan kuzatilgan maqsad shunchalik to'liq amalga oshgan bo'ladi", deydi [71; 148-b.].

Professor S. Matjonov: "Darsliklarda berilgan savol-topshiriqlar bilimlarni aniqlash, umumlashtirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashga, bayon etilgan tushunchafikrlarni baholashga, shu tariqa o'quvchilarda ijodiy fikrlash ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi", - deydi va 1971–1993 yillar mobaynida nashr etilgan "O'qish kitobi", "O'zbek sovet adabiyoti", "Vatan adabiyoti", "O'zbek adabiyoti" kabi darsliklardagi savol va topshiriqlarni quyidagicha tasniflaydi:

1. Matn mazmunini aniqlashga doir savol va topshiriqlar.
2. Matn qismlari o'rtasidagi ma'no jihatdan bog'liqliknini o'rganishga, matnda bayon etilgan masalalarga muallif nuqtayi nazarini aniqlashga, tilga olingan misollarni tanqidiy baholashga qaratilgan savol va topshiriqlar.
3. Matnni tashqi jihatdan (yuzaki) o'rganishga doir savol-topshiriqlar" [75; 106-b.].

"Adabiyot" darsliklari mazmunini belgilash masalasida yana shuni aytish joizki, ularda adabiyotni ona tili, tarix, musiqa, tasviriy san'at va jug'rofiya predmetlari bilan bog'lab o'rganish, predmetlararo aloqa masalalarini amalga oshirishni ta'minlovchi topshiriq va savollar ham o'z ifodasini topishi talab qilinadi.

Savol va topshiriqlarning matn tagzaminidagi ma'noni anglashdagi ahamiyatini nazarda tutib "O'zbek adabiyoti" darsliklarini qayta ishlashda o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatadigan savol va topshiriqlar tuzishga alohida e'tibor berish zarur deb hisoblaydi va buni amalga oshirish uchun:

- 1) matn mazmunini estetik tarbiyaviy jihatdan o'zlashtirish;
- 2) matnda yoritilgan masalalarga muallif nuqtayi nazarini aniqlash;
- 3) matnda ifodalangan voqeа-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishni o'rganish;
- 4) bir mavzuga yoki bir yozuvchi ijodidagi asarlar o'rtasidagi aloqadorlikni belgilash;
- 5) matnda tilga olingan misollarni, g'oyalarni tanqidiy baholash kabi holatlarni diqqat markazida tutish zarur, deb hisoblaydi [75; 145-b.].

Olim 5-8-sinflar darsliklaridagi savol-topshiriqlarni mazmun mohiyatiga ko'ra to'rt guruhga bo'lib o'rganganligini qayd qiladi:

1. Asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganish va umumiy mazmunini o'zlashtirishga doir savol va topshiriqlar.
2. O'rganiлgan adabiy-nazariy tushunchalarni mustahkmalashga doir savol va topshiriqlar.
3. Adiblarning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga doir savol va topshiriqlar.
4. Asar voqealari misolida o'quvchilarning hayotga munosabatini aniqlashga doir savol va topshiriqlar.

Ishda savol va topshiriqlarning psixologik xususiyatlari haqida ham fikr yuritilib savol va topshiriqlar o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tuzilishi lozimligi aytiladi. Chunonchi, "5-7-sinflar o'quvchilarining hayotiy tajribasi kamligi bois asar voqealarining umumiy yo'naliшigagina qiziqishlari tufayli badiiy matnni o'qish, qayta hikoyalash, yodlash, o'rganilayotgan mavzuga daxldor o'rinnlarni, jumladan asarda tasvirlangan voqeа-hodisalar va qahramonlarga

muallifning shaxsiy munosabatini, bir qahramonning ikkinchi qahramonga bergan bahosini aniqlash, qahramonlarning tashqi portreti, tabiat tasviri va ichki ruhiy dunyosi o'rtasidagi aloqadorlikni belgilashga doir savol va topshiriqlarni tavsiya etish lozim", deb hisoblaydi [75; 145-b.].

Metodist Q. Husanboyeva: "O'qituvchining har qanday savoli, u ritorik bo'ladimi yoki o'quvchilardan bevosita javob talab qiladimi, bolaning aqliy faolligini oshiradi", - deb hisoblaydi [90; 126-b.]. "Ritorik savollar ko'magida o'rganilayotgan o'quv materialining muhim jihatlariga urg'u beriladi. Muhimni yaxshiroq ko'rishga va xayolan avval o'rganilganlar bilan yangi o'zlashtirilayotgan bilimlar orasidagi aloqani tiklashga imkon yaratiladi. Shu tarzda keyingi ma'lumotlarning diqqat bilan chuqurroq o'zlashtirilishiga e'tibor qaratiladi. Ritorik savollar o'quvchilarning aqlini zo'riqtirib, e'tiborini kuchaytiradi, ularni nisbatan kuchliroq aqliy faoliyat – mustaqil fikrlash asosida umumlashmalar qilishga, xulosalar chiqarishga tayyorlaydi. Bu faoliyatning davomi bo'lmish javob talab qilinadigan savollar esa o'quvchini zaruriy faktlarni aniqlab, isbotlab berish bilan birga o'z mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etish ko'nikmasini tarbiyalab boradi", - deydi [90; 129-b.].

Professor S. Matjonovning 5-8-sinflar darsliklaridagi savol-topshiriqlarning mazmun mohiyatiga ko'ra guruhini takomillashtirilib, unga "**o'quvchini mustaqil izlanishga, o'qishga undaydigan savol va topshiriqlar**" ilova qilindi.

Shuningdek, savol va topshiriqlarning shakliga ko'ra turlari ham tavsiya qilinadi. "Agar siz bo'lganizingizda: ...", " bir asar qahramon o'rnida ikkinchi bir asar qahramoni bo'lganda", "...asarning janr xususiyatlarini izohlang", "...ning asarlarini sanang", "... asarlaridagi muallifning o'ziga xos xarakter xususiyatlarini ko'rsating"tarzidagi savol va topshiriqlar muammoli vaziyat yaratadigan, izlanishga undaydigan, nazariy ma'lumotni mustahkamlaydigan, yozuvchi hayoti va ijodining o'ziga xosligini ko'rsatishga doir bir shakl(qolip)dagi savol

va topshiriqlarning muntazam berilishi o'quvchida ko'nikma hosil qiladi. Keyinchalik o'zi mustaqil qahramonlarni taqqoslay boradi. Ko'nikma malakaga aylanadi (4-rasmga qarang).

Savol va topshiriqlarning shakliga ko'ra turlari	
Muammoli vaziyat yaratadigan.	"Agar siz bo'lganingizda: ...".
Izlanishga undaydigan	" bir asar qahramon o'rnida ikkinchi bir asar qahramoni bo'lganda".
Nazariy ma'lumotga doir	"...asarning janr xususiyatlarini izohlang".
Yozuvchi hayoti va ijodiga doir	"...ning asarlarini sanang", "... asarlaridagi muallifning o'ziga xos xarakter xususiyatlarini ko'rsating".

4- rasm. Savol va topshiriqlarning shakliga ko'ra turlari

Q. Husanboyeva adabiyot darslarida o'quvchilarning oldiga murakkab o'quv topshiriqlarini qo'yish tarafdoi. Uningcha: "murakkab o'quv topshiriqlarni qo'yish o'quvchini muvozanatdan chiqaradi. Tafakkuri va xotirasini faol ishlashga undaydi. Savollar bilan o'quvchini murakkab vaziyatga solib qo'yishdan u yoki bu yangilikni kashf etish yoxud topish nazarda tutilganda foydalanish mumkin. O'qituvchining savoliga mustaqil ravishda javob izlab topish jarayonida o'quvchilar ma'lum murakkabliklarni boshdan kechirishadi, bir qadar qiynalishadi. Murakkab vaziyatlarni tashkil etish bilan o'qituvchi o'quvchilar bilimi, fikriy faolligini oshiradi, hodisaning chuqur o'zlashtirilishiga ko'maklashadi, ularning tajribasini boyitadi, murakkab masalalarning yechimiga mustaqil ravishda erishishga yordamlashadi. Bunday favqulodda ta'limiy vaziyat yaratish, ya'ni savol bilan bolani hayratga solish o'quvchida mavjud avvalgi tasavvurlariga qarama-qarshi bo'lganidan unda

kuchli hissiyot uyg'otadi. Hayrat esa tushunishning boshlanishi va bilishga olib boradigan yo'ldir" [90; 130-b.].

Bundan anglashiladiki, darsliklarda o'rganish uchun taqdim etilgan badiiy asarlarda tasvirlangan murakkab, chigal vaziyatlarning yechimini savol-topshiriqlar ko'magida o'quvchilarning o'zlarining zimmalariga yuklash ular kamolotining garovidir. R. Niyozmetovaning doktorlik disser-tatsiyasida "O'zbek tili" darsliklarining metodik strukturasida adabiy materiallarni asosan ilmiy maqola tipidagi o'quv matnlarini o'qish bilan bog'liq metodika asosida o'rganish joriy etilgan, savol va topshiriqlar ham shunga qaratilgan. Bular adabiy o'qishdan yiroqdir.

Savol va topshiriqlarga ham to'xtalgan olim ularni: "topshiriq, ijodiy muammoli savol, asar ustida mustaqil, maqsad sari izlanish yo'lidagi faoliyat xarakterini belgilaydigan ochqich", - deb ta'riflaydi [77; 52-b.]. Matnga nisbatan joylashishiga ko'ra savol va topshiriqlarni ikki turga ajratadi: 1. Adabiy matnni o'qishgacha bo'lgan davrda beriladigan topshiriqlar; 2. Adabiy ta'lim bilan tanishib bo'lingandan keyin beriladigan savol va topshiriqlar. Ilmiy ishning maqsadi rus guruhlarida o'zbek adabiyotini o'rganishdan iborat bo'lganligi uchun muallif savol va topshiriqlar o'zbek tilidagi muloqotning qulay kechishi uchun mos nutqiy vaziyat yaratishi darkor degan xulosani beradi. R. Niyozmetova savol va topshiriqlarni bajarish usuliga ko'ra uch xil tayyorlashni ko'zda tutadi: 1. Sinfdagagi barcha o'quvchilar uchun mo'ljallangan savol va topshiriqlar. 2. Guruhga mo'ljallangan savol va topshiriqlar. 3. Yakka o'quvchiga mo'ljallangan savol va topshiriqlar" [77; 54-b.]. Prof. R. Niyozmetovaning taklifida ilgari surilgan fikriga ya'ni savol va topshiriqlarning mazkur uchta guruhiga "Adabiyot" darsliklarining didaktik qismi bo'lgan savol va topshiriqlarni tuzishda asoslanish mumkin.

H. M. Suyunov nomzodlik ishida o'quvchilarning darslik va darslik-majmualarda berilgan o'quv materialini to'laroq o'zlashtirishlari uchun beriladigan savol-topshiriqlarni quyi

va yuqori sinflarda turlicha bo'lishini ta'kidlab: "quyi sinflarda badiiy syujet, kompozitsiya, konflikt, adabiy qahramon kabi adabiy-nazariy tushunchalar bilan bog'liq asar mazmunini qayta hikoyalashga doir savol-topshiriqlardan foydalanilsa, yuqori sinflarda referat, insho, ma'ruza matni, taqriz kabi mustaqil ish turlarining sarlavhasigacha ko'tarilgan savol-topshiriqlar muhim o'rinni tutadi", - deydi [82; 96-b.].

E'tiborlisi shundaki, bugungi adabiy ta'lim metodikasi ilmida ham, "Adabiy ta'lim davlat standarti"da ham nafaqat quyi sinflarda, balki yuqori sinflar adabiy ta'limida ham "badiiy syujet", "kompozitsiya", "konflikt" singari nazariy tushunchalarni bilish talab qilinmaydi. Umuman, "Adabiyot" darsliklarida yozuvchi yoki shoirning tarjimayi holi, asarlar va ularning mazmun-mohiyati va janrlarini o'rganishga doir tuzilgan savol va topshiriqlar shunday tayyorlanishi kerakki, ularga javob berishda o'quvchi matndan jumlalar o'qib berish bilan cheklanmasin. U savolga javobni o'z so'zi bilan ifodalashga "majbur bo'lsin". Matn mazmunini qayta hikoya qilish bilan cheklanmasin. Matndagi hodisalarga o'z munosabatini bildirsin. Savollarga javob berishdan oldin o'quvchi matnga qayta-qayta murojaat qilsin, xayolan muhokama qilsin, fikrlasin. Qahramonning o'rniga o'zini qo'yib ko'rsin. Uni o'zi va o'rtoqlari bilan taqqoslasin. Tuzilgan savollar ko'p jihatdan badiiy matndagi jozibani ochishda o'quvchiga yordam bersin. Savol va topshiriqlar zamirida o'quvchini tekshirish, uni baholash maqsadigina emas, balki uni badiiy matnni kashf qilish, asar ustida ishslash, matndan olgan badiiy zavqni, jozibani o'z so'zi bilan ifodalash, asar yuzasidan fikr bildirishga, mustaqil izlanishga o'rgatish ekanligi e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ana shunda matnlar yuzasidan tuzilgan savol va topshiriqlar adabiyot o'qitishdan qo'yilgan maqsadga xizmat qilgan bo'ladi. 5-7-sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlarining tadqiqi ularda qiyoslashga moyillikkuchli bo'lishini ko'rsatdi. Shu sababli o'quvchini asar qahramoni bilan yoki ikki asar qahramonlarini

solishtirishga doir savol va topshiriqlar tuzishga e'tibor berish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda "Adabiyot" darsliklarini yaratishda muammo bo'lib turgan masalalardan biri darsliklarning hajmi masalasidir. Bu borada Professor Q. Yo'ldoshev "Yoshlik" jurnalining muxbiri savollariga bergen javoblarida darsliklarning hajmi haqida gapirib shunday deydi: "...Adabiyot shu darajaga yetganki, adabiyot haftasiga uch soatdan o'qitiladigan to'qqizinchi sinf "Adabiyot" darsligining hajmi adabiyot predmeti haftasiga ikki soat o'qitiladigan sakkizinchi, yettinchi, oltinchi, boringki, hatto, beshinchi sinf darsligidan ham kichik. Butun jamiyat ma'naviyat uchun kurashish hayot-mamot masalasi ekanini tan olib turgan bir pallada bitiruvchi sinf o'quvchilari adabiyotdan mahrum etilayotir... To'qqizinchi sinfdagi o'spirinlarga beshinchi sinf o'smirlaridan kamroq yuk ko'tarish belgilangan bunday mantiqsiz normani bartaraf qiladigan biror odam yo'q" [20; 148-b.].

Hamonki darsliklarning hajmini cheklash shart ekan, adabiy ta'limda shu sababli paydo bo'lishi mumkin bo'lgan bo'shliqlarni alohida "yo'ldosh-darslik"lar bilan qoplash mumkin. Asosiy darslikka qo'shimcha ravishda tuzilgan bunday darsliklarda ham xuddi "Adabiyot" darsliklaridagidek ruknlar, darslikdan o'rin olgan asarlarning kengroq namunasi, o'sha adiblarning boshqa asarlardan namunalar, dasturda mustaqil o'qishga tavsiya etilgan badiiy asarlar, har mavzudan keyin o'quvchi bilimini tekshiruvchi savol va topshiriqlar, testlar, tasviriy san'at namunalari keng miqyosda taqdim etilishi mumkin.

Bularidan tashqari, davlat ta'lim standartlari ham mavjud. Xususan, adabiy ta'lim bo'yicha davlat standartida o'quvchilar bilimining minimal chegarasi belgilangan, ya'ni davlat adabiyot darslarida berilgan bilimlarning o'rtachasiga da'vogarlik qiladi. Adabiyot darslarida o'rtacha bilimga ega bo'lgan o'quvchi DTS talablariga javob bera oladi. Bilimi bu talablardan yuqori bo'lgan, ya'ni dasturda tavsiya etilgan bilimlarni to'liq egallagan, ba'zan

undan yuqoriroq darajalarga erishgan o'quvchilar, albatta adabiyot olamining kelajagi bo'ladi. Bu o'quvchidan ham, u bilan shug'ullanadigan o'qituvchidan ham katta qo'shimcha mehnatni talab qiladi.

Maktablarda adabiyot o'qitishda samaradorlikni ta'minlab beruvchi asosiy kuch o'qituvchi shaxsidir. Ta'limda o'quv rejasi qanchalar mukammal va tugal tuzilmasin, dastur va darsliklar ko'p qirrali, o'rganishga tavsiya etilgan asarlar ta'sirchan, badiiy jozibasi qanchalar kuchli bo'lmasin, o'quvchiga to'g'ri yetkazilmasa, tarbiyalanuvchi ma'naviyatiga ta'sir ko'rsata olmasa, ularning hammasi qog'ozlarda besamar qolib ketaveradi. Yaratilgan didaktik vositalarning ta'sir qudrati o'qituvchining shaxsi, uning dunyoqarashi va mehnati orqaligina o'quvchiga yetib boradi. Adabiyot o'qituvchisi mohir ijrochi bo'lishi shart. Mohir ijrochi uchun esa sifatli o'quv materiali talab etiladi. "O'qituvchining badiiy matnni o'qish jarayoni unga o'qitishning usullarini belgilab beradi", - deydi V. A. Kan-Kalik va V. I. Xazan [49; 148-b.].

Maktabda adabiyot o'qitish mazmunini belgilovchi omillardan yana biri qo'llanmalardir. "Metodik qo'llanmalar o'quv fani yoki uning bir qismini o'qitish yoki tarbiyalash metodikasiga oid materiallardan iborat o'quv kitobi bo'lib, u o'qituvchilar uchun yoziladi" [39; 4-b.].

Maktabda adabiyotni bugungi talablar asosida o'qitish bo'yicha metodik qo'llanmalar, kam bo'lsada mavjud. Ya'ni "Adabiyot" darsliklarining yangi avlodini yaratishni metodik qo'llanmalari bilan bирgalikda yaxlit – o'quv-metodik majmua (О'ММ) shaklida yaratish talab qilindi. Ularning mazmun-mohiyati boshqa masala. Ulardan tashqari, kichik-kichik tavsiyalar ham mavjud. Davriy matbuotda, xususan, "Til va adabiyot ta'limi" jurnalida chop etilayotgan metodik maqolalar ko'pchilikni tashkil etadi va ular mazmun-mohiyati bilan darsliklarga esh yaratilgan "O'qituvchi kitob"lariga muqobililik ham qiladi.

Yaqin o'tmishda darslikka kiritilgan biror yozuvchi yoki shoir shaxsini, ijodini o'rganish uchun qo'shimcha materiallar, ularning qaysi jihatlarini qanday o'rganish, qanday xususiyatlarini ochib berish, asarni qanday o'rgansa, ta'sir kuchi, samarasi yuksak bo'lishi asosli qilib ochib belgilab qator qo'llanmalar bor edi. Bugun ularning ko'pchiligiga asoslanish mumkin emas, albatta. Chunki adabiy ta'limning u davrdagi maqsad va vazifalari bilan bugungisi o'rtasida katta tafovut bor. Shu ma'noda, darsliklardan o'rinni olgan asarlarni o'rganishning turlicha usullarini tavsiya etadigan har xil metodik qo'llanmalar yaratish, o'qituvchilarga o'qitish usullaridan tanlab foydalanishga imkon yaratuvchi qo'llanmalar yaratish davr talabidir.

O'QUV MATERIALI SIFATIDA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIY ASARLAR BILAN ISHLASH YO'LLARI

Kuzatishlardan ma'lum bo'lmoqdagi, badiiy asarlarni o'rganish faqat an'anaviy tarzda tashkil etilsa, badiiy asar mutolaasiga oliy o'quv yurtiga kirish testi asosida yondashiladi. Bu darsdan kutilgan ta'limiylar va tarbiyaviy maqsad natijasini yo'qqa chiqarishi, o'quvchining shaxslik sifatlari, dunyoqarashi va ma'naviyatida kemtiklik hosil qilishi mumkin. Adabiyot darslari oldiga qo'yilgan pedagogik vazifalarning bajarilishidagi vositalar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Adabiy materialning mazmuni.
2. O'quv materialini o'rganish usullari.
3. O'qitishning texnik vositalari.
4. O'quvchilar faoliyatini tashkil etish.
5. O'qituvchi shaxsi.

Adabiyot o'qitish jarayonida o'quvchiga shaxs sifatida qaralishi, dars uchun, mavzu uchun mos metod tanlay bilish, mashg'ulotda o'quvchilarni faollikka undaydi, ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish mas'uliyatni sezish, tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlardan unumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, kitob mutolasiga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish o'quv jarayonida interfaol metodlarni qo'llashni taqozo etadi. Interfaol metodlar xilma-xil bo'lib, o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, o'zaro hamkorlikka asoslangan Venn diagrammasi, Bumerang, "FSMU", "CASE STUDE". Ular haqida metodik adabiyotlarda yetarlicha ma'lumotlar berilgan [61]. Nisbatan kam qo'llaniladigan, lekin badiiy asarni o'rganishda samarasini katta bo'lishi tajribalarda ko'ringan bir nechta metodlar tavsiya qilinadi.

O'quv jarayonini tashkil etish uchun havola etilgan texnologiya va interaktiv metodlarni xuddi shu tartibda, o'tkazishlari shart emas, har qaysi o'qituvchi bu tavsiyalarni umumiy shaklini olgan holda o'zlarining dars texnologiyalarini yaratishlari, berilgan texnologiya va interaktiv metodlarni to'liq yoki ularning ba'zi bir bosqichlari, elementlarini ishlatalishlari mumkin.

"Adabiyot" darsliklarida taqdim etiladigan o'quv materiallari mazmuni, ularni tanlashga qo'yiladigan psixologik, pedagogik va metodik talablar haqida yuqorida batafsil so'z yuritildi. Adabiy ta'lim amaliyotida muomala odobiga rioya qilgan holda o'quvchilar bilan hamkorlikda ishlay oladigan, ya'ni kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradigan, o'quv materiali bilan ishslashning aynan ijodiy fikrlashga yo'natirilgan usullari haqida gapirib shuni aytish mumkinki, o'quv materiallarini o'rganishda qo'l keladigan usullardan biri "Mozaika" deb ataladi. Unda asar matni bir necha qismlarga bo'lib chiqiladi va o'quvchilarga tarqatiladi. Agar badiiy matn kattaroq bo'lsa, bo'lingan qismlar soni ham shunga muvofiq ko'paytiriladi. Matnni qismlarga bo'lishda asar voqealarining yaxlitligiga iloji boricha putur yetkazmaslik, voqealar tasviridagi ketma-ketlikka e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Bo'lingan qismlar o'quvchilarga tarqatiladi. Birinchi bo'lak o'qituvchi tomonidan o'qilishi mumkin, keyingi bo'lak kimda ekanligini faqat o'qituvchi biladi. O'quvchilar esa syujet tuzilishi, voqealar rivojiga qarab o'zining qo'lidagi matn navbatdagi parcha ekanligini aniqlashi va o'qib berishi kerak bo'ladi. Agar o'quvchilar matnning davomini topishga qiynalishsa, o'qituvchi yo'nalish berib yuborishi mumkin. Lekin kim o'qishini aytib berish mumkin emas. Bu o'quvchining mashg'ulotga qiziqishini so'ndirib qo'yishi mumkin. Adabiyot nazariyasidan xabardor, kitobxonlik borasida ma'lum tajribaga ega bo'lgan o'quvchi asar voqealari oqimining yo'nalishini topishi qiyin bo'lmaydi.

O'quvchilarda turli manbalardan tegishli axborotlarni izlaydigan, ma'lumotlarni saqlash, uzatish, axborot bilan ishslash kompetentliligini rivojdantirish maqsadida ularni izlanishga undash, ma'lumotlarni umumlashtirish orqali yozuvchi mahoratini kashf etish, kitobxonning estetik didini o'stirish, san'at asarini farqlash, tanlab o'qish malakasini hosil qilishda badiiy asardan qahramon tabiatini ochadigan o'rnlarni topa bilishga yo'naltirish lozim bo'ladi. Inson xarakteri uning so'zlarida, xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. O'quvchi sezib-sezmagan o'rnlarni muammo sifatida qo'yib, muallif nima uchun bunday yo'l tutganligini izohlashni topshiriq sifatida qo'yish mashg'ulotni munozarali tarzda o'tishga sabab bo'ladi. Voqealar rivoji keskinlashadigan, hajmi kichik badiiy asarlarga tavsiya qilinadi. Masalan: 5-sinfda "Susanbil" ertagi, Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasi; 6-sinfda Said Ahmadning "Sobiq", O'tkir Hoshimovning "Urushning so'ngi qurbanoni"; 7-sinfda Abdulla Qahhorning "O'g'ri", "Dahshat" hikoyalarini shu usuldan foydalaniib o'rganish yaxshi samara beradi.

Bugungi rivojlangan dunyoda axborot asosiy tovar ekani, uning inson taraqqiyotida yetakchi omil sifatida ko'rileyotgani, kelajakda texnika har qanday vazifalarni bajarishda ustuvorlik qilishi ayon bo'lib bormoqda. Lekin tasavvur olami boy, mushohada ko'lami keng inson o'rnini hech narsa egallay olmaydi. Badiiy asar tahlilida, qahramonlar tabiatini ochishda savol va topshiriqlarni turli ko'rinishda, o'quvchi o'rganmagan, kutmagan, odatlanmagan tarzda bo'lishi o'quvchida axborotlar bilan ishslash kompetensiyasini shakllantirishga olib keladi. Muammolar mohiyatini bilish, bilimlarini kutilmagan sharoitlarda qo'llay olish, vaziyatga atroflicha baho berishga ko'nikib boradi. O'quvchida kompetentlilikni -hosil qiluvchi "Psixologiktashxis" usuli o'quvchida bilimlarini tinimsiz yangilab borishni, bu bilimlarni kutilmagan sharoitlarda qo'llashga tayyorlaydi. Mashg'ulotda gap qaysi asar va qaysi qahramon

haqida ketayotganligini ochiq berilmay, uni topish o'quvchining o'ziga havola etiladi. Yozuvchi o'z asarida mohirlik bilan bergen o'rirlarni o'quvchiga bildirib, gap qaysi asar va qaysi qahramon haqida ekanligini, qahramonning yana qanday gap-so'zlari, xatti-harakatlari undagi insoniy fazilatlarni namoyon etishiga misollar topish so'raladi. Bu bilan o'quvchi o'z ustida mustaqil ishlaydi, bilim olishga intiladi, jismoniy, intellektual rivojlanadi, o'z-o'zini boshqaradi, yangiliklardan xabardor bo'ladi, ulardan kundalik hayotda foydalana olishga intiladi. Undagi o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi shakllanadi. Masalan, o'quvchilarga "Qaysi asar qahramoni o'z davrining yirik ta'lim maskanida ta'lim olib kelib, hamkasblari tomonidan "Rahmat, o'g'lim, rahmat. Seni tuqqan onangga va o'qitgan ustozingga rahmat"- degan olqish eshitgan?" savol beriladi. Tabiiyki, o'quvchi faqat ijobiy qahramonlar orasidan izlay boshlaydi.

O'quvchilarda salbiy taassurot qoldirgan Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani qahramoni mulla Abdurahmon haqidagi ta'rif o'quvchida asarga sinchkovlik bilan nazar tashlashga undaydi. Asar qahramonlariga turli tomondan baho bera oladigan bo'lib boradi. Keltirilgan dalilarga asoslangan holda, o'z bilimi, ko'nikmasi, malakasini qo'llab, savolning chalg'ituvchi jihatlariga "ilinib" qolmaslikka o'rgatadi.

"U qo'rmas, qarshisidagi o'n, yuz raqibiga bas kela oladi. Rejalarini ustalik bilan tuzadi. Makoni juda so'lim, daraxtzor, gulzor. Muhabbat tufayli necha-necha kishiga omonlik beradi. Ta'rif qaysi qahramon haqida?" "Sab'ai sayyor" dostoni qahramoni Jobirga tegishli bo'lgan ta'rif o'quvchiga axborot bilan ishslashda faqat ko'rinish, ayon bo'lib turganlar bilan kifoyalanib qolmaslikni bilimlarni kutilmagan sharoitlarda qo'llash uchun eng keyingi axboratlardan xabardorlikni, bilimlarning tezkor, harakatchan va to'xtovsiz boyitib borilishini taqozo etishini anglatib boradi va o'zida rivojlantira boradi. Bu sifatlar esa kelajakda kompetentli shaxsga o'z sohasi bo'yicha xolis va to'g'ri

mulohaza yuritish hamda kerakli qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Mustaqil mulohaza yuritish, kishilarni baholash ko'nikmalari shakllanadi.

O'quvchi bilimlari ko'laminani aniqlashtirishda "Ha va yo'q" usulidan foydalanish mumkin. Unga ko'ra o'quvchilar o'qituvchi bilan savol-javob qiladilar va bu bilan ham o'quvchi bilimi baholanadi. "Ha va yo'q" usulida savolni to'g'ri qo'yish va bu orqali to'g'ri va mukammal javobni topish mumkin. Bu usulda savollarga o'qituvchi tomonidan izoh berib boriladi. Darslarda bu usuldan muntazam foydalanish asnosida asta-sekinlik bilan keyinchalik bu usulni o'qituvchi ishtirokisiz o'quvchilar o'zaro qo'llashlari ham mumkin bo'ladi va bu, o'qituvchiga bir vaqtining o'zida bir necha o'quvchi bilimini nazorat qilish, baholash imkonini beradi.

Metodik o'yin shartiga ko'ra ishtirokchi o'zi ishonch hosil qilmaguncha savolning javobini (asar nomi yoki muallifning ismini) aytmasligi lozim. Agar noto'g'ri javob berib qo'yilsa, o'quvchi javobni bilmagan hisoblanadi va qoniqarsiz baholanishi mumkin. Shu bois savol javobini aniqlash uchun savol beruvchiga aniqlashtiruvchi savollar beriladi. O'quvchi o'zi berayotgan savollari bilan bilim bazasining nechog'li boy ekanligini ko'rsatishi barobarida o'zlashtirganlarini takrorlaydi, mustahkamlaydi. Mushohada qobiliyati tarbiyalanadi. Jarayonda dastlabki savol bergen o'quvchi ham darsda olgan bilimlarini namoyish eta boradi. Badiiy asar matnini sinchkovlik bilan o'qishga, muallif qahramon tilidan berayotgan haqiqatlarga, badiiy tasvir vositalariga sinchkovlik bilan qarashga odatlana boradi. Bu usuldan o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltirish maqsadida foydalanish mumkin. Asrlardagi o'zlariga yoqqan, boshqa asarlarda uchramaydigai o'xshatishlar, iboralar topib kelishni topshirish va ular asosida "Ha va yo'q" usulidan bo'limlarni sinflararo takrorlash maqsadida foydalanish mumkin (5-rasmga qarang).

O'quvchi izlanishi	Savol: «Qaysi asarda osmon kir uvadaga o'xshatiladi?» Savol bergen o'quvchi izohi	Bizning izoh
1. Asar mumtoz adabiyotga tegishlimi?	1. Yo'q.	1. O'quvchi endi zamonaviy janrlarni ajratishi lozim
2. Asar nasrda yaratilganmi?	2. Ha	2. Keyingi savollarida nasriy asarlardan so'rashi lozim bo'ladi
3. Hikoya janrdami?	3. Ha	3. Keyingi savollarida qaysi asarlar hikoya ekanligini bilishi lozim
4. Muallifning tarixiy mavzuda romanlari bormi?	4. Yo'q	4. O'quvchi O. Yoqubov nazarda tutilganini bilishi lozim.
5. Birinchi hikoyasi bilan yil tanlovida g'olib bo'lganmi?	5. Yo'q	5. O'. Umarbekov nazarda tutildi
6. Adibning «Sarob» nomli romani bormi?	6. Ha	6. Dastlabki savol bergen o'quvchi «Sarob» muallifi Qahhor ekanligini bilishi lozim
7. Asarda ho'kiz yo'qoladimi?	7. Yo'q	7. «O'g'ri» hikoyasi nazarda tutildi
8. Asar qahramonlardan biri bemormi?	8. Yo'q	8. «Bemor» hikoyasi nazarda tutildi
9. Qabriston tasviri bormi?	9. Ha	9. «Dahshat» hikoyasiga ishora qilindi
10. «Dahshat» hikoyasi	10. Ha	10. Javob topildi. Shu savolni bergen o'quvchi asarning qaysi o'rnida yozuvchi yuqoridagi tasvirdan foydalanganini aytadi.

5-rasm. “Ha va yo'q” usuli modeli

Savol-javobda ham bilimini mustahkamlanishi lozim bo'lgan jihatlari ma'lum bo'ladi. Keyingi mashg'ulotlarda o'qituvchi aynan shunga e'tiborini qaratishi mumkin bo'ladi.

Lirik asarlarni o'rganishda shoir mahoratini o'quvchi tasavvurida yorqinroq aks ettirish uchun "Shoir ijodxonasi" deb shartli nomlangan didaktik materiallardan foydalanish mumkin. Nasriy va she'riy asarlardagi so'zlarning o'z va ko'chma ma'nosini farqlab, asar namunalarini ifodali o'qib va mazmun-mohiyatini tushunib, munosabat bildirishni, ya'ni o'quvchida adabiy-nutqiylari badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantiridigan topshiriq sifatida tavsija etiladi. O'quvchi javob izlash bilan asardagi tasviriy vositalar, insoniy his-tuyg'ular xususida fikr yuritadi.

Buni Zulfiya, Mirtemir ijodi misolida ko'rib chiqaylik:

1. Bir qardosh tinchisiz – o'zga beoram

Birining nonisiz – o'zga emas to'q.

Topshiriq: "Misralar qaysi she'r dan olingan? Qaysi she'rga qo'shasiz? Fikringizni asoslang".

2. Har bir navda bir gulda, har bir gulda bir ro'y,

Har bir daraxt bargi bir dunyo hikoya,

Har birin hosilin o'zgasiga ko'rk,

Biri biri uchun qudrat,-----

Topshiriq: "Misrani to'ldiring va to'rtlikni nomlang. Shoirniki bilan taqqoslang".

3. Chechaklarning bag'rida

Yaltirar lak-lak inju

Sho'x soy qirg'oqlarida,

Nihollar kurtagida,

Sal erkinda simobday

Qaltirar lak-lak inju.

Inju nima toping?

4. Qishlog'im, tag'in ham suluvsan bugun


Tag'in g'am suyuksan, mening ardoqlim.

Nechog'liq to'kissan, nechog'li to'kin,

Dunyo turguncha tur,-----


Topshiriq: "Parcha qaysi she'r dan olinganligini aniqlang. Misrani to'ldiring (qo'li qadog'im, mehri daryoyim, yuzi nurligim)".

5. U- o't, u -sut, u- qut. Nima u? Qaysi she'rda ta'riflangan?
 7-sinf o'quvchilarini faoliyatga undaydigan asosiy
 vositalardan biri qiziqish xususiyatidan foydalaniib, Chingiz
 Aytmatovning "Oq kema" asarini "Idrok xaritasi" yordamida
 o'rganilishi mumkin (6-rasmga qarang).



6-rasm. "Oq kema" asarining idrok xaritasi

“Idrok xaritasi”da izohlarni tayyor holda berib, asar o’qilishida foydalanish yoki izohlar o’rnini ochiq qoldirib, o’quvchilardan uni to’ldirishni so’rash mumkin. Bu sinfdagi umumiyl holatdan, o’quvchilarning tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib tanlanadi. O’quvchi yuqoridagi kabi topshiriqlarni mustaqil bajarishi natijasida o’z ustida mustaqil ishlaydi, bilim olishga intilish kuchayadi, intellektual rivojlanadi, xatti-harakatini baholaydi, o’z-o’zini boshqaradi, ya’ni unda o’z-o’zini rivojlantirish kompetentligi shakllana boradi. Bu jarayonni quyidagi (7-rasmga qarang) rasm orqali ko’rsatib berish mumkin:



7-rasm. O’quv materialidan foydalanishda tayanch va xususiy kompetensiyalar uyg’unligi

Adabiyot darslari qanday saviyada tashkil etilishga qaramasdan har bir mashg'ulotda, badiiy matnni o'rganishda an'anaviy tarzdamni yoki interfaol usullardan foydalanibmi, albatta, o'quv tahliliga tayaniladi. O'quv tahlili "badiiy asarni to'g'ri izohlash malakasini qaror toptirish bilan bilan birga ularda ezgu axloqiy sifatlarni shakllantiradi"[46; 166-b.]. Shuningdek, adabiyot darslarida faqat o'quv tahliliga kompetenlilikni hosil qiladi. Adabiyot faniga oid xususiy kompetensiya: badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy kompetensiya kabi tayanch kompetensiyalarni hosil qila oladi. Xuddi soat muruvatiga o'xshab, badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi tayanch kompetensiyalarni harakatga keltirib, kompetenlilikka ega shaxsni tarbiyalaydi. Shu tariqa tayanch va xususiy kompetensiyalar bir butun uyg'unlikda o'quv jarayonining samaradorligini kafolatlaydi, o'quv mashg'ulotidan ko'zlangan tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning bajarilishini ta'minlaydi.

DARSDAGI JARAYON

O'quv materialining o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqib taqdim etish va o'rganishni tashkil etishning samaradorligini isbotlash maqsadida tajriba o'tkazilgan sinflarda bir necha yil mobaynida darslar olib borildi. Dastlab, takomillashtirilgan o'quv materiallari tizimini ishslashda 5–7-sinf o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini belgilab beruvchi mezonlarni aniqlab oldik: badiiy matnga, ulardagi qahramonlar xatti-harakatiga ijodiy yondashish, tahlil jarayonida mustaqil izlanish, fikrlarning originalligi; matnni sharhlashda yozuvchi hayoti va ijodiga oid ma'lumotlardan foydalana bilish; og'zaki va yozma nutqda adabiyot nazariyasiga oid ma'lumotlarni qo'llay bilish.

O'rganilayotgan o'quv materialiga asoslangan holda savol va topshiriqlarga javob berish, badiiy matn bilan ishslash darjasи: o'quv materialini sinchkovlik bilan o'rganganligi, shaxsiy munosabat bildira olishi. O'quvchining mustaqil ishlashi, fikr bildirishga moyilligini kuchaytirish, har qanday fikrni aynan haqiqat deb qabul qilmasligiga erishishga alohida e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida ko'pchilik o'quvchilarning faol, lekin bir qolipdagi, quyma fikrlarni qaytarishlari kuzatildi, lekin noodatiy fikr bildirganlar, shunchaki tashlagan luqmalar ham o'ziga xos xulosalar chiqarishga sabab bo'lishi ma'lum bo'ldi. O'quvchilarning fikrlar xilma-xilligini, o'zgalar qarashlarini hurmat qilishga, o'z taassurotlarini istiholasiz bildirishlariga erishildi. Interfaol metodlardan munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozalar o'tkazishda samarali hisoblangan, o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va qarashlarini boshqalarga o'tkazishga yo'naltirilgan "FSMU" metodi, bir-biri bilan muloqot qilishning kommunikatsion holatlarini shakllantiradigan "Keys stadi" metodi, o'z mustaqil fikrlarini ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirish, ri-

vojlantirish hamda o'qituvchiga o'zi tomonidan o'quvchilarga o'quv materialini yetkazishda qaysi jihatlarga ko'proq e'tibor berishi xususida fikrlash imkonini beradigan "ESSE" metodlari qo'llanildi.

"Adabiyot" darslari uchun o'quv materiallari tanlashning psixologik, didaktik va metodik muammolarini o'rganish o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlarni o'rganishdan boshlandi. Gumanitar fanlar sirasiga kiradigan adabiyot darslarida bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinsagina, unga ijobiy ta'sir ko'rsata olish mumkin. Tajriba-sinov ishlarida so'rovnama, kuzatuv, suhbat kabi metodlardan ham foydalanildi. Didaktik vositalar bo'yicha o'smirlarning munosabatlari o'rganilar ekan, ularning psixologik xususiyatlari ham tadqiq etib borildi. Bolalar bilan o'tkazilgan so'rovnama asosida ulardan olingan javoblarni tahlil qilish jarayonida yosh davri bilan bog'liq psixik holatlar bo'rtib ko'zga tashlanishi kuzatildi. Xususan, so'rovnomada berilgan: "O'quv materiallarida badiiy asarlar mazmuni yuzasidan tasviriy san'at namunalari o'rinni olishini istarmidingiz? Nima uchun? Fikringizni asoslang." so'roviga 5-, 6-sinf o'quvchilarining barchasi tasviriy san'at asarlari ko'p berilishini istashlarini bildirganlar. Nima uchunligini asoslashda esa aksariyati qiziqish hosil qilishini bildirganlar. Shuningdek, "U bizga badiiy asarlardan yanada ko'proq taassurot olishimizga yordam beradi", "rang-barang bo'ladi, ochganingizda bahri-dilingiz ochiladi", "darslik go'zallahadi", "badiiy asarlarni yanada yorqinroq qiladi", "rasmlar bo'lsa, ko'z oldimizga tezroq keladi va tezroq tushunamiz", "rasmlarga qarab qahramonlarni xayolimda emas, rostdan ham ko'rganday bo'laman", "o'qigan odamning xayolida yaxshi saqlanib qoladi", "o'quvchini bevosita fikrlashga va asarni o'qishga undaydi", degan munosabatlar ham talaygina.

Ishda har bir sinf o'quvchisining psixologik jihatlariga alohida to'xtalingan. Xususan, 5-sinf o'quvchilarini faoliyatga

undaydigan asosiy vositalardan biri qiziqish ekani haqida yuqorida aytilgan. Kichik o'smir yoshidagi, ya'ni o'smirlikning dastlabki bosqichidagi o'quvchilarni jonlashtirish, uyg'otish, faollashtirish oson. U darsda zerikishi, uy vazifasini bajarishga rag'bati bo'lmasligi mumkin, lekin qiziqish doirasi juda keng bo'ladi. Hamkorlikda qilinadigan faoliyatga alohida moyillik ko'rsatadi. Bu yoshdagi o'quvchini beriladigan topshiriqqa qiziqtirilmasa, bolani uni bajarishga majbur etib bo'lmaydi. Shuningdek, yirik asarlardan parchalar berishda vaziyatga jiddiy yondashish talab qilinadi. Parchalar badiiy asar haqidagi umumi tasavvurni bera olishi, badiiy asarni to'liq o'qib chiqqanda oladigan badiiy zavq, shirani o'quvchiga yuqtira olishi, yozuvchini asardan ko'zlagan g'oyasi, bosh maqsadi ayon bo'lishi lozimligi ham ilmiy ishimizda o'rganildi. Badiiy asarlarni qisqartirishda o'quvchilarning psixologik jihatlarini hisobga olish, mashg'ulotlarda qiziqishni bir maromda ushlab turishga va dars samaradorligini oshirishda yordam berishi Fransuz yozuvchisi Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asari misolida o'rganildi. Yozuvchining bu ertagini suratlarsiz o'qish va tasavvur etish qiyin. Shuning uchun asar shu davrgacha qaysi mamlakatlarda necha marotaba bositgan bo'lsa ham, faqat ana shu suratlar bilan beriladi. Chunki yozuvchi ham kichiklar, ham kattalar uchun yozilgan bu ertakni barcha tushunib yetishini istagan va o'zi unga suratlar ishlagan. Bu haqda tadqiqot olib borgan A. Qosimov: "bu suratlar yozuvchi hikoyasiga sharh berish vazifasidan tashqari, so'zda ifodalab bo'lmaydigan noziklik, soddaliklarni ham kitobxonga yetkazib berganki, bu jahon adabiyotida juda kam uchraydigan uslub hisoblanadi" deya izoh beradi" [89; 126-b.].

Demak, bugungi o'quvchi "Kichkina shahzoda" asari orqali yozuvchi aytmoqchi bo'lgan gapni suratlar orqali uqadi. San'atning har bir turi qaysidir darajada bir vaqtda, uyg'un holda insonning ichki dunyosi (xususan hissiyotlari, intellekti,

tafakkuri)ga o'zgarish, yangilanish olib keladi. Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" asarini o'rganishda undagi suratlardan samarali foydalanish zarur. Anketa savollariga olingan javoblar tahlili ham 5-sinf o'quvchisini darslikdagi surat qiziqtirishi, e'tiborini tortishi kuzatildi. Tajriba-sinov sinflarida asarga ishlangan suratlardan kelib chiqib tayyorlangan savol va topshiriqlar o'quvchilar e'tiboriga havola etildi. Shunda o'quvchilarning badiiy asarga bo'lgan munosabatlari ijobjiy tomonga o'sgani, asarni o'rganishda faolliklari oshganligi kuzatildi. A'lo baho olgan o'quvchilar 26.7%ni, yaxshi baholanganlar 51.3%ni, qoniqarli baholanganlar 22.0%ni tashkil etdi. Nazorat sinflarida muallif suratisiz tashkil etilgan mashg'ulotda a'lo o'zlashtirgan o'quvchilar 19.3%ni, yaxshi o'zlashtirganlar 44%, qoniqarli o'zlashtirganlar 36.7%ni tashkil etdi. Demak, 5-sinf "Adabiyot" darsligida tasviriy san'atdan unumli foydalanish va badiiy asarlarni qisqartirib berishda, savol va topshiriqlarda kichik o'smir yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish o'zlashtirish samaradorligini oshirishda yordam beradi.

7-sinf o'quvchilarining aksariyati ham o'quv materialida tasviriy san'at asarlarining berilishini xohlashgan javoblarini "asar haqidagi tasavvurni boyitadi" deb izohlashgan, lekin ulardan ba'zilari "shart emas" deb hisoblashadi. Masalan, 7-sinf o'quvchisi: "Chunki 7-sinfda kitob o'qiganimizda asar qahramonlari ko'z oldimizda gavdalanadi, 5-sinf o'quvchilari uchun qilsa bo'ladi" deb fikr bildirsa, yana bir o'quvchisi: "o'quvchi taassuroti rivojlanishi uchun asarlarda rasmlar bo'lishini xohlayman. Lekin biz katta bo'lganimiz sari asarlardagi qahramonlarni o'zimiz tasavvur eta olishga o'rganamiz" deydi. Shu sinfning yana bir o'quvchisi "Adabiyot" darsligimizda suratlar ko'proq bezatilishini juda xohlayman, albatta biz kichik emasmiz, biroq yoshimizga mos jiddiy, yaxshi suratlar bo'lsa yaxshi bo'lardi" deya munosabat bildiradi. 6-sinf

o'quvchisi ham: "asar qahramonlarini o'qiyotgan o'quvchining o'zi tasavvur qilishi kerak" deb hisoblaydi. Javoblarni xulosalab, shuni ta'kidlash joizki, tasviriy san'at vositalaridan unumli foydalanish o'quvchi qiziqishlarini oshirishga, estetik didni tarbiyalashga olib keladi. Intellektual qobiliyatlarini ko'rsatish uni katta bo'lganini isbotlash uchungina emas, balki atrofdagilar e'tiborini tortish, o'z mavqeyini oshirishga intilganligining ham belgisi hisoblanadi. Tajriba-sinov ishlari jarayonidagi kuzatishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, o'smir oson topshiriqlarga bepisand qaraydi, uni bajarishni o'ziga ep ko'rmaydi, yengilyelpi vazifalarga qiziqmaydi. O'smirni o'ylashga, fikrlashga, izlanishga undaydigan; bahsga chorlaydigan darslar uning intellektual rivojiga katta ijobiy ta'sir etadi, o'quvchining asosiy o'quv ashyosi – darslik ham murakkabligi bilan o'qish jarayoni, bola saviyasidan bir qadam oldinda bo'lishi, didaktik vositalar ijodiy muhit yaratishga yo'naltirilishi lozim. Aks holda 5-sinf o'quvchisiga qaraganda o'zini ancha katta hisoblaydigan 7-sinf o'quvchisi uchun yangilik bera olmaydi. So'rovnomaдан о'rin olgan "Badiiy asarni o'qish yoqadimi yoki u haqidagi maqolanimi? Nima uchun?" degan savolga 5–7-sinf o'quvchilarining aksariyati badiiy asarning o'zini o'qish yoqishini ma'lum qilganlar. Nima uchunligini esa ayrimlar "badiiy asar hayot bilan teng", "yuz marta eshitgandan ko'ra bir marta ko'rgan yaxshi deganlaridek, badiiy asar haqida o'qigandan o'zini o'qigan yaxshi", "menga o'zim o'qiganim yaxshi, chunki qiziqib o'qiymen", "badiiy asar ichiga kirib o'qiydi", "kechinmalarini his qilish mumkin bo'ladi" deya izohlashga harakat qilganlar.

6-sinfda Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari o'rganildi. Tajriba sinfida asar haqidagi nazariy ma'lumotlar kamaytirilib, matndan faqat masallar, naqllargina emas, asar qahramonlarining qiyofasini ochadigan lavhalar berilib, ulardagi maqollarga alohida e'tibor berildi. O'quvchilarda "Zarbulmasal" haqida yaxlit tasavvur

matn orqali hosil qilinishiga harakat qilinib, Yapaloqqushning Ko'rquushni sovchilikka yuborishi, Ko'rquushning yo'lga tushishi, Hudxud bilan uchrashib, bir-biriga "Maymun bilan najjor", "Tuya bilan bo'taloq" masallarini aytib bergan o'rirlari o'qish uchun tavsiya qilindi. Masallardan kelib chiqadigan xulosalar, "qissadan hissa chiqarish", obrazlar tabiatiga xos jihatlar savol va topshiriqlar orqali ochib berilgandan so'ng, o'quvchilarga Yapaloqqush, Hudxud tilidan chiqqan maqollarni o'zgartirib, ma'nodoshlarini topish topshirig'i berildi. Yapaloqqush tilidan chiqqan "Karnay misdin, balg'am isdin" maqolining bugungi kundagi sinonimlarini topishda o'quvchilar orasida ikkilanishlar sezilgan bo'lsa, Ko'rquush tilidan aytilgan "Yolg'on masal turmas", "Chumchuq semirsa, botmon bo'lurmi?", "Uyat o'limdan qattiq", "Ko'r tutganini qo'ymas, kar eshitganini qo'ymas", "Bo'l! Og'iz bo'lma, oyoq bo'l", "Oyoq yugurigi oshga, og'iz yugurigi boshga" kabi maqollarini sharhlash bahs-munozaraga aylanib ketdi.

Yolg'on so'z qoralangan maqol o'rniga ma'nodoshini qo'llashda o'quvchilar maqoldagi so'zlar eskirganligiga e'tibor qaratdilar. Gulxaniy yashagan davr ruhiyatini saqlash, asar ko'rinishiga ta'sir etmaslik uchun ma'nosи bilan birga, matn shakli ham uyg'un bo'lishi kerakligini ta'kidlagan o'quvchilar "Yirtiq uyni el topar, yolg'on so'zni chin topar", "Yolg'on so'z yoqadan chiqadi", "Yolg'onchi to'rga bir o'tar, ikki o'tmas", "Yolg'onchining uyi kuysa ham, hech kim ishonmaydi", "Yolg'onchi chin deya olmas, chin desa ham el ishonmas", "Chinni yolg'onga chulg'ama, durni loyga bulg'ama", "Rost bilan yolg'onning orasi – to'rt enlik" kabi maqolalari orasidan "Rost bilan yolg'onning orasi – to'rt enlik" maqolini matn uchun mos deb bilishdi. Ham "enlik" so'zining hozirgi kunda keng muomalada emasligi, ham maqolda yolg'on gapishtidan qaytarish ma'nosи borligi uchun eng mos deb hisoblashdi. "Uyat o'limdan qattiq" maqoli o'rniga "Eman daraxtning egilgani – singani er yigitning uyalgani – o'lgani",

“Yigitni or o’ldirar, tuyani – sarvar” maqollari yigit so’zi tufayli to’g’ri kelmaydi, garchi asarda odamlar hayoti bayon qilingan bo’lasa-da, qushlar tilidan hikoya qilinyapti, ular esa o’zlarini odamlarning obrazi ekanligini “bilishmaydi” degan qiziqarli javoblar berildi. “Yuz qizili ketar, yuz xijili ketmas”, “Yuz yuzga tushar, uyat – ichga” maqollarini qo’llash mumkin deb topishdi.

“Og’zingni ochguncha, ko’zingni och”, “Og’iz – bir, qulqoq – ikki, bir so’zlab, tingla tingla qirq ikki”, “Og’zi bilan o’roq o’rgan”, “So’z bilmagan – el boshiga yov keltirar”, “Bir so’zla, qirq tingla” kabi maqollarni ma’nodoshlari sifatida keltirib, “So’z bilmagan – el boshiga yov keltirar” maqoli “Oyoq yugurigi oshga, og’iz yugurigi oshga” maqolining eng maqbul ma’nodoshi deb topishdi.

“Ko’r tutganini qo’ymas, kar eshitganini qo’ymas” maqoli o’rniga “Ko’rning qo’liga tushma, karning oyog’iga” maqoli eng mos ekanligini, “Ko’rga ko’rsatma, karga gapirma” maqoli deyarli bir ekanligini, uni qo’yishsa, o’zlari uchun ijodiy, yangilik bo’lmasligini bildirishgani tajriba sinflarida topshiriq o’quvchilar uchun ijodkorlikni uyg’otganligidan darak beradi.

7-sinfda ta’lim olayotgan o’smirda nazariy tafakkur yuqori ahamiyat kasb eta boshlaydi. Chunki bu davrda o’quvchilarda atrof muhitdagi bog’lanishlar, o’zaro aloqadorliklar mazmunini bilishga yuqori darajada qiziqish paydo bo’ladi. Bu davrda o’smirning bilishga bo’lgan qiziqishida progress sodir bo’ladi. Ta’lim jarayonida egallab olingen ilmiy-nazariy bilimlar tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning ta’sirida o’smirda isbot, dalillar bilan fikrlash, deduktiv xulosalar chiqarish qobiliyati shakllana boshlaydi. Shu sababli ham so’rovnomadagi “Badiiy asarni o’qish yoqadimi yoki u haqdagi maqolanimi? Nima uchun?” savoliga berilgan javoblar tahlilida faqat 7-sinf o’quvchilarigina badiiy asar bilan birga u haqdagi maqolani o’qish ham yoqishini bildirganlar. Masalan, 7-sinf o’quvchisi

“Menga birinchi maqolani o‘qib, keyin asarni o‘qish yoqadi. Chunki asarni tushunib olishimga, mag‘zini chaqishimga yordam beradi”, deb izohlasa, yana bir 7-sinf o‘quvchisi “badiiy asarni ham, maqolani ham o‘qish yoqadi. Chunki asarda yoritilmagan jihatlar maqolada to‘liq yoritiladi. Maqolani o‘qigan o‘quvchi asarni o‘qishni istab qoladi”, deb javob beradi.

O‘smdiridan endi kichik maktab yoshida anglanmagan turli mavzular – ma’naviyat, siyosat kabi bir qator mavhum tushunchalar haqida fikr yuritish, mustaqil xulosalar chiqarishni talab qilish mumkin, shular asosida uning mustaqil, mavhum tafakkuri rivojlanadi. Mavhum tafakkur asta-sekinlik bilan yillar davomida shakllanadi va o‘smirlik davrining oxiriga kelib analiz-sintez qilish, muammoning mohiyatiga kirish va uning yechimiga intilish kabi ko‘nikmalarga aylanib boradi. Bu yoshga kelib o‘smirning og‘zaki va yozma nutqi faollahshadi, berilgan mavzularda insho yozish, mustaqil ravishda og‘zaki chiqishlarga tayyorlanish va o‘zligini namoyish etish, o‘z fikrlarini saralab, umumlashtirib yetkazish, mulohazasini aytish va yozma ifodalash ko‘nikmalari rivojlananishi oldingi boblarda aytib o‘tildi. O‘quvchilardagi mana shu xususiyatlarga asoslanib tuzilgan “Qaysi sinf “Adabiyot” darsligi sizga ko‘proq yoqadi? Nima uchun?” degan savolga 7-sinf o‘quvchisi “O‘qituvchi yaxshi kayfiyatda darsni o‘quvchiga yetarlicha yetkazsa va tushuntirsa har qanday darslik yoqa boshlaydi, lekin baribir 7-sinf darsligi ko‘proq yoqadi” deb javob bergen bo‘lsa, yana bir o‘quvchi “7-sinf darsligi ko‘proq yoqadi. Chunki darslikda berilgan asardan keyin o‘nga yoki yigirmaga yaqin savollar berilgan. Bu savollar bizni o‘ylashga, fikrlashga undaydi”, deb izohlaydi. Shu maktabning yana bir 7-sinf o‘quvchisi “Menga ko‘proq 7-sinf “Adabiyot”i yoqadi. Chunki o‘qigan asarlar yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar bilan takrorlab berish mumkin. 5-6-sinf darsliklarida ham savollar bor, lekin 7-sinf “Adabiyoti”dan

kamroq”, yana bir o‘quvchi ham 7-sinf darsligi yoqishini bildirib, sababini testlar berilganligi bilan izohlaydi, shuningdek “shunday savollar berilganki, ularga javob berganda asarning tayyor tahlili namoyon bo‘ladi” deb fikr bildiradi.

So‘rovnomaning to‘rtinchi savoliga olingan javoblardan shunday xulosaga kelish mumkinki, yettinchi sinf o‘quvchisiga endi bola deb qarash, uni “ayab”, tushunishi qiyin deb atayin oson savollar berish o‘quvchi kamolotini sekinlashtirishi mumkin, xolos.

O‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan savolnomaning umumiy ko‘rinishi va tahlilini quyidagi (2-jadvalga qarang) jadvalda ko‘rish mumkin:

2-jadval

O‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan savolnomaning umumiy ko‘rinishi

(O‘quvchining ismi-sharifi)

_____ mактаб _____ sinf o‘quvchisi

_____ viloyati _____ tumani

Savollar	Javob
1. Adabiyot darslaridagi o‘quv materiallari sizni qoniqtiradimi? Yoqadi (Qaysilar? Nimasи bilan?) Yoqmaydi (Qaysilar? Nima uchun?)	
1. O‘quv materiali sifatida badiiy asarlar mazmuni yuzasidan tasviriy san‘at namunalari o‘rin olishini istarmidingiz? Nima uchun? Fikringizni asoslang.	
3. Badiiy asarni o‘qish yoqadimi yoki u haqidagi maqolani? Nima uchun?	
4. Qaysi sinf “Adabiyot” darsligi sizga ko‘proq yoqadi? Nima uchun?	

O'ziga xos mazmundagi so'rovnoma o'qituvchilar o'rtasida ham o'tkazildi: "Sizningcha o'quv materiali tanlashda o'quvchi yosh xususiyatlarining qaysi jihatlariga e'tibor qaratilishi lozim? Qo'lingizdagi o'quv materiallarida o'quvchining yosh xususiyatlari inobatga olingenmi? Fikringizni dalillar bilan asoslang" savol-topshirig'iga o'qituvchilar: "O'quvchilarning yoshiga mos. Yosh xususiyatlari hisobga olingen. Bu sinf o'quvchilari psixologik tomondan tez o'zgaruvchan bo'ladi. Mavzularning rang-barangligi fikrimizning dalilidir", "mavzular juda sodda va tushunarli holda berilgan", "o'quv materiali o'quvchini qiziqtirishi lozim, shunda dars yanada maroqli bo'ladi"kabi umumiy mulohazalar bilan cheklanganlar. O'qituvchilarning aksariyati o'smirlik yosh davrlari ichida o'tish pallasini sanalishini, bolada bo'ladigan fiziologik va psixologik o'zgarishlar haqida umumiy ma'lumotga egalar. Lekin mashg'ulot natijasi samarali bo'lishi, o'quvchini qiziqtirish uchun aynan qanday psixologik xususiyatlarga e'tibor berish lozimligini ko'rsatib bera olmaganlar. So'rovnomaning ikkinchi savolida o'qituvchilardan: "Didaktik vositalari o'quvchini mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga yo'naltirishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak"ligi so'ralgan. O'qituvchilarning deyarli barchasi didaktik vositalar mustaqil izlanishga, bahs-munozaraga chorlashi kerakligini ta'kidlashgan. Navbatdagi savolga berilgan javoblarda ham o'qituvchilarning deyarli barchasi san'atning adabiyoddan boshqa turlari (haykaltaroshlik, tasviriy san'at) "Adabiyot" darsliklarida ko'proq berilsa yaxshi bo'lishini bildirishgan.

O'qituvchilar o'rtasida o'tkazilgan savolnomalar tahlilining natijalarini quyidagi (3-jadvalga qarang)jadvalda ko'rish mumkin:

3-жадвал

5–7-sinf o'quv materiallarining psixologik, pedagogik, didaktik holatini o'rganish bo'yicha so'rovnomanining tahliliy ko'rinishi

SO'ROVLAR	JAVOBLARNING UMUMIY KO'RINISHI		
1. Sizningcha o'quv materiallarida o'quvchi yosh xususiyatlarining qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim?	Yosh xususiyatlariga (umumiyl javob) 20%	Qiziqishlariga 60%	Qabul qilish daraja-siga 20%
2. Qo'lingizdag o'quv materiallarida o'quvchining yosh xususiyatlari hisobga olinganmi?	Ha 50%	Uncha emas 50%	
3. Didaktik vositalarda o'quvchini mustaqil fikrlash va erkin faoliyatga yo'naltirishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?	Qiziqarli savol va topshiriqlarga 40%	Mustaqil fikrlash va muammoli vaziyat yaratishga 60%	Tasviriy san'atga 30%
4. San'atning adabiyotdan boshqa turlari (haykaltaroshlik, tasviriy san'at)ning o'quv materialida berilishidan qoniqsizmi?	Qoniqaman 30%	Qoniqmayman 20%	Unchalik emas 50%
5. Adiblarning hayoti va ijodi "Adabiyot" darsliklarida qanday yoritilishi kerak deb hisoblaysiz?	Keng yoritilishi kerak 10%	O'quvchi yoshiga moslab 40%	Qiziqarli 50%
6. Badiiy matnlarning qisqartirilishiga munosabatingiz qanday?	O'quvchilar yoshiga moslab 70%	Keng yoritilishi ma'qul 10%	Qiziqarli o'rinalardan 20%

Adiblarning hayoti va ijodi “Adabiyot” darsliklarida qanday yoritilishi kerak deb hisoblaysiz?” savoliga ham pedagoglardan Guliston tumanidagi 5-maktab o’qituvchisi: “Adiblarning qiyinchilik va xursandchilik kunlaridan lavhalar berilsa yanada yaxshi bo’lar edi” deb javob bergan bo’lsa, yana bir o’qituvchisi “Adiblarning shaxsiy hayoti o’quvchilarini o’ziga jalb etadi, hurmati va qiziqishi ortadi, shuning uchun hayoti va ijodi kengroq berilishi kerak, deb hisoblaydi. Boshqa bir o’qituvchi esa: “Yozuvchi ijodiga oid ma’lumotlar aniq va qisqa berilsa yaxshi bo’lar edi” deb hisoblaydi. Chunki 5-7-sinf o’quvchilarining xotirasida qator sanalgan asarlar nomi, ketma-ket berilgan sanalar baribir qolmasligini, ular e’tiborini torta olmasligini bildirgan. Javoblar tahlili shuni ko’rsatdiki, 5-7-sinf o’quvchisi uchun yozuvchi haqida batafsil ma’lumot emas, uning asarini o’qishga jalb etadigan, qiziqtiradigan tarzda berilishi lozim. “Adabiyot” darsliklaridagi badiiy matnlarning qisqartirilishiga munosabatingiz qanday?” savoliga ham so’rovnomada ishtirok etgan o’qituvchilarning barchasi badiiy matnlar bolaning yosh jihatlarini e’tiborga olib qisqartirilishi kerakligini, aks holda u zerikib qolishi mumkinligini bildirganlar.

Demak, badiiy asarlarni berishda (asardan parchalar yoki qisqartirishlar berilganda) o’smirlilik davrining o’ziga xosliklarini inobatga olib yozuvchi mahoratini ochadigan, badiiy so’z qudratini ko’rsatadigan o’rnlarga o’smir diqqatini tortadigan didaktik vositalarning ko’p berilishi bolada adabiy ta’limga qiziqishni oshirishga olib kelish mumkin. Shundagina o’smirga ijobiy ta’sir o’tkazib, uni o’z o’zini tarbiyalashga yo’naltirish mumkin bo’ladi.

O’qituvchilar savollarga javob berar ekanlar, o’quvchilarning yosh xususiyatlariga ko’proq e’tibor berish lozimligini alohida ta’kidlashdi, lekin aynan qaysi jihatlariga urg’u berish lozimligini aytishda ularning aksariyati faqat qiziqishlarini tilga olishgan. Bu holat o’qituvchilar o’smirlarning psixologik jihatlarini yaxshi o’rganishlari lozimligini ko’rsatadi.

Tajriba-sinov ishlarining yana bir ko'rinishi mashg'ulot tarzida bo'ldi. Tanlangan har bir maktabdagи 5-7-sinflarning "A" sinfi tajriba sinfi sifatida, "B" sinflari nazorat sinflari sifatida olindi. 5-sinf uchun Nodar Dumbadzening "Hellados" hikoyasi olindi. Amaldagi darslikda hikoya qisqartirishlar bilan berilgan. Tajriba sinflarida hikoya to'liq, qisqartirilmagan holda o'rganildi. Chunki asar qahramonlari: Jamol va Yangulining to'qnashuvlari orqali ularning xarakterlari ochilib boradi. Uni o'rganish uchun keltirilgan o'nta savol va topshiriqqa faqat matnga tayanilgan, har bir badiiy obrazning xatti-harakatiga baho berish bilan yozuvchining mahoratini ochadigan didaktik topshiriqlar berildi:

1.Jamol birinchi to'qnashuvdanoq nimasi bilan Yanguli va uning o'rtoqlarini taajjublantirdi? 2. Yanguli skripka bilan Jamolning boshiga tushirganda "yuragim go'yo to'xtab qolganday bo'ldi, miyamga qon urildi, quloqlarim bitib goldi. Men hech narsani sezmas edim..." deydi. Bu holat faqat skriptkaning zarbidan bo'lgan deb hisoblaysizmi? 3. "Yanguli yana takrorladi. Petya istamaygina ikkala cho'ntagidan ikkita kattakon toshni chiqarib, bir chetga uloqtirdi" dan kelib chiqib Yanguli tabiatiga baho bering. 4. Koka, Sizningcha, qanday bola? Fikringizni asoslang. 5. Yanguli nima uchun eshagini aynan Jamolga qoldirdi? 6. "U bir yutinib olib, davom etdi: - Bu - Midya... qolaversa, sen..." Yanguli nima uchun yutinib oldi? Jumlaniz izohlang? 7. Yangulining vatan haqidagi tushunchasi sizning tushunchangiz bilan farq qiladimi? 8. Kemadagi Yanguli nima uchun kuzatuvchilar orasidan Jamolni qidirdi?

6-sinf uchun Zulfiya she'riyati tanlandi. Nazorat sinflarida mavzu darslikka tayanilib, tajriba sinflarida esa badiiy matnni o'rganish uchun didaktik vositalarni kengaytirib, "Zulfiya she'rlari haqida" maqolasida o'quvchiga aytilgan mulohazalar savol va topshiriq ko'rinishida berildi: "Shoira "Nevara" nomli she'rin ni ma uchun "Aziz tuyg'ular" turkumiga kiritgan deb o'ylaysiz? She'rning yozilishiga nima turtki bergen? "Ayrilib

qog'ozdan, she'r dan va hushdan Boqaman varrakboz jonga baxtiyor" misralarini izohlang. Ijoddan chalg'igan shoira nima uchun baxtiyor? Varrak shamollar qarshiligiga qaramay, tiniq zangori osmonning yuksakliklariga intilganidek, o'yinqaroq, zavqi baland, o'jar bolakayni qanday kelajak kutyapti? "Mevasidan danagi shirin" maqolini izohlang".

"Bog'lar qiyg'os gulda" she'rini o'rganish yuzasidan quyidagi: "Shoira "Bir kaft bog"" deya nimaga ishora qilmoqda? Agar bog' vatan timsoli bo'lsa, "anvoysi bir tarovatda" bo'lgan daraxtlar nimaga ishora? "Har birin hosili o'zgasiga ko'rak, Biri biri uchun qudrat, himoya" misralariga mos maqollardan keltiring. "Bu - qadim dunyoda yangi bir olam, Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q" misralarida shoira nazarda tutgan suyanch, tayanch kim? O'zbek xalqimi, boy tariximi, konstitutsiyami? Fikringizni asoslang? Shoira nima uchun har ikki she'rni ham "O'zi kashf etardi, kashf etganday baxt" deb yakunlaydi? Baxt kashf etiladimi?"

"Men o'tgan umrga" she'rini o'rganish bo'yicha: "Umri sho'rolar davrida kechgan, akalari qamoqqa olingan, tur mush o'rtog'idan erta ayrilgan Zulfiya nima uchun "Hayot kitobimni bexos varaqlab, Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim" degan xulosaga keladi? Har bir tonggi umid bilan, ilhom, ijod bilan kechgan umr - ma'naviy umrni aziz bilgan o'rirlarni ayting? She'rni o'qigan insonda shoiraga nisbatan havas uyg'onadi. Nima uchunligini izohlang? "Suydim, Erkalandim, Ayrildim, Kuydim, Izzat nima bildim" deydi shoira. Har bir so'zni Zulfiyaxonim hayotidan kelib chiqib izohlang" singari savol va topshiriqlar taqdim etildi. O'quvchilarning javoblari tahlil qilindi, zaruriy xulosalar chiqarildi.

7-sinf uchun Chingiz Aytmatov ijodi tanlandi. Nazorat sinflarida qissa o'qib bo'lingach, tajriba sinflarida esa badiiy matnni o'rganish ikki katta qismga bo'lib amalga oshirildi. Birinchi qism: oq kema haqidagi ertak yakuni o'qilib, didaktik vositalar bilan ishlanildi, so'ng Shoxdor ona bug'i haqidagi

ertak bilan boshlanuvchi ikkinchi qism o'qilib, savollar bilan matn ustida ishlanildi. Darslikda berilgan savol va topshiriqlar o'quvchilarni badiiy matnni chuqurroq anglashga, mushohada yuritishga, mustaqil fikrlashiga yo'naltirilgan. Tajriba sinflaridagi o'quvchilar: "O'rozqulning o'z xotini Bo'keyga bunchalik yomon munosabati sababini izohlashga urining" kabi asar syujetidan kelib chiqib, javob beriladigan savollarga qiyalmadilar. Lekin "Birinchi ertakdagagi voqealar qaysi faslda ro'y berganligini asar matniga tayanib aniqlang" kabi matniga tayanish lozim bo'ladigan javoblarda vaqtadan yutqizishlari, o'qituvchining qayta-qayta eslatishlari kerak bo'ldi. Nazorat sinflarida qissa matniga oid savollarga atroflicha javoblar olindi, asar badiiyati o'quvchilar tomonidan chuqurroq anglashildi.

Shuhratning "Mardlik afsonasi" balladasini o'rganishda shoirning so'z qo'llashdagi mahoratini matniga tayanib ochishga alohida e'tibor qaratildi. O'quvchilarni munozaraga chorlashda javob berishda faqat matndan kelib chiqishga undaldi. O'quv materialini to'la anglashlari uchun tasavvurlar chegaralarini keng olishga vaziyat yaratishga harakat qilindi. O'quvchilarga ballada ifodali o'qib berilib, darslikda berilgan savollar bilan murojaat qilingandan so'ng "Nima uchun asar "Mardlik afsonasi" deb ataladi-yu, To'marisning jang qilgan tafsilotlariga keng o'rinn berilmagan?" savoliga o'quvchilardan biri ayol kishining xalqni oyoqqa turg'izishining o'zi bir katta jasorat ekanligini, uning qo'rmasligidan dalolat berishini, agar biroz qo'rquan bo'lganda ham xalqqa sezilgan bo'lishi, orqasidan ergashtira olmasligini bildirdi. Yana bir o'quvchi esa shoir tabiatan tinchliksevar ekanligini, keng jang tasviri ortiqcha bo'lishini bildirdi. "To'maris nutqidagi aynan qaysi o'rinn sizga yoqdi?" degan savolga aksariyat o'quvchilar Kayxisrav bilan jangdan so'ng "Kalta qildi so'zini To'maris: "Hukm shudir qahramon xalqim ne desa!" misralarini keltirishdi. Sababini izohlab, aksariyat qahramonlar kamgap bo'ladi deb izohlashdi. "Xalqni jangga chorlagan To'maris nutqidagi aynan qaysi o'rinn odamlarni jangga chorladi

deb hisoblaysiz?” savoliga o’quvchilardan biri “Bola-chaqam qon yig’lab qolmasin desang, qo’llarimga yov zanjir solmasin desang...”ni keltirib, xalqimiz bolajon xalq ekanligi, nimaki qilsa farzandi uchun qilishi bilan izohlagan. Ikkinchisi o’quvchi: “O’tirmasin yov chiqib uyim to’riga...” misrasini keltirgan va uyini kimdir egallab olishni hech kim xohlamasligini bildirgan. “To’marisni qanday tasavur qilasiz?” savoliga aksariyat o’quvchilar kinofilm qahramonlari ta’sirida javob berdilar.

Qayd etish lozimki, tajriba ishlarini olib borish jarayonida o’quvchilarda ijodiy ishga barqaror qiziqishni, shu bilan birga o’z-o’zini rivojlantirishga intilishini shakllantirishga, o’quvchining ma’naviy olamini boyitishga erishildi.

“Susanbil” ertagini o’rganishda tajriba sinflarda ertak haqidagi maqolada keltirilgan sharhlar Flesh talablariga muvofiq jumlalari aniq, ixcham ko’rinishda savol va topshiriq ko’rinishida berildi:

- Xalqimizning adolat va farovonlik hukm suradigan zamon haqidagi orzusi qayerda aks etadi?

- Jonivorlarning maqsadiga erishishlariga sabab nimalar bo’ldi?

- Bo’rilidan nima uchun ustun keldilar?

- “Kuch-birlikda” maqoli qaysi o’ringa to’g’ri keladi?

- Ertak, multfilmlardagi bo’ri, tulki, ayiq odatda qanday odamlarni eslatadi?

Berilgan savollar mashg’ulotlarda ijodiy, qizg’in vaziyat yaratdi. O’quvchilarning aksariyati birinchi savolga “Susanbil – o’tning bo’lig’i, suvning tinig’i, unda azob-uqubat yo’q, maza qilib yurasan” degan jumla bilan javob berdilar. Guliston tumanidagi 5-maktabning 5-sinf o’quvchisi fikrini davom ettirib, Susanbilga hujum qilgan bo’rilarning bugungi “avlodi” ham borligini, har qanday joyda xavfga tayyor bo’lishi kerakligini aytib, o’quvchilarda xayolot dunyosi kengligini yana bir bor ko’rsatdi. “Jonivorlarning maqsadiga erishishlariga sabab nimalar bo’ldi?” savoliga bolalar rang-barang javoblar berishdi. 5-maktabning 5-

sinf o'quvchisi "Orqaga yo'l yo'q edi"desa, aksariyat o'quvchilar e'tiroz bildirishdi, matnga tayanib javob berish talab etilgandan so'ng sinf o'quvchilari "Qiyinchiliklarga chidaganliklari sabab murod-maqсадларига yetishdi" degan xulosaga kelishdi. Shu tariq ham Flesh ta'lilotiga asosan, ham o'smirlik davrining eng murakkab jihat - emotsiyonal beqarorlikdan qahramoni holatini his etishi va qarashlarini hissiyotlariga tayangan holda ifodalab berishiga yo'naltirish bilan o'quv mashg'ulotida o'quvchini o'quv materili bilan mustaqil, sinchkovlik bilan ishlashga erishildi.

Shu tariqa, nazorat ishlarining borishida quyidagi farazlar o'z tasdig'ini topdi:

1. O'quv materialining o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqib, mustaqil ishslashga rag'batlantirilgan o'quv materiali o'quvchilarda o'z shaxsiy fikrini uyg'otib, uni himoya qilishga, fikrlar xilma-xilligini hurmat qilishga olib keladi. Bu xususiyat sinfda do'stona, iliq, ijodiy muhit yaratadi.

2. Tajriba sinflardagi bahs-munozaralar o'quvchilarda ijtimoiy hayotda o'z kechinmasini ko'pchilikka yetkazishi osonlashti. Bu adabiyot darslarida kompetensiyaviy yondashuvni ta'minlab, tarbiyalanuvchilarda kommunikativlikni rivojlanтиради. Real sharoit, kundalik hayot bilan bog'liqlikni ta'minlaydi.

3. Badiiy adabiyotga ko'r-ko'rona munosabat emas, anglab, his qilingan munosabat uyg'onadi. Kitobxonlik rivojlanadi. Badiiy did shakllanib, sara asarlarni qadrlash oshadi.

4. Flesh indeksiga muvofiq berilgan o'quv materiallari o'quvchida faoliyotni oshirib, adabiy ta'lim samaradorligiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Tajriba-sinov sinflarida takomillashtirilgan o'quv materiallari bilan ishslashda 5-7-sinfo'quvchilari tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash badiiy matnga, ulardagи qahramonlar xatti-harakatiga ijodiy yondashish, tahlil jarayonida mustaqil izlanish, fikrlarning originalligi, matnni sharplashda yozuvchi hayoti va ijodiga oid ma'lumotlardan foydalana bilish, og'zaki va yozma nutqda adabiyot nazariyasiga oid ma'lumotlarni qo'llay bilish,

o'rganilayotgan o'quv materialiga asoslangan holda savol va topshiriqlarga javob berish, badiiy matn bilan ishlash darajasi: o'quv materialini sinchkovlik bilan o'rganganligi, shaxsiy munosabat bildira olishi kabi qator mezonlar asosida tahlil qilindi.

"Badiiy matnga, adabiy qahramonlar xatti-harakatiga mustaqil yondashish, tahlil jarayonida mustaqil izlanish, fikrlarning originalligi" mezoniga muvofiq o'quvchilarning qo'shimcha manbalarga murojaat qilganligi, o'z fikrini erkin ifoda etishi, maktab va shaxsiy kutubxonasidan qay darajada foydalanganligi, do'stlari fikrlariga asosli e'tiroz bildira olganligi, hech kimning fikriga o'xshamagan munosabat bildirishga cho'chimaganligi e'tiborga olindi. Bu 5-sinfda Jonatan Swiftning "Gulliverning sayohatlari", A. Qodiriyning "Uloqda", G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigma bolam" hikoyalari; 6-sinfda O. Yoqubovning "Muzqaymoq", O'. Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyalari, Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari; 7-sinfda Shuhratning "Mardlik afsonasi" balladasi, O'. O'marbekovning "Qiyomat qarz" hikoyalarini o'rganish jarayonida aniqlandi.

O'quvchilar tomonidan adabiy matnning sharhlanishida ularning yozuvchi hayoti va ijodiga oid ma'lumotlardan foydalana bilishiga e'tibor berildi. Xususan, 5-sinfda Imom Buxoriy, Muqimiyl, Sa'diy Sheraziyl, Navoiy, Bobur hayoti va ijodini; 6-sinfda Muso Jalil, Zulfiya, Tog'ay Murod hayoti va ijodini; 7-sinfda Hamza, Uvaysiy, R. Hamzatov hayoti va ijodini o'rganishda ularga oid ma'lumotlarni qay darajada foydalanganliklari hisobga olindi.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqda adabiyot nazariyasiga oid ma'lumotlarni qo'llay bilishini takomil-lashtirishda esa 5-sinfda ularning maqol, topishmoq va masallarni sharhlashda; 6-sinfda hajviy asar, xalq qo'shiqlari bo'yicha mavzularni nazariy ma'lumotlar asosida yoritishda foydalaniishlari inobatga olindi.

O'quvchilarning o'rganilayotgan o'quv materialiga asoslangan holda savol va topshiriqlarga javob berishi, badiiy matn bilan ishslash darajasi: o'quv materialini sinchkovlik bilan o'rganganligi, shaxsiy munosabat bildira olishi kabilariga savol va topshiriqlarga individual javob berish jarayonida alohida e'tibor qaratildi.

Bunda: o'quvchining badiiy matnga, adabiy qahramonlar xatti-harakatiga ijodiy yondashishi, tahlil jarayonida mustaqil izlanish, fikrlarning originalligini takomillashtirishda innovatsion ta'lif texnologiyalaridan klaster, idrok xaritasi, zigzag metodlaridan foydalanilib, erishilgan ta'lif samaradorligini aniqlashda kuzatish va suhbat metodidan foydalanildi; o'quvchining matnni sharhlashda yozuvchi hayoti va ijodiga oid ma'lumotlardan foydalana bilishini takomillashtirishda aqliy hujum metodidan foydalanildi, shuningdek, savol va topshiriqlarni biz taqdim etgan andozalar asosida ishlab chiqilishiga e'tibor qaratildi; o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqda adabiyot nazariyasiga oid ma'lumotlarni qo'llay bilishga erishish uchun ijodiy matn tuzish, "B-B-B" metodi qo'llanildi, shuningdek, erishilgan natijalarni aniqlash uchun analiz-sintez, pedagogik kuzatish metodlari tadbiq etildi. O'rganilayotgan o'quv materialiga asoslangan holda savol va topshiriqlarga javob berish, badiiy matn bilan ishslash darajasi: o'quv materialini sinchkovlik bilan o'rganganligi, shaxsiy munosabat bildira olishi kabi layoqatlarini rivojlantirishda "Ha va yo'q" usuli, "Shoir ijodxonasida", mozaika kabi usullardan foydalanildi. Erishilgan natijalarni aniqlash uchun esa kuzatish, pedagogik loyihalash, suhbat, kuzatish metodlari qo'llanildi.

XULOSA

O'quv materialining o'quvchi psixologiyasidan kelib chiqib, mustaqil ishlashga rag'batlantirilgan o'quv materiali o'quvchilarda o'z shaxsiy fikrni uyg'otib, uni himoya qilishga, fikrlar xilma-xilligni hurmat qilishga olib keladi. Bu xususiyat sinfda do'stona, iliq, ijodiy muhit yaratadi. Sinflardagi bahsmunozaralar o'quvchilarda ijtimoiy hayotda o'z kechinmasini ko'pchilikka yetkazishi osonlashadi. Bu adabiyot darslarida kompetensiyaviy yondashuvni ta'minlab, tarbiyalanuvchilarda kommunikativlikni rivojlantiradi. Real sharoit, kundalik hayot bilan bog'liqlikni ta'minlaydi. O'quv materiallarining o'qishlilik indeksiga muvofiq berilishi o'quv mashg'ulotida o'quvchi faolligini ta'minlaydi. Badiiy adabiyotga ko'r-ko'rona munosabat emas, anglab, his qilingan munosabat uyg'onadi. Kitobxonlik rivojlanadi. Badiiy did shakllanib, sara asarlarni qadrlash oshadi. Demak, o'smir uchun "Adabiyot" darsliklariga material tanlashda har tomonlama: ham ruhiy, ham ma'naviy, ham jismoniy-fiziologik o'zgarishlarning inobatga olinishi adabiy ta'lim samaradorligi garovidir. O'smir o'quvchilarining o'qishga, xususan, adabiyot darslariga munosabati ham, badiiy asarlar va ularning qahramonlari shaxsiga yondashuvi ham turlicha bo'ladi. O'smirlarning bu bosqichdagi fikrlashi, bahslashishga moyilligi, tortishuvlarni xush ko'rishining o'quv materiali berishda diqqat markazida bo'lishi o'quv faoliyatining samarali bo'lishini ta'minlaydi. O'quv materiali sifatida badiiy asarlar tanlashda 6 -7-sinflar o'quvchilarida kamchiliklar va salbiy sifatlarni yengib o'tishga intilish kuchayishini hisobga olish va ularda didaktik vositalarning shu jihatini yanada rivojlantirishga qaratish ma'naviy komillik sari yuz burgan avlodni shakllantirish maqsadiga muvofiq bo'ladi. O'quv materiallarini dunyo miqyosida amal qilinayotgan Flesh indeksi asosida tekshiruvdan o'tkazgan holda taqdim etish o'quvchilarda o'zlikni anglash, o'z-o'zini boshqarish, o'zgani his

qilish singari sifatlarning shakllanishiga, ayni zamonda, adabiy ta'limning samaradorligini ta'minlashga zamin tayyorlaydi. O'quv materiallarini qayta ishslash va takomillashtirishda, ularni o'rghanish metod, usul va vositalarini tanlashda tayanch hamda xususiy kompetensiyalarning uzviy, mushtarak bo'lishi adabiy ta'limning saviyasini ko'taradi, samaradorligini ta'minlaydi.

"Adabiyot" darsliklarining hajmi masalasida qat'iy chegara belgilab qo'yilgan. Shu boisdan adabiyot darslarida foydalanish uchun qo'shimcha yo'ldosh darsliklaryaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday yo'ldosh darsliklar bilan adabiy ta'limning samaradorligini oshirish mumkin. Yo'ldosh darsliklarda asosiy darslikda kichik hajmda berilgan badiiy asarlar kengaytirilgan tarzda taqdim etilishi mumkin. Qolaversa, dasturda mustaqil o'qish uchun tavsiya etilgan asarlar ham yo'ldosh darsliklarning materiali bo'lishi mumkin. "Adabiyot" darsliklari uchun o'quv materialini tanlashda soha bilimdoni bo'lishning o'zi kamlik qiladi. Yaxshi matematik, yaxshi geograf, yaxshi filolog yoki yaxshi tarixchi o'z sohasi bo'yicha o'quv materialini yozolmaydi. O'quv materialini yaratish uchun o'z sohasi bo'yicha bilimlariga qo'shimcha ravishda pedagogika, yosh psixologiyasi, o'qitish metodikasi singari bilimlardan xabardor bo'lish shart.

O'quv materialini o'quvchi yaxshi o'zlashtirishi uchun illustratsiyalarni ko'paytirish, ijodkorlarning uy-muzeylari haqidagi ma'lumotlarni ham kiritish, ular haqidagi badiiy va hujjatli filmlar katalogini berish o'quvchilarda mustaqil izlanishga rag'batni oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили тўғрисида”ги Қонуни. /Ўзбекистоннинг янги Қонулари: Тўплам. – Т: Адолат, 1996. -20-30-б.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни. /Баркамол авлод –Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. 20-29-б.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – Т., 1997 й., 9-сон
- 4 Ўзбекистон Республикаси “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”. /Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т.: Шарқ, 1997. – 31-61-б.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. /Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й. 6-сон, 70-модда.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида”ги Фармойиши. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси. 15.08.2018 й., 07/18/3907/1706-сон.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида” Қарори. Қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси. 15.08.2018 й., 07/18/3907/1706-сон.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси “Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандартига ўзгартиришлар

киритиш тўғрисида”ги Қарори. /Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. 2012 й. 20-сон, 217-модда.

9. Узвийлаштирилган Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. -Т.: Янгийўл полиграфсервис, 2010. – 196 б.

10. “Умумтаълим мактаби ўқувчиларини дарсликлар билан таъминлаш тизимини такомиллаштириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарор. Қонун хужжатлари маълумотлари миллый базаси. 15.08.2018 й., 07/18/3907/1706-сон.

11. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. //Таълим тараққиёти. 1-маҳсус. – Т: Шарқ, 1999. – 303 б.

12. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти. – Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й.14-сон, 230-модда.

13. Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. -Т: Ўзбекистон, 2016. – 432 б.

14. Мирзиёев Ш. М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлиги гарови. - Т: Ўзбекистон, 2017. – 237 б.

15. Мирзиёев Ш. М. Миллый тараққиёт йўлини қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-том. -Т: Ўзбекистон, 2017. – 371 б.

16. Ўзбекистон Республикаси ХТВ ва ВМ ҳузуридаги ДТМ. “5–9-синф ўқувчиларининг билимлари сифатини назорат қилишнинг рейтинг тизими”. /Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2010 й. 26–27-сон, 215-модда.

17. Узлуксиз адабий таълим йўриғи (концепцияси). – Т: ЎзПФИТИ, 1995. – 22 б.

18. Умумий ўрта мактаблар учун “Адабиёт” дарсликларига қўйиладиган талаблар/ Йўлдошев Қ., Ҳусанбоева Қ., Гуломова Н.– Т, 1997. –34 б.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar

19. Абдураззоқов А., Жумаев Х., Раҳимжонова М. Ватан адабиёти: Дарслик-хрестоматия. 6-синф. – Т: Ўқитувчи, 1991. – 464 б.

20. Алишер Назар. Холис эътироф эҳтиёжи. //Ёшлик, 2012. 1-сон. 7–12 б.
21. Ahmedov C., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. -T.: Ma'naviyat, 2005. – 349 b.
22. Ahmedov C., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. -T.: Sharq, 2007. – 175 b.
23. Ahmedov C., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. -T.: Ma'naviyat, 2009. – 194 b.
24. Ahmedov C., Qosimov B., Qo'chqorov R. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. I qism -T.: Sharq, 2015. – 176 b.
25. Ahmedov C., Qosimov B., Qo'chqorov R. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. II qism -T.: Sharq, 2015. – 176 b.
26. Ahmedov C., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik. -T.: Sharq, 2017. – 112 b.
27. Ahmedov C., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. I qism -T.: Ma'naviyat, 2017. – 240 b.
28. Баттерворт Дж, Харрис М. Принципы психологии и развития.– Москва: Когито-Центр, 2000. – 350 с.
29. Божович Л. И. Возрастная и педагогическая психология. – Москва: Академия, 2003.– 309 с.
30. Ватан адабиёти. 5-синф учун дарслик хрестоматия. /Тузувчилар: А. Зунунов, Р. Усмонов, Р. Ниёзметова, М. Исмоилова. – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 461 б.
31. Ватан адабиёти. Ўрта мактабнинг 5-синфи учун хрестоматия. /Тузувчи С. Долимов. – Т.: Давлат ўқув-педагогика нашриёти, 1957. – 184 б.
32. Ватан адабиёти. 8 йиллик мактабнинг 5-синф учун хрестоматия. /Тузувчи С. Долимов. -Т.: Ўқитувчи, 1971. – 237 б.
33. Ватан адабиёти. 7-синф учун дарслик-хрестоматия. /Тузувчилар: А. Зунунов, Р. Усмонов, О. Мадаев, М. Нурматова. -Т.: Ўқитувчи, 1991. – 368 б.
34. Возрастная и педагогическая психология: Хрестоматия: Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. /Сост. И. В. Дубровина, А. М. Прихожан, В. В. Зацепин. – М.: Академия, 2003. – 368 с.

35. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. – 140 с.
36. Глозман Ж. М. Общение и здоровье личности: Учебн. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – Москва.: Академия, 2002. – 208 с.
37. Зунунов А. Ўзбек тили ва адабиёти дарслклари мезони. – Т.: ЎзПФТИ, 1994. – 15 б.
38. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 152 б.
39. Йулдошев К. (Казакбай Кашкирли). Изучение произведений узбекской литературы в школах с неузбекским языком обучения// «Преподавания языка и литературы». – 1996. – №4. – С. 4 – 6.
40. Йўлдошев Қ., Мажидов Р. Ўзбек адабиёти, 7-сinf учун дарслик-мажмуа. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 272 б.
41. Yo'ldoshev Q., Husanboyeva Q., G'ulomova N. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. –T.: Yozuvchi, 2000. – 370 b.
42. Yo'ldoshev Q., Qosimov B. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. – T.: O'qituvchi, 2000. – 384 b.
43. Yo'ldoshev Q., Husanboyeva Q., G'ulomova N. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik-majmua. –T.: Yozuvchi, 2002. – 352 b.
44. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. – T.: Sharq, 2005. – 368 b.
45. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 2-nashri. –T.: Sharq, 2009. – 368 b.
46. Йўлдошев Қ., Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Т.: Камалак, 2016. – 464 б.
47. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan 4-nashri –T.: Sharq, 2017. – 368 b.
48. Казанская В. Г. Подросток. Трудности взросления: Книга для психологов, педагогов, родителей. – СПб.: Питер, 2006. – 240 с.

49. Кан-Калик В. А., Хазан В. И. Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. – М.: Просвещение, 1988. – 255 с.
50. Karimov N., Normatov U. Adabiyot. 5-sinf uchun darslik-majmua. – Т.: O'qituvchi, 1999. – 352 б.
51. Лейтес Н. С. Возрастная одаренность и индивидуальные различия: избранные труды. –Воронеж: издательство НПО МОДЭК, 2003. – 464 с.
52. Педагогика: энциклопедия./ Тузувчилар: Жамоа. ЎзПФИТИ I жилд. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2015. –320 б.
53. Педагогик атамалар рўйхати. –Т.: Фан, 2008.–159 б.
54. Психология. Қисқача изоҳли луғат. –Т.: 1998. – 25 б.
55. Sarimsoqov B., Xalilov T., Qurbonboev B. O'zbek adabiyoti. 5-sinf uchun darslik-majmua. –Т.: O'qituvchi, 1994. – 325 б.
56. Sarimsoqov B., Xalilov T., Qurbonboev B. O'zbek adabiyoti. 6-sinf uchun darslik-majmua. – Т.: O'qituvchi, 1995. – 348 б.
57. Sarimsoqov B., Xalilov T., Qurbonboev B. O'zbek adabiyoti. 6- sinf uchun darslik-majmua. Qayta ishlangan nashr. – Т.: O'qituvchi, 1997. – 348 б.
58. Сорокомуова Е. А. Возрастная психология. Краткий курс. – СПб.: Питер, 2007. – 208 с.
59. Турсунова М. Мадрасалар таълимида адабиёт ўқитиши усуллари. – Т.: Мумтоз сўз, 2017. – 100 б.
60. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиши методикаси. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2010. – 168 б.
61. Shodiyev N. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv-uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2005. – 124 б.
62. Фозиев Э. Психология. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – 244 б.
63. Ҳусанбоева Қ. Адабиёт-маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 368 б.
64. Husanboeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Т.: Barkamol fayz media, 2018. – 352 б.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

65. Аверин А.В. Влияние типа обучения в начальных классах на школьную адаптацию учащихся пятых классов. Автореф. дис. ...канд. псих. наук. – Ярославль, ЯГПУ, 2005. – 22 с.
66. Алавутдинова Н. Г. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўнилмасини шакллантириш методикаси (5-синф мисолида). Пед. фан. номз. ...дисс. – Т., 2008. – 156 б.
67. Борисова Н. П. Творчество в процессах развития личности и социальной реадаптации подростков. Автореф дис. ...канд. псих. наук. – Ставрополь, 2004. – 15 с.
68. Бурминская Т. В. Взаимосвязь особенностей развития личности подростков и форм агрессивных реакций. Дис... канд. псих. наук. – Ставрополь, 2004. – 181 с.
69. Жамолитдинов М. Ф. Юқори синф адабиёт дарсларида ўқувчиларни халқ анъаналари руҳида тарбиялаш (А. Қодирий ва Ҷўлпон ижоди мисолида). Пед. фан. номз. ...дисс. – Т., 1993. – 175 б.
70. Исаева М. V-IX синфларда ўзбек адабиётини ўқитиш жараёнида ўқувчиларни ахлоқий камол топтириш. Пед. фан. номз... дисс. – Т., 1991. – 130 б.
71. Йўлдошев Қ. Б. Янгиланган педагогик тафакур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. докт. ... дисс. – Т., 1997. – 306 б.
72. Карасева С. Н. Психологические основы духовно-нравственного и волевого развития подростка в учебной деятельности. Автореф. дис. ... канд. псих. наук. – М., 2005. – 21 с.
73. Келдиёров Р. А. Адабиёт дарслари самарадорлигини оширишнинг илмий-методик асослари (Ўқитувчи касбий-маънавий сифатлари асосида). Пед. фан. номз. ... дисс. – Т., 2001. – 137 б.
74. Марасулова У. Н. Умумтаълим мактаблари ўқувчиларида адабий-назарий тушунчаларни шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. номз. ... дисс. – Т., 2007. – 151 б.
75. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. докт... дисс. – Т., 1998. – 306 б.

76. Мирқосимова М. М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. докт. ...дисс. – Т., 1995. – 253 б.
77. Ниёзметова Р. Х. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус тили гуруҳлари мисолида). Пед. фан. докт. ...дисс. – Т., 2007. – 242 б.
78. Нишонова З. Т. Мустақил ижодий фикрлашни ривожлантиришнинг психологик асослари. Псих. фан. докт ... дисс. – Т., 2005. – 391 б.
79. Норбаева Ф. Р. Умумий ўрта таълим мактаби VII-IX синф ўқувчиларида миллий онгни шакллантиришнинг педагогик асослари. Пед. фан. номз.... – Т., 2003. – 140 б.
80. Оборнева И. В. Автоматизированная оценка сложности учебных текстов на основе статистических параметров. Дис. ... канд. пед. наук. –М., 2006. – 165 с.
81. Олимов Қ. Т. Махсус фанлардан ўқув адабиётлари янги авлодини яратишнинг назарий-услубий асослари. Пед. фан. докт... дисс. – Т., 2005. – 288 б.
82. Суюнов Ҳ. М. Адабиёт дарсларида ўқувчиларни савол ва топшириқлар устида ишлашга ўргатиш усуллари (умумий ўрта таълим мактабларининг 5 – 9-синфлари мисолида). Пед. фан. номз...дисс. – Т., 2005. – 147 б. (1-2га қўш)
83. Тайлақов Н. И. Узлуксиз таълим тизими учун ўқув адабиётлари янги авлодини яратишнинг илмий-педагогик асослари (информатика курси мисолида). Пед. фан. докт. ... дисс. – Т., 2006. – 362 б.
84. Тилеганов А. Т. Халқ достонлари воситасида ўсмирларни маънавий-ахлоқий қадриятлар руҳида тарбиялаш (“Алпомиш” достони мисолида). Пед. фан. номз. ...дисс. – Т., 1998. – 149 б.
85. Тўйчиева С. М. Ўқувчилар ақлий ривожланишининг психологик хусусиятлари. Псих. фан. номз. ...дисс. – Т., 1998. – 168 б.
86. Усмонова О. Ю. Ёзувчи ҳаёти ва ижодини ўргатишда адабий таҳлил ҳамда талқинда фойдаланиш. Пед. фан. номз. ... дисс. – Т., 2007. – 146 б.

87. Чиниева С. А. Ўзбек оилаларида китобхонлик воситасида ўсмиirlар маънавиятини шакллантириш. Пед. фан. номз. ...дисс. – Т., 2006. – 149 б.
88. Эргашева Г. С. Умумий ўрта таълим мактаб биология дарсларлари ўқув материалларини лойиҳалашнинг дидактик асослари. Пед. фан. номз. ...дисс. – Т., 2006. – 174 б.
89. Қосимов А. А. Адабиётда болалик маънавий-ахлоқий категория сифатида (Аде Сент – Экзюперининг “Кичкина шаҳзода” ва Ч. Айтматовнинг “Оқ кема” асарлари мисолида). Фил. фан. номз. ... дисс. – Т., 1999. – 126 б.
90. Хусанбоева Қ. П. Адабий таълим жараёнларида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. докт. ...дисс. – Т., 2006. – 262 б.
91. URL <https://moluch.ru/archive/158/44686/>. Матмуротова З. Таълим методларини танлаш. // Молодой ученый. — 2017. №24. 2. — С. 39–40.
92. //<https://kopilkaurokov.ru/nachalniye>. Умиров З. Ўқув материали ва ўқув муаммолари таҳлили
93. <https://www.advertology.ru/article19286.html>. Формула читабельности Флеша.
94. <https://masteroklivejornal.com/4422989.html>. Самый удобочитаемый текст.
95. https://orfogrammka.ru/шпаргалка/индекс_удобочитаености_Флеша

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Adabiy ta'limdi tashkil etishda o'smir yoshidagi o'quvchilarga xos bo'lgan jismoniy, ruhiy xususiyatlarning ahamiyati	6
O'quv materiallari tahlili.....	22
O'quv materiallariga qo'yiladigan pedagogik talablar va ularning jahon "O'qishlilik indeksi" mezonlariga mosligi	52
Darsliklardagi o'quv materiallari ustida ishlashga qo'yiladigan metodik talablar	71
O'quv materiali sifatida tavsiya etiladigan adabiy asarlar bilan ishlash yo'llari	96
Darsdagi jarayon	106
Xulosa.....	125
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	127

MAHFUZA UMARQULOVNA TO'YCHIYEVA

**ADABIYOT DARSLARIDA
DIDAKTIK VOSITALAR: TANLOV O'LCHOVLARI,
QO'LLASH USULLARI**

MUHARRIR: O. JUMABOYEV

TEXNIK MUHARRIR: O. MUXTOROV

SAHIFALOVCHI VA DIZAYNER: H. SAFARALIYEV

Nashriyot litsenziyasi



4428

Bosishga ruxsat etildi 26.05.2023.

Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$. Offset qog'ozি.

Offset bosma usulida bosildi.

"Cambria" garniturasi. Shartli bosma taboq 8,5.

Adadi 100 nusxa.

"FAN VA TA'LIM" nashriyoti

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Web sayt: fanvatalim.uz

E-mail: info@fanvatalim.uz

Тел: (71) 244-75-88, (94) 664-40-03.

Original maket

"FAN VA TA'LIM" nashriyotida tayyorlandi.

"FAN VA TA'LIM" nashriyoti bosmaxonasida chop etildi.